

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**O.Qo‘ziboyeva, U.Isoqova,
Sadoqat O‘KTAMOVA, Elbek RASULOV**

MAMLAKATSHUNOSLIK

(O‘quv qo‘llanma)

**“Farg‘ona” nashriyoti,
2020-yil**

UO‘K:

KBK:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2019-yil 4-oktabrdagi 892-sonli buyrug‘iga asosan nashrga tavsiya etilgan.

Taqrizchilar:

A.Homidov, *geografiya fanlari nomzodi (Farg‘ona davlat universiteti);*

A.Qodirov, *geografiya fanlari nomzodi, dotsent (Andijon davlat universiteti).*

**O.Qo‘ziboyeva, U.Isoqova,
Sadoqat O‘ktamova, Elbek Rasulov**

MAMLAKATSHUNOSLIK: (5111400-Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili va adabiyoti) bakalavriat ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun) o‘quv qo‘llanma; ilmiy-uslubiy nashr; lotin yozuvida; O.Qo‘ziboyeva va boshq. – Farg‘ona: “Farg‘ona” nashriyoti, 2020. – 104 bet.

Ushbu darslik 5111400 – Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili va adabiyoti) bakalavriat ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda fan dasturiga muvofiq geografiya fanlarining ingliz tili fanlari bilan o‘zaro aloqadorligi asosida ingliz tilida gaplashuvchi mamlakatlarning geografik o‘rni, davlatlarning boshqaruv shakllari, davlat ramzlari, aholisi, urf-odatlari, ta’lim tizimi, sanoati, qishloq xo‘jaligi, transporti va O‘zbekiston Respublikasi bilan eksport-import aloqalari yoritilgan.

KIRISH

Ushbu fan talabalarga Buyuk Britaniya va AQSh davlatlarining aholisi, geografik o'rni, iqlimi, tarixi, jahon miqyosidagi siyosiy o'rni, madaniyati, urf-odatlar va iqtisodiyoti haqida keng ma'lumot berishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu fanni o'qitishda asosiy e'tibor talabalarining lug'at boyligini, o'qitilayotgan tildagi terminlar, atamalar va so'z birikmalarining ma'nolarini chuqur anglashga, jonli til bilan aloqa qilishlariga, hozirgi zamon ingliz tilining o'ziga xos xususiyatlarini o'rgatishga qaratiladi. Bundan tashqari, mazkur fan talabalarining vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirishga, chet tili orqali madaniyatlararo muloqotni amalga oshirishga xizmat qiladi.

“Mamlakatshunoslik” fani matematik va tabiiy-ilmiy fanlar blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, 2-kursda o'qitilishi maqsadga muvofiq. “Mamlakatshunoslik” fani xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili), filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili), tarjima nazariyasi va amaliyoti (ingliz tili) bakalavriyat ta'lim yo'nalishlarida o'qitiladi. Mazkur fan nafaqat chet tili bilan, balki tilshunoslik, leksikologiya, falsafa, siyosatshunoslik, iqtisodiyot va boshqa fanlar bilan uzviy bog'liqdir. Ular birgalikda talabalarining ma'lum yo'nalishdagi bilimlarini mustahkamlab, barkamol shaxs bo'lib yetishishlariga xizmat qiladi.

Mamlakatshunoslik fanini talabalarga ingliz tilida so'zlashayotgan mamlakatlarning jahon hamjamiyatidagi mavqei, u mamlakatning tabiiy sharoiti va foydali qazilmalari, ma'muriy-hududiy bo'linishi, ta'lim tizimi, aholisi, urf-odatlar va bayramlari, sanoat tarmoqlari, transport geografiyasi hamda tashqi iqtisodiy aloqalarini ken-

groq o'rganishlariga yo'l ochib, bu sohadagi ma'lumotlari kengayib borib, bilim, tushuncha va ko'nikmalarga ega bo'lishlariga ko'makchi bo'ladi.

1-mavzu. Mamlakatshunoslik faniga kirish

Reja:

- 1. Fanning maqsadi va vazifasi.*
- 2. Dunyo siyosiy kartasining shakllanishi.*
- 3. Dunyo davlatlarining siyosiy tuzilishi.*
- 4. Dunyoda ingliz tilida so'zlashuvchi davlatlar geografiyasi.*

Tayanch so'zlar: *Respublika, monarxiya, konstitutsiya, parlament, davlat tili, Antanta, siyosat, mustamlaka, kongress, palata, qadimgi davr, yangi davr, eng yangi davr, tayahch mamlakat, Uchlar ittifoqi, prezident, gimn, BMT, NATO, etnogeografiya.*

1. Fanning maqsadi va vazifasi. O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lim turlarida mamlakatshunoslik fanini o'qitishdan maqsad ta'lim oluvchilarning madaniyatli dunyoda maishiy, ilmiy va kasbiy sohalarda faoliyat yuritishi uchun kommunikativ kompetentsiyani shakllantirishdan iborat.

Kommunikativ kompetentsiya ishtirokchilarning o'z-lari tomonidan qo'yilgan aniq maqsadlarga qaratilgan nutq faoliyatini shakllantirishga imkon beradigan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar yig'indisini ifodalaydi.

Kommunikativ kompetentsiya talabalarning tili o'rganilayotgan mamlakat madaniyati bilan tanishishi, o'z mamlakati madaniyatini yanada yaxshiroq anglashi, uni

muloqot jarayonida ko'rsata olishini nazarda tutadi.

Mamlakatshunoslik fanini talabalar o'rganish jarayonida maqsaddan kelib chiqib ingliz tilida so'zlashayotgan mamlakatlarning jahon hamjamiyatdagi mavqei, u mamlakatning tabiiy sharoiti va foydali qazilmalari, ma'muriy-hududiy bo'linishi, ta'lim tizimi, aholisi, urf-odatlar va bayramlari, sanoat tarmoqlari, transport geografiyasi hamda tashqi iqtisodiy aloqalarini kengroq o'rganishni asosiy vazifa etib, bu sohadagi ma'lumotlari kengayib borib o'z bilim, tushuncha va ko'nikmasiga ega bo'lishadi.

2. Jahon siyosiy kartasining shakllanishi. Ma'lumki, dunyo siyosiy kartasi hozirgi holatga kelgunga qadar ko'p marotaba o'zgarishga uchragan. Dastlab "Afrika" qit'asining, ayniqsa, XV asrda yangi dunyo "Amerika qit'asi"ning ochilishi tufayli o'sha davrdagi Yevropaning yetakchi davlatlari dastlab Afrika keyinchalik Amerika qit'asi, so'ngra Avstraliya va Okeaniya yerlarini qayta-qayta bo'lib olib, o'z mustamlakachilik siyosatini olib borishdi. Natijada bu dunyo kartasidagi oq dog'lar o'rnida o'zlariga tegishli ranglarning hosil bo'lishiga olib keldi.

XX asrning boshlarida dunyo siyosiy kartasi o'zgarishiga kuchli turtki bo'lgan omil Birinchi Jahon urushidir. Ikki harbiy siyosiy bloklar – **"Antanta"** va **"Uchlar ittifoqi"**ning bir-birlari bilan urushi I Jahon urushini keltirib chiqardi.

"Antanta" harbiy tashkiloti 1895-1907-yillari tashkil topgan bo'lib, unga Fransiya, Angliya, Rossiya va Serbiya kabi mamlakatlar kirgan.

"Uchlar ittifoqi" harbiy bloki Germaniya, Avstriya-Vengriya, Italiya mamlakatlaridan tarkib topgan bo'lib, bu harbiy blok 1882-yili tashkil topgan.

I jahon urushi 1914-yili boshlanib, 1918-yili tugagan.

Bu urush yillari Belorussiyaning gʻarbiy qismi, Ukrainaning gʻarbiy qismi hamda Moldaviya (Bessarabiya) Germaniya hamda Ruminiya davlatlari tomonidan bosib olindi va oʻsha davlatlarning mustamlakasiga aylandi.

1917-yil Rossiyada Oktyabr revolyutsiyasi roʻy berdi va revolyutsiya gʻalaba qozondi. Oktyabr revolyutsiyasidan soʻng Rossiyada fuqarolar urushi alanga oldi.

Bu davrda birgina Oʻzbekiston hududi 3 davlatga boʻlingan boʻlib, ular:

1. Buxoro amirligi
2. Xiva xonligi
3. Qoʻqon xonligi edi.

Mazkur amirlik va xonliklar 1917-yilgacha, ularning qoldiqlari esa 1920-yilgacha hukmronlik qilgan.

1922-yil 30-dekabr kuni dunyo siyosiy kartasida yangi davlat paydo boʻldi. Shu kuni RKP(b) ning Butunittifoq I-syezdidagi RSFSR, Ukraina, Belorussiya va ZSFSR birlashib SSSR ni tashkil qildi.

1936-yilgacha Oʻrta Osiyo respublikalari birin-ketin sobiq SSSR tarkibiga qoʻshilib bordi.

1924-yil dunyo siyosiy kartasida 2-sotsialistik davlat paydo boʻldi. U Mongoliya Xalq Respublikasi edi. Shunday qilib, jahon mamlakatlari sotsialistik va kapitalistik sistemaga boʻlindi.

II jahon urushi dunyoni qayta taqsimlash va sotsialistik sistemani yoʻqotish uchun 1939-yil boshlandi. 1940-yil Gʻarbiy Belorussiya, Gʻarbiy Ukraina va Moldaviya SSSR tarkibiga qayta qoʻshib qaytarib olindi. Shu yili Boltiqboʻyi respublikalari – Latviya SSR, Litva SSR va Estoniya SSR lar tashkil topdi va SSSR tarkibiga qoʻshildi.

1941-1945-yillari jahonda sotsialistik tizim kengaydi va kuchaydi.

G'arbiy Yevropadagi Germaniya tomonidan bosib olingan bir qator davlatlar Germaniya zulmidan ozod etildi va sotsialistik davlatlar qatoriga qo'shildi.

- | | |
|-------------------|----------------|
| 1. Polsha | 5. Ruminiya |
| 2. GDR | 6. Bolgariya |
| 3. Chexoslovakiya | 7. Yugoslaviya |
| 4. Vengriya | 8. Albaniya |

1945-yil Yapon militarizmi tor-mor keltirildi. Horijiy Osiyoda 4 ta davlat sotsialistik sistema qatoriga qo'shildi:

1. Xitoy Xalq Respublikasi
2. KXDR
3. Vetnam
4. Laos

1959-yil Amerika qit'asida ham sotsialistik davlat paydo bo'ldi. Bu davlat Kuba Respublikasidir. Shunday qilib, jahon sotsialistik sistemasida jami 16 ta davlat mavjud edi.

XX asrning 2-yarmidan boshlab Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlarida milliy ozodlik harakatlari kuchayib ketdi. Bunday harakatlar ayniqsa Afrika qit'asidagi II jahon urushida yengilgan mamlakatlarning mustamlakalarida keskin tus oldi. Masalan: 1957-yilning o'zida Afrikada 20 ga yaqin davlat mustamlaka zanjirini ulotirib tashlab ozodlikka erishdi. Shuning uchun **1957-yil – Afrika mustaqillik yili deb e'lon qilingan.**

Ma'lumki, I-jahon urushida Yer shari xususan, Afrika qit'asi o'sha davrdagi agressiv davlatlar – Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Belgiya, Portugaliya, Ispaniya kabi davlatlar tomonidan bo'lib olingan edi.

Mustamlakachi davlatlarning II-jahon urushida kuchsizlanishi va mag'lubiyatga uchrashi mustamlaka mamlakatlarda milliy ozodlik harakatlarining keskin tus olishiga sabab bo'ldi.

1990-yillarga kelib dunyo siyosiy kartasida kuchli oʻzgarish roʻy berdi. Ular quyidagilar:

- GFR va GDR birlashib yagona Germaniya davlatini tashkil topishi.

- Varshava shartnomasi va OʻIYoK tashkilotlarining tarqatib yuborilishi.

- Sobiq sovet davlatining parchalanib ketishi natijasida dunyo siyosiy kartasida 15 ta suveren davlat paydo boʻlishi.

- Chexoslovakiyaning ikki davlatga boʻlinib parchalanishi: Chexiya – Praga, Slovakiya – Bratislava.

- YuFSR dagi siyosiy ahvolning keskinlashuvi va oʻzaro janglar natijasida 6 ta suveren davlatlar paydo boʻldi:

1. Xorvatiya – Zagreb;
2. Bosniya va Gertsegovina – Saraevo;
3. Makedoniya – Skope;
4. Sloveniya – Lyublyana
5. Serbiya – Belgrad
6. Chernogoriya – Podgoritsa

Maʼlumki, «dunyoda nechta davlat bor?» degan savolga aniq bir javobni aytish birmuncha mushkul. Buning sababini dunyo xaritasida turli maqomga ega hududiy-maʼmuriy birliklar – mustaqil davlatlar, jahon hamjamiyati tomonidan toʻla tan olinmagan mamlakatlar, maqomi aniqlanmagan, boshqa mamlakatlarga qaram hududlarning mavjudligi bilan izohlash mumkin.

1933-yilda Urugvayning Montevideo shahrida oʻtkazilgan xalqaro anjumanda davlat tushunchasiga aniqlik kiritishga ilk bor toʻxtalib oʻtili. Anjumanda qabul qilingan, Montevideo konvensiyasi deb nom olgan yakuniy hujjatda «davlat» tushunchasiga taʼrif berilib, uni siyosiy-geografik birlik sifatida tan olishning quyidagi asosiy toʻrtta mezoni belgilandi:

1. Doimiy aholining mavjudligi
2. Ma'lum hududga egaligi
3. O'z hukumatining mavjudligi
4. Boshqa davlatlar bilan tashqi aloqalarni amalga oshirish imkoniyati yetarliligi

Haqiqatan ham, manbalarga ko'ra, davlat xalqaro huquqning subyekti sifatida xalqaro munosabatlarning asosiy ishtirokchisi hisoblanadi va muayyan aholiga ega bo'lgan hududda siyosiy hokimiyatni tashkil etishni o'z ichiga oladi.

Montevideo konvensiyasida belgilab berilgan mezonlar hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Birlashgan Millatlar Tashkilotiga yangi a'zolar qabul qilishda ushbu mezonlar qat'iy ravishda hisobga olinadi. Shunga ko'ra, hozirgi kunda dunyoda ushbu mezonlarga to'la javob beradigan 194 ta mustaqil davlat mavjud, deb aytish mumkin. **BMT 1945-yil 24-oktyabrda tashkil topgan bo'lib, qarorgohi Nyu-Yorkda joylashgan.** (2011-yilning 9-iyulida Sudan ikkiga bo'linib, Janubiy Sudan davlati tashkil topdi va shu yil 14-iyulda BMTga a'zo bo'ldi). Ushbu davlatlardan 193 tasi BMTga a'zo, dunyodagi eng mitti davlat Vatikan BMTda doimiy kuzatuvchi maqomiga ega.

Dunyo kartasida BMTda kuzatuvchi maqomiga ega, dunyoning 104 mamlakati bilan diplomatik aloqalar olib boruvchi, bor-yo'g'i 0,012 ming km² hududga ega Malta ordeni kabi mitti davlatlar ham bor.

Har yili Nyu-Yorkda nashr qilinadigan «Dunyo almanaxi»da BMTga a'zo va kuzatuvchi (Vatikan) bo'lgan 194 ta mustaqil davlatlar haqida ma'lumotlar e'lon qilinadi.

Har yili Vashingtonda chop etiladigan «Jahon faktlar yilnomasi»da dunyodagi 266 ta siyosiy va geografik

hududiy birliklar bo'yicha ma'lumotlar keltiriladi.

Shunday qilib, dunyodagi davlatlarning umumiy soni sayyoramizda mavjud hududlarga qanday siyosiy-geografik ta'rif berilishiga bog'liq holda, 194 tadan 266 taga o'zgarishi mumkin. Demak, dunyodagi davlatlar sonining har xil manbalarda turlicha ko'rsatilishini mutaxassislarining ushbu masalaga qay yo'sinda yondashishi bilan izohlash mumkin.

Hududining kattaligiga ko'ra dunyoda har birining maydoni 3 mln km² dan ortiq bo'lgan 7 ta eng katta mamlakat ajratilgan bo'lib, ularning yalpi maydoni Yer yuzidagi quruqlikning 1/2 qismiga yaqinini egallagan. U mamlakatlar quyidagilar:

1. Rossiya (17 mln. km²);
2. Kanada (10 mln. km²);
3. Xitoy (9,6 mln. km²);
4. AQSH (9,4 mln. km²);
5. Braziliya (8,5 mln. km²);
6. Avstraliya (7,7 mln. km²);
7. Hindiston (3,3 mln. km²);

Aholi soni mln. dan oshiq bo'lgan 166 mamlakat va hududlar mavjud. Shundan aholi soniga ko'ra 2 tasi milliarder davlat (Xitoy va Hindiston), 10 ga yaqin aholi soni 100 mln. dan ortiq bo'lgan davlatlar mavjud.

1. Xitoy – 1.370 mln kishi, shahar aholisi 24%
2. Hindiston – 1.220 mln kishi, shahar aholisi 26%
3. AQSH – 320 mln kishi, shahar aholisi 75 %
4. Indoneziya – 232 mln kishi, shahar aholisi 42 %
5. Braziliya – 189 mln kishi, shahar aholisi 80 %
6. Pokiston – 169 mln kishi, shahar aholisi 28 %
7. Bangladesh – 149 mln kishi, shahar aholisi 23 %
8. Nigeriya – 144 mln kishi, shahar aholisi 44 %

9. Rossiya – 148 mln kishi, shahar aholisi 72%

Dunyo siyosiy kartasida oʻrtacha va kichikroq mamlakatlar koʻpchilikni tashkil etadi. Hududiga koʻra juda kichik davlatlar ham borki, ular “mitti davlatlar” deb ataladi.

1. Andorra
2. Vatikan
3. Monako
4. San-Marino
5. Malta
6. Lixtenshteyn
7. Grenada

3. Dunyo davlatlarining siyosiy tuzilishi. Mamlakatlarni rivojlanish darajasiga koʻra BMT tomonidan 2 toifaga boʻlish qabul qilingan: iqtisodiy jihatidan rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar.

Rivojlangan mamlakatlar ichida “Gʻarbning katta yettilik mamlakatlari” alohida ahamiyatga ega. “Gʻarbning katta yettilik mamlakatlari”ga AQSH, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Kanada kabi davlatlar kiradi. Mazkur toifaga 1998-yildan Rossiya ham kiritilgan. Hozirda ular “Katta sakkizlik” deb ataladi. Bular Gʻarb dunyosining yetakchi mamlakatlari boʻlib, katta miqyosdagi iqtisodiy va siyosiy faoliyati bilan ajralib turadi.

“Katta sakkizlik” mamlakatlarida aholi jon boshiga toʻgʻri keluvchi ichki yalpi mahsulot (IYaM) 10 ming dollardan 20 ming dollargacha yetadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar.

1. Tayanch mamlakatlariga – Hindiston, Braziliya, Meksika kiradi. Bu mamlakatlar juda katta tabiiy, aholi va iqtisodiy imkoniyatlarga ega. Rivojlanayotgan mamlakatlar ichida koʻp jihatdan yetakchidir. Masalan, hamma rivojlanayotgan mamlakatlar qancha sanoat mahsuloti ish-

lab chiqarsa, bu uch mamlakat ham shuncha sanoat mahsuloti ishlab chiqaradi. Lekin bu davlatlarda ham YaIM rivojlangan davlatlardan ancha kam. Masalan: Hindistonda IYaM qiymati jon boshiga 3800 AQSH dollarni tashkil etadi. Holbuki, bu ko'rsatkich dunyo bo'yicha 9940 AQSH dollarini tashkil etadi.

2. Yangi sanoatlashgan mamlakatlar toifasi. Dunyoda "Osiyo yo'lbarzlari" nomi bilan mashhur bo'lgan Osiyodagi 4 ta davlat: Koreya, Tayvan, Gonkong, Singapur kiradi. Bu davlatlar 70-80-yillarda rivojlanayotgan ko'p mamlakatlardan juda o'zib ketdi. XXI asrning boshiga kelib mazkur toifaga Yapon modeli asosida Malayziya va Tailand qo'shildi. Hozirda Indoneziya va Filippin davlatlari shu taraqqiyot yo'lidan bormoqda. "Osiyo yo'lbarzlari" toifasiga Yevropa kapitali ostida Turkiya, Kipr va Isroil ham kiritildi.

"Osiyo yo'lbarzlari" mamlakatlarining jahon xo'jaligida tutgan o'rni tobora ortib bormoqda.

Tashqariga neft eksport qiluvchi mamlakatlarga (OPEK) – Saudiya Arabistoni, Quvayt, Katar, BAA, Liviya, Bruney kabi jami 13 mamlakat kiradi. Bu mamlakatlarda neft sotishdan katta daromad kelganligidan aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi IYaM 10-15 ming dollar va undan ortiq daromadni tashkil etadi. Masalan, Quvaytda IYaM 29300 AQSH dollarini tashkil etadi.

Jahon mamlakatlarining davlat tuzumi avvalo idora qilishi, ya'ni boshqarish shakliga bog'liq. Davlatni idora qilishning 2 asosiy shakli mavjud. Bu Respublika va Monarxiya hamda hamkorlik. Dunyo mamlakatlarining 74%i Respublika, 15%i Monarxiya, 9%i Britaniya va MDH hamkorligi, 2%i boshqa shakllarda boshqariladi.

Boshqarishning Respublika shakli ancha keng tarqal-

gan bo‘lib, dunyo mamlakatlarining asosiy qismi (74% i) respublikalardir. Respublika davlatni idora qilishning shunday bir shakli, bunda qonun chiqaruvchi hokimiyat saylanib qo‘yiladigan yuqori organ – parlament ixtiyoridadir. Ijro etuvchi organ hukumat ixtiyorida bo‘ladi. Masalan: O‘zbekistonda Oliy Majlis ikki palatali bo‘lib, yuqori palata Senatdan, quyi palata esa Qonunchilik palatasidan iborat. Dunyodagi birinchi Respublika davlati – Italiyadir.

Davlatni boshqarishning Monarxiya shakli ancha kam tarqalgan. Hozirda jahon mamlakatlari ichida hammasi bo‘lib 43 ta monarxiya shaklida yoki Britaniya hamdo‘stligi shaklida boshqariluvchi mamlakatlar bor. Monarxiyalarda imperator, qirol, knyaz, shoh, sulton va boshqalar davlat boshlig‘i hisoblanadi. Shunisi ham bor, ki, bunda oliy hokimiyat nasldan-naslga o‘tadi. Bunday davlatlar orasida konstitutsion monarxiyalar ko‘pchilikni tashkil etadi. Konstitutsion monarxiyalarda haqiqiy qonun chiqaruvchi hokimiyat – parlament, ijro etuvchi hokimiyat esa – hukumat ixtiyoridadir.

Monarx hokimlik qilsa-da, idora qilmaydi. Bunday mamlakatlarda monarxiya tuzumi o‘ziga xos tarixiy, ba’zan ming yillik an’ana sifatida saqlanadi va “toj-taxt”ning bir vaqtlardagi qudratidan darak berib turadi, xolos. Masalan: Buyuk Britaniya dunyodagi eng keksa konstitutsion monarxiya davlatidir. Qirol davlat va sud tizimining boshlig‘i, harbiy kuchlar bosh qo‘mondoni, ingliz davlat cherkovining dunyoviy boshlig‘i, shuningdek, Buyuk Britaniya tomonidan boshqariluvchi Hamdo‘stlikning ramzi hisoblanadi; bu hamdo‘stlikka 50 ga yaqin mamlakat kiradi. Qirol parlament qabul qilgan qonunlarni tasdiqlab imzo qo‘yadi.

Mutloq monarxiyada, aksincha, monarx hokimiyati

deyarli cheklanmagan. Biroq hozirgi zamon jahon siyosiy kartasida bunday mamlakatlar kam qolgan. Saudiya Arabistoni – mutloq monarxiyadir. Bu yerda qirol qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat vazifasini o'taydi. Ayni vaqtda u bosh vazir, bosh qo'mondon, oliy hakam, shuningdek diniy boshqaruvchi vazifalarni bajaradi. Hukumat asosan qirol sulolasidan tarkib topadi. Masalan: Saudiya Arabistonining 1-qirol Abdul Aziz ibn Saudning 5000 ga yaqin sulolasi hozirda mamlakatni boshqarmoqda.

Yevropadagi monarxiya davlatlari:

- | | |
|-------------------------------|-----------------------------|
| 1. Andorra (knyazlik) | 7. Lixtenshteyn (knyazlik) |
| 2. Belgiya (qirollik) | 8. Lyuksemburg (gersoglik) |
| 3. Vatikan (papa davlati) | 9. Monako (knyazlik) |
| 4. Buyuk Britaniya (qirollik) | 10. Niderlandiya (qirollik) |
| 5. Daniya (qirollik) | 11. Norvegiya (qirollik) |
| 6. Ispaniya (qirollik) | 12. Shvetsiya (qirollik) |

Osiyodagi monarxiya davlatlari:

- | | |
|-------------------------|------------------------|
| 1. Bahrayn | 8. Malayziya |
| 2. Brunej | 9. Oman |
| 3. Butan (qirollik) | 10. Tailand |
| 4. Iordaniya (qirollik) | 11. Yaponiya |
| 5. Kambodja (qirollik) | 12. BAA |
| 6. Katar | 13. Saudiya Arabistoni |
| 7. Quvayt | |

Shimoliy Amerikadagi monarxiya davlatlari:

- | | |
|-----------------------|----------------------------|
| 1. Antigua va Barbuda | 6. Kanada |
| 2. Bagam | 7. Sent-Vinsent va Grenada |
| 3. Barbados | 8. Sent-Kits va Nevis |
| 4. Beliz | 9. Sent-Lyusiya |
| 5. Grenada | 10. Yamayka |

Afrikadagi monarxiya davlatlari:

1. Lesoto (qirollik)
2. Marokko (qirollik)
3. Svazilend (qirollik)

Avstraliya va Okeaniyadagi monarxiya davlatlari:

- | | |
|--------------------|---------------------|
| 1. Avstraliya | 5. Salomon orollari |
| 2. Samoa | 6. Tonga |
| 3. Yangi Gvineya | 7. Tuvalu |
| 4. Yangi Zelandiya | |

Jami 43 ta monarxiya davlati bor.

Hozirda jahon mamlakatlari federativ (10%) va unitar (90 %) davlatlarga bo'linadi.

Qolgan barcha davlatlar unitar davlatlardir. Unitar davlatlarda hududiy tuzilishi shakliga ega bo'lib, bu tuzumda mamlakatda yagona qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat mavjud bo'ladi. Masalan: O'zbekiston.

4. Dunyoda ingliz tilida so'zlashuvchi davlatlar geografiyasi. Buyuk Britaniya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Kanada, Avstraliya, Hindiston, Yangi Zelandiya, Janubiy Afrika Respublikasi.

Ishchi rejaga muvofiq keyingi mavzularda ushbu mamlakatlarning tabiiy sharoiti va foydali qazilmalari, ma'muriy-hududiy bo'linishi, ta'lim tizimi, aholisi, urf-odatlar va bayramlari, sanoat tarmoqlari, transport geografiyasi hamda tashqi iqtisodiy aloqalarini kengroq o'rganish belgilangan.

Talabalar bilimini mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Yer sayorasi aholisi haqida nima bilasiz?
2. Aholini bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi oqibatlari?
3. Yer yuzasining qaysi qismi aholisi zich bo'lgan uch

mintaqa hisoblanadi?

4. Aholi to'rt asosiy piramidasi haqida ma'lumot bering.
5. Madaniy va etnik tarkibi farqlari nimalardan iborat?
6. Dunyoda taxminan nechta til bor? Qaysi qit'ada ko'p?
7. Eng ko'p tarqalgan besh tilga qaysilari kiradi? Qaysi mamlakatlarda bu til asosiy til hisoblanadi?
8. Asosiy yirik dinlar?

2-mavzu. Buyuk Britaniya geografik o'rni, hududi, qismlari va iqlimi



Reja:

1. *Buyuk Britaniyaning joylashgan geografik o'rni, maydoni, jahonda tutgan mavqei.*
2. *Buyuk Britaniyaning tabiiy sharoiti (yer tuzilishi, iqlimi, ichki suvlari, o'simlik va hayvonat dunyosi).*
3. *Buyuk Britaniyaning yer osti va usti foydali qazilmalari.*

Tayanch iboralar: *qirollik, qirolicha, orol, bog'oz, sterling, EI, Kardiff, La-Mansh, Pade-Kale, Golfstrim, flora, fauna, milliy bog', qo'riqxonalar, slanalar, uran, rangli metal, alyumin, import, eksport.*

1. **Buyuk Britaniyaning joylashgan geografik o'rni, maydoni, jahonda tutgan mavqei.**

Poytaxti – London.

Maydoni – 243809 km² (2)

Aholisi – 63395574 kishi (37)

Davlat tuzumi – konstitutsion monarxiya. Buyuk Britaniya Hamdo'stligi tarkibiga kiruvchi, EI ga a'zo davlat.

Qirolicha – Yelizavetta II. **Bosh vazir** – Tereza Mey

Davlat dini – xristian dini

Davlat tili – ingliz

Tashkil topgan yili, kuni – 1801-yil 1-yanvar

Pul birligi – funt sterling

Vaqt mintaqasi – (UTC+0)

Yoz (DST) – (UTC+1)

Qisqartma – UK

Internet domen – .uk, .gb, .co.uk

Telefon prefiksi – +44

Buyuk Britaniya – yuqori rivojlangan industrial mamlakat. Poytaxti – London. Yirik shaharlari – Glazgo, Belfast, Kardiff, Manchester. YaIM – 2.172 trln dollar (8-o'rinda). Aholi jon boshiga 34919 dollar (18-o'rinda). Pul birligi – funt sterling. Buyuk yettilik mamlakatlari qatoriga kiradi.

Britaniya iqtisodiyotida farmasevtika sanoati va neft qazib olish asosiy o'rinda. Mamlakat Shimoliy dengizda neft va gaz zaxiralariga ega (250 mlrd funt sterlingda baholanadi). Britaniya dunyoning bank, sug'urta, broker hamda kompyuter dasturlashtirish bo'yicha xizmatining 10 foizini amalga oshiradi. Hozirda mamlakat biznesni boshqarishda qulaylik yaratish indeksi bo'yicha dunyoda 4-o'rinda, Yevropada bibinchi o'rinda turadi (World Bank's Ease of Doing Business Index).

Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Qo'shma Qirolligi (ingl. *United Kingdom of Great Britain and Northern Ireland*) – Shimoli-g'arbiy Yevropadagi davlat. Buyuk

Britaniya oroli (mamlakat hududining 90 %i shu orolda) va Irlandiya orolining shimoli-sharqiy qismida hamda ularga yondosh mayda orollar (Anglsi, Uayt, Normand, Orkney, Gebrid, Shetlend va boshqalar)da joylashgan. Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Qo'shma Qirolligini shimol va g'arbdan Atlantika okeani, sharqdan Shimoliy dengiz, janubi-g'arbdan Irlandiya Respublikasi, janubdan La-Mansh bo'g'ozini orqali Yevropa qit'a'si (Fransiya davlati) o'rab turadi.

Tarixan tarkib topgan va milliy jihatdan har xil bo'lgan 4 ma'muriy-siyosiy qism (Angliya-London, Uels-Kardiff, Shotlandiya va unga yondosh orollar – Edinburg, Shimoliy Irlandiya – Belfast)dan iborat. Men va Normand orollari mustaqil ma'muriy hudud hisoblanadi.

Buyuk Britaniyaning eng yirik orollari: Anglsi, Uayt, Normand orollari, Orkney orollari, Gebrid orollari, Shetlend orollari, Men, Arran, Ayley, Skay va hokazo.

Britaniya orollari arxipelagda (bir qancha orollarda) joylashgan. Siyosiy jihatdan Buyuk Britaniya G'arbiy Yevropada joylashgan. Mamlakat Yevropa materigidan ajralib turadi. Britaniya ikkita mustaqil mamlakatlardan: Irlandiya Respublikasi va Buyuk Britaniyadan iborat. Britaniya Qo'shma Qirolligi Angliya, Shotlandiya, Uels, Shimoliy Irlandiyadan tashkil topgan. Irlandiya Respublikasi alohida mamlakat va poytaxti – Dublin. Buyuk Britaniyaning poytaxti – London va u Yevropaning moliyaviy markazi hisoblanadi.¹

2. Buyuk Britaniyaning tabiiy sharoiti (yer tuzilishi, iqlimi, ichki suvlari, o'simlik va hayvonat dunyosi). Buyuk Britaniyaning yer yuzasi asosan pasttekislik, tekis-

¹ World Regional Geography People, Places and Globalization. Royal Bingley, Morehead State University, 2012 (43-bet).

lik, qirlar va past tog'lardan iborat. Britaniya orollarining tog'lari asosan kaledon anteklizalarida joylashgan. Faqat Irlandiya va Uelsning janubiy rayonlari, Pennin tog'lari gertsin strukturalaridan iborat. Shunga ko'ra, bu yerda ham kryajlar, bo'ylama daryo vodiylari, qo'ltiqlar, ko'l kotlovinalari va boshqalar asosan shimoli-sharqiy (kaledon) yo'nalishdadir. Buyuk Britaniya orolining tog'li shimoli-g'arb va tekislik janubi-sharq bir-biridan aniq farq qiladi. Orolning shimoli-g'arbida uzilma vodiylar va kotlovinalar bilan qator tog'liklar, gumbazsimon va palaxsali massivlarga ajralgan past va o'rtacha balandlikdagi tog'lar asosiy o'rin tutadi.

Buyuk Britaniya tog'larining g'arbiy chekkasi odatda sharqiy chekkasidan baland. Buyuk Britaniyaning tog'li shimoli-g'arbining tuzilishida asosan kembriydan oldingi davr va quyi paleozoy kristall hamda metamorfik jinslari va qisman yuqori paleozoyning quruqlik va sayoz suv yotqiziqlari ishtirok etadi. Uzoq davom etgan denudatsiya kaledon tog'larini ham, gertsin burmali tog'larini ham pe-neplenlashgan massivlarga aylantirib yuborgan. Alp davridagi harakatlar tektonik yoriqlarning qadimgi sistemasini qaytadan tiklagan, bu massivlarni parchalab turlicha balandlikka ko'targan. Suv va muz eroziyasi keyinchalik tog'liklar yuzasini yemirib, Britaniya orollari uchun xarakterli bo'lgan tog'-muzlik relyef shakllari kompleksini vujudga keltirgan. Tog'larning sohili relyefi taraqqiyotida quruqlikning turlicha ko'tarilishi sharotida ro'y bergan dengiz abraziyasi katta rol o'ynagan. Shuning uchun ham dengizning hozirgi sathidan 40 m gacha baland bo'lgan ko'pdan-ko'p terrasalar, g'orlar, ungurlar vujudga kelgan.

Buyuk Britaniya tog'larini hududlar bo'yicha ko'rib chiqqanimizda: Angliyaning shimoli-g'arbiy qismlari tog'-

likdan, markazi va janubi-sharqiy qismi tekislik va sertepa pasttekisliklardan, Shotlandiyaning qirg'og'i egri-bugri qirlardan iborat. *Shotlandiya tog'ligi* eng baland. Shimoliy Shotlandiya tog'ligi janubida (Grampian tog'lari) mamlakatning eng baland cho'qqisi – Ben-Nevis (1343 m) ko'tarilib turadi. *Shimoliy Shotlandiya tog'ligi* va ancha past *Janubiy Shotlandiya qirlarini* (balandligi 842 m gacha) tor va chuqur Glen-Mor depressiyasi 2 qismga bo'lib turadi.

Grampian tog'laridan janubda Shotlandiya pasttekisligi, undan janubroqda Janubiy Shotlandiya qiri (842 m gacha) joylashgan. Ulardan g'arbda Kamberlend tog'lari (Skofell tog'i, 978 m) qad ko'targan.

Janubga tomon orol kengaya boradi; bu yerda – Uels yarim orolining g'arbida Kembriy tog'lari balandligi jihatidan Shimoliy Shotlandiya tog'ligidan bir oz past (*Snoudon* cho'qqisi. 1085 m).

Markazdan atrofga oqadigan daryolar bo'ylab joylashgan ko'pdan-ko'p tor, lekin uzun tektonik-glyatsial ko'llar tufayli Kamberlend juda go'zal ko'rinadi. Kamberlenddan farq qilib, *Pennin tog'lari* shimoldan janubga cho'zilgan va usti yassiroq bo'lgan gertsin antiklinal tog'laridir. Uzilmali tektonika antiklinal strukturasini murakkablashtirib yuborgan va g'arbiy yon bag'irlari tik asimmetrik shakl bergan. Antiklinal gumbaz yuvilib ketgan, oqibatda yuqori paleozoy qumtoshlari va ohaktoshlari ochilib qolgan. Ohaktoshli yerlarda karst reluef shakllari uchraydi.

Angliyaning g'arbiy qirg'og'ida keng qo'ltiqlar (Liverpul, Kardigan, Bristol), markaziy va janubiy qismlarida pasttekisliklar (Shimoli-sharqiy Feni, London havzasi, Midlend, Xempshir), qator asimmetrik tepalar (200-300 m) bor.

Buyuk Britaniyaning janubi-sharqi ko'pincha *London havzasi* deb ataladigan zinapoya shaklida bir oz

past-baland tekisliklardan iborat. Bu tekisliklar bir oz qiya bo'lgan mezozoy qumtoshlari va ohaktoshlari hamda uchlamchi davr gillari bilan to'lgan mulda shaklidagi sinekliza o'rnida joylashgan. Bu yotqiziqlarning monoklinal qatlamlari Pennin tog'lari va Uelsdan Temzaning o'rta oqimi – *London pasttekisligi* tomonga bir oz qiya. Daryo eroziyasi tekislikni shimoli-sharqqa tomon yo'nalgan qator-qator kuestali gryadalarga va ular o'rtasida gilli pasttekisliklarga bo'lib yuborgan. *Kotsuolda* yura kuestali tepaliklari (326 m gacha), *Chiltern-Xils*, *Uaytxorst Xils* qirlarining bo'r davri gryadalari ko'zga yaqqol tashlanadi. Buyuk Britaniyaning eng janubi, ya'ni shimoliy va janubiy *Dauns* qirlari uchun ham kuesta relyefi xarakterlidir.

Shimoliy Irlandiya ayrim kichik-kichik qirlardan (Antrim, Sperrin, Morn va b., 852 m.) iborat. Irlandiya geomorfologik xususiyati ko'p jihatdan Buyuk Britaniya geomorfologik xususiyatiga o'xshaydi. Bu orolning o'rta qismi toshko'mir davrining gorizontal yotgan ohaktoshlardan tarkib topgan pastroq (100 m gacha bo'lgan) *Markaziy tekislik* bilan band. Ohaktoshlar usti morena gillari bilan qoplangan. Bu tekislikning nishobi katta emas, grunt suvlari yuzada yotadi, yer kuchli darajada botqoqlangan, bu esa tuproq va gruntning gilli jinslardan iboratligigagina emas, balki ular tagidagi yupqa hamda yorilib-yorilib ketgan ohaktoshlarga ham bog'liq, bu ohaktoshlar oqar suv hosil bo'lishiga yo'l qo'ymaydi. Irlandiyaning boshqa rayonlari past o'rtacha balandlikdagi hamda eroziya va qadimgi muzliklar natijasida juda parchalanib ketgan tog'lardan iborat. Bu tog'lar asosan Buyuk Britaniya tog'larining tektonik va orografik davomi; Irlandiya Buyuk Britaniyadan muzlikdan keyingi davrda ajralgan. Irlandiyaning shimoli-sharqida (Shotlandiyaning qo'shni

rayonlaridagi kabi) abraziyon yuzali pastroq bazalt platolari (*Antrim* va boshqalar) keng tarqalgan. Bunday yerlar bazaltlarning nurashi natijasida ustunsimon shakllar (organ shakllari) kasb etgan bo‘lib, ko‘pincha g‘o‘la tosh terilgan keng ko‘chalarga o‘xshaydi.

Buyuk Britaniyaning tog‘ tizmalari: *Antrim* – 683 m (Sh.Ir.), *Shotlandiya – Grampion tog‘lari* (*Ben-Nevis* – 1343 m; *Sh*), *Janubiy Shotlandiya yassi tog‘lari* – 842 m (*Sh*), *Pennin tog‘lari* (A), *Kamberlend tog‘lari* – *Skofell tog‘i* – 978 m (A), *Kembriy tog‘lari* – *Snoudon cho‘qqisi* – 1085 m (*Uels*) va boshqa past tog‘lar mavjud.

Buyuk Britaniya orollari orografik tuzilishining xususiyatlari yog‘in-sochin, o‘simlik va tuproqlarning, gidrografik shoxobchalarning taqsimlanishiga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Hudud iqlimi shu kenglikdagi boshqa yerlardagidan qishning juda yumshoq kelishi, haroratlar amplitudalarining kichik bo‘lishi (yillik o‘rtacha harorat shimolda 8°C dan janubda 14°C gacha), yog‘inning ko‘p yog‘ishi, kuchli shamol esib va tez-tez tuman bosib turishi natijasida ob-havoning o‘zgaruvchan bo‘lishi bilan farq qiladi.

Britaniya orollari ustidan oktyabr va mart oylarida siklonlar ayniqsa ko‘p o‘tadi. Ya‘ni, Atlantika okeani passat shamollar ta‘sirida Meksika qo‘ltig‘i va Karib dengizi havzasidan boshlanib, Shimoliy muz okeani tomonga qarab esuvchi “*Golfstrim*” (“iliq”) oqimining ta‘siri tufayli butun Buyuk Britaniya va o‘nga yaqin bo‘lgan hududlar iqlimi qish oyida juda sovub ketmaydi va qolgan fasllarda okean nam havo tasirida bo‘lib, yog‘in-sochining ko‘p bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Buyuk Britaniyada mo‘tadil dengiz iqlimi hukmron; u seryog‘in, o‘zgaruvchan, tez-tez shamol bo‘lib turadi.

Janubi-gʻarbida yanvarning oʻrtacha harorati 7° , sharqda $3,5^{\circ}$ gacha. Shimoli-gʻarbida yoz salqin, sernam, janubi-sharqda ancha iliq va quruq. Shimolda iyulning oʻrtacha harorati 13° , janubi-sharqda $16,5^{\circ}$. London va uning atrofida qishda harorat ancha vaqt davomida 0° dan past, mamlakat sharqida baʼzan -18° gacha tushadi. Yogʻin yil davomida deyarli bir meʼyorda (kuz va qishda bir oz koʻproq) tushadi, janubi-sharqida yoz va kuzda koʻproq yogʻadi. Shotlandiya, Shimoliy Irlandiya, Angliya bilan Uelsning togʻli joylarida yogʻin eng koʻp (1000-1500 mm, ayrim joylarda 3000 mm gacha) yogʻadi. Janubi-sharqda 600-750 mm dan oshmaydi. Bulutli kunlar koʻp, qishda tez-tez tuman (Londonda qishda 1 oyda 7-10 kun) tushadi.

Daryolari koʻp, sersuv, lekin qisqa. Daryolar asosan yomgʻir suvlaridan toʻyinadi; kuz va qishda toʻlib oqadi, yaxlamaydi, koʻpchiligi kema qatnaydigan kanallar bilan birlashtirilgan.

Buyuk Britaniyaning yirik daryolari: Bann (Sh.Ir.), Di (Sh), Tey (Sh), Klayd (Sh), Tuid (Sh), Iden (A), Tayn (A), Uorf (A), Trent (A), Mersi (A), Severn (A), Temza (A), Uay (Uels) va boshqalar.

Togʻlarida koʻllar koʻp. Ularning aksariyati muzlik va tektonik harakat natijasida paydo boʻlgan. Buyuk Britaniyaning yirik koʻllari: Lox-Ney (Sh.Irlandiya), Apper-Lox-Eri (Sh.Irlandiya), Lox-Eri (Sh.Irlandiya), Lox-Lomond, Lox-Ness va boshqa koʻllari mavjud.

Shotlandiya shimolida togʻ podzol tuproq, togʻ tepalarida tundra tuproq, pasttekisliklarning shimoli-gʻarbida va shimolda chimli podzol tuproq, sharqiy sohilda va janubda qoʻngʻir oʻrmon, ayrim yerlarda chimli karbonatli va unumdor allyuvial tuproqlar tarqalgan.

Shimolda tayga va aralash oʻrmonlar (qaragʻay, dub,

oq qayin), janubda keng bargli o'rmonlar (dub, grab, shumtol) o'sadi. O'rmonlar Buyuk Britaniya maydonining 9 % ida qolgan. O'tloqlar hamma joyda uchraydi. Tog'larning yuqori mintaqalarida tog' o'tloqlari va torfzorlar bor. O'tloqlar Irlandiyada ham eng ko'p tarqalgan o'simlik tipi hisoblanadi.

Veresk yalangliklarida oddiy va Yevropa vereski, chernika, archa o'sadi. Bu o'simliklar ortshteyn qatlami zich bo'lgan kuchli podzollashgan qumli va toshloq yerlarda o'sadi. Vereskzorlar ko'pincha o'tloqlar bilan birga uchraydi. O'tloqlar muhim tabiiy resurslardan biri hisoblanadi. O'rmonlar maydoni Buyuk Britaniya hududining taxminan 4 % ini egallaydi. Bunda kishilarning xo'jalik faoliyati, intensiv dehqonchilik, chorvachilik va sanoatning yuksak darajada rivojlanganligi katta rol o'ynaydi, albatta. O'rmonlar tabiiy yo'l bilan juda sekin tiklanadi. Ekilgan daraxtlar yaxshi tutib qoladi va kichik-kichik bog'lar, parklar hamda yo'llar bo'yidagi daraxtzorlar tufayli orollarda o'rmonlar ko'pday ko'rinadi. O'rmonlarning 92% ga yaqini xususiy mulkdir. Bu esa davlat miqyosida daraxt o'tqazish va o'rmon melioratsiyasi ishlari olib borishni qiyinlashtiradi.

Kichikroq o'rmon-park massivlari Buyuk Britaniyaning janubi-sharqidagi namgarchilik kamroq rayonlarda joylashgan. Lekin bu yerda ham tuproqda nam ortiqcha bo'lganidan o'rmonlarning o'sishiga xalaqit beradi (bu o'rmonlar tepalar yon bag'irlaridagina uchraydi). O'rmonlarning ko'pchiligi yozgi va qishki dublar, shumtol hamda ularga aralash holda qayin, tilog'och, qarag'ay, yong'oqchadan iborat. Shotlandiyada mexanik tarkibi dag'al podzol tuproqli yerlarda qarag'ay va kanin o'rmonlari o'sadi. Britaniya orollarida o'rmonlarning eng

yuqori chegarasi Yevropaning mo'tadil mintaqasida eng past hisoblanadi (bunga namgarchilikning ko'pligi, kuchli shamollar va tog'larda mol boqilishi sababdir). Keng bargli o'rmonlar 300-400 m balandlikkacha, igna bargli va qayin daraxtlar 500-600 m balandlikkacha uchraydi.

Buyuk Britaniyaning chorvachiligi o'tloqlar bazasida rivoj topgan. O'rmonlarda hayvonlar juda kam. Ochiq joylarda tulki, quyon, olmaxon, tipratikan, yer qazuvchi har xil sut emizuvchilar uchraydi. Qushlardan yovvoyi kaptar, shotland kakligi, o'rdak, qizilishton, karqur va boshqalar bor.

Ilgari orollar uchun xos bo'lgan o'rmon faunasi deyarli qolmagan. Qo'ychilikka katta zarar yetkazgan yirik sut emizuvchilar (bo'ri, tulki) allaqachonlar qirib yuborilgan. Kemiruvchilar, ayniqsa, yovvoyi quyonlar, sichqon, dala sichqoni ko'proq uchraydi.

Buyuk Britaniyada milliy bog'lar, o'rmon qo'riqxonalari ko'p bo'lib, unda o'simlik olami va hayvonat dunyosi o'stiriladi, parvarish qilinadi hamda muhofaza qilinadi.

3. Buyuk Britaniyaning yer osti va usti foydali qazilmalari. Buyuk Britaniyada foydali qazilmalar kam. Asosan temir rudasi va yuqori sifatli toshko'mir, tosh tuz, kaolin, ozroq miqdorda yonuvchi slanets qazib olinadi. Neft va rangli metall konlari mavjud. Shimoliy dengizning Buyuk Britaniya qirg'og'i yaqinida tabiiy gaz konlari bor. Tosh ko'mir zaxirasi 189 mlrd t., shundan 45 mlrt t. si qazib olinadi. Eng yirik rayonlari – Yorkshir va Nortumberlend-Darem havzasida. Ko'pgina toshko'mir havzalari dengiz qirg'oqlari yaqinida joylashgan. Bu esa transportirovka qilish uchun qulay. Hozirgi vaqtda toshko'mirning ahamiyati u qadar katta emas. Qazib olish ham qisqargan. Shimoliy dengizda 60-70-yillarda yangi yirik neft, tabiiy

gaz energiya resurslari topilgan. Konlar Angliya va shimoli-sharqiy Shotlandiyada topilgan. Neft zaxirasi 2 mlrd t., tabiiy gaz 2 trln m³ Yirik ofshor konlari Fortis, Brentda joylashgan.

Buyuk Britaniyada temir rudasi zaxirasi ham ahamiyatli (4,6 mlrd t.). Asosiy koni sharqda Nortgemptonshirada. Qazib olingan temir rudasining katta qismi sifatsiz (22-33 foiz metall). Hozirda temir rudasini qazib olish to'xtatilgan, sanoat asosan import qilingan ryda hisobiga ishlaydi. Kornuellda kaolin va qo'rg'oshin, Cheshire va Daremeda tosh tuzi, Yorshirda kaliy tuzi qazib olinadi. Shotlandiyada uran rudasi topilgan.

Buyuk Britaniya asosiy uran, sirikoniy, berilliy, niobiy Germaniy va boshqalarga yetkazib beruvchi mamlakatdir. Bu metallar atom sanoatida, samolyotsozlik va elektronikada ishlatiladi. Britaniyaning rangli metallarini sotib oluvchilar AQSH hamda Germaniya hisoblanadi.

G'arbiy Midlend asosiy rangli metallar rayoni hisoblanadi. Boshqa markazlar – Uels, London, Taynsayd. Uchta yirik alyumin erituvchi korxonalar Angliyada joylashgan. Ular alyuminiyga talabi bo'lgan tarmoqlar ehtiyojining deyarli yarmini qondiradi. Janubiy Uelsdagi Midlend alyuminiy ishlab chiqaruvchi korxona Amerika va Kanada korxonalari bilan bog'liq holda ish olib boradi.

Talabalar bilimini mustahkamlash uchun

savol va topshiriqlar:

- 1. Buyuk Britaniya qaysi iqlim mintaqasida joylashgan?*
- 2. Mamlakatni o'rab turuvchi dengizlar?*
- 3. Buyuk Britaniyani Fransiya bilan ajratib turuvchi bo'g'oz?*
- 4. Buyuk Britaniyada qanday qo'riqxonalar bor? Nomlarini ayting.*
- 5. Ko'mir qazib olinadigan havzalar?*

6. Asosiy rangli metallar rayoni?

3-mavzu. Buyuk Britaniya tarixi

Reja:

1. *Buyuk Britaniyaning shakllanish tarixi va davlat tizimi.*
2. *Buyuk Britaniyaning ma'muriy-hududiy bo'linishi.*
3. *Buyuk Britaniyaning aholisi, tarkibi va tabiiy ko'payishi.*

Tayanch iboralar: *Qirollik, qirolicha, konstitutsiya, orol, bo'g'oz, funt sterling, El, Kardiff, La-Mansh, Pade-Kale, anglosakslar, tyudorlar, papa, tori, vigi, parlament, imperiya, graflik, import, eksport. Kelt, millioner shahar, urbanizatsiya, megapolis, aholi zichligi, mehnat resursi, faol aholi.*

1. Buyuk Britaniyaning shakllanish tarixi va davlat tizimi. Hozirgi Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Qo'shma Qirolligi hududida miloddan avvalgi 1-ming yillikda "kelt" qabilalari – brittlar yashagan. Miloddan avvalida Britaniya orollarining katta qismini rimliklar bosib olgan. Yangi asrning V asrning ikkinchi yarmida **anglosakslar** mamlakatning ancha qismini bosib olib, ilk feodal qirolliklar (Kent, Uesseks, Susseks, Sharqiy Angliya, Nor-tumbriya, Mersiya) tuzishgan. IX asr boshlarida **anglosaks** davlatlari birlashtirilib, "Angliya" deb atala boshlandi. Angliya 1016-1042-yillarda normanlar (daniyaliklar) hukmronligida bo'lgan.

1066-yili Angliyani Normandiya gersogi Vilgelm I is-tilo qilgandan so'ng mamlakatda feodal yer egaligi paydo bo'lib, dehqonlarni tutqunlikka (krepostnoylikka) aylanti-rish avj oldi. X-XI asrlarda hunarmandchilik va savdo-

sotiq markazi tusini olgan shaharlar paydo bo'la boshladi. XII-XIII asrlarda markazlashgan moliya va sud muassasalari yuzaga keldi. 1265-yilda paydo bo'lgan "Parlament" bojlarni tasdiqlash va qonunlar joriy etish huquqini oldi, hokimi mutlaqlik tizimi (monarxiya) barpo bo'ldi. Angliya bilan Fransiya o'rtasida bo'lib o'tgan yuz yillik urush (1337-1453) oqibatida soliqlarning ko'payishi va 1348-1349-yillardagi "vabo"dan so'ng aholi ahvolining og'irlashishi Uot Tayler (1381) boshchiligidagi dehqonlar qo'zg'oloniga sabab bo'ldi. Qo'zg'olon mag'lubiyatga uchragan bo'lsa-da, dehqonlarning barshchinadan qutulishiga turtki bo'ldi.

XV asrda Angliyada dehqonlarning tutqunligi batamom yo'qotildi, tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi mayda va o'rtahol dvoryanlarning tabaqalanishiga sabab bo'ldi. Kapitalistik munosabatlar shakllanayotgan paytda **tyudorlar** sulolasining cheklanmagan hokimiyati (1485-1603) qaror topdi. Movut sanoatining rivojlanishi, junga talabning ko'payishi tufayli ekinzorlar chorva yaylovlariga aylanib ketdi, natijada dehqon xo'jaliklari xonavayron bo'ldi. 1630-yillarda boshlangan reformatsiya harakati natijasida **papa** hukmronligiga chek qo'yilib, cherkovga qarashli yerlar burjualashgan yangi dvoryanlarga bo'lib berildi. XVI asrning 2-yarmi va XVII asr boshlarida Angliya hukumati mustamlakachilik siyosatini yurita boshladi (Irlandiyada xususiy yerlar musodara qilindi, Shimoliy Amerikada esa dastlabki ingliz mustamlakalari paydo bo'ldi), qullar bozori va portlar kuchaytirildi. Dengizda hukmronlik uchun kurashda Angliya g'olib chiqdi. XVIII asrning 2-yarmida Buyuk Britaniya hukmron doiralari siyosiy jihatdan ajralib, **hokim** sinflarning 2 partiyasi – **tori** bilan **vigi** shakllandi. XIX asr o'rtalarida shu partiyalar asosida konservatorlar va leyboristlar partiyasi tashkil topdi.

XVII-XVIII asrlarda Buyuk Britaniya Hindiston va Shimoliy Amerikada yangi yerlarni zabt etdi. Fransiyadan Kanadani tortib oldi. Shimoliy Amerikadagi mustaqillik uchun bo'lgan urush (1775-1783) natijasida Shimoliy Amerika mustamlakalari mustaqillikka erishdi va mustaqil **AQSH** davlati tashkil topdi. Keyinchalik Yangi Zelandiya, Birma, Janubiy Amerikadagi poyonsiz hududlarni bosib oldi, Hindistonni zabt etishni tugalladi, Xitoy (1840-1842, 1856-1860) hamda Afg'onistonga qarshi (1838-1842, 1878-1880) bosqinchilik urushlari olib bordi, Hindiston (1857-1860), Irlandiya (1848-1867), Yamayka orolidagi (1832) milliy ozodlik qo'zg'olonlarini shafqatsizlik bilan bostirdi. Xitoydagi Taypin qo'zg'olonini (1851-1864) bostirishda ishtirok etdi. 1878-yil Kipr orolini, 1882-yil Misr, 1898-yil Sharqiy Sudanni, 1899-1902-yillarda Janubiy Afrikadagi bir qancha hududlarni zabt etdi.

Davlat tuzumi. Buyuk Britaniya – konstitutsion monarxiya. Davlat boshlig'i qirol (qirolicha). Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Qo'shma Qirolligi va Millatlar Hamdo'stligi (Koloniya)lar) boshlig'iga keyinchalik quyidagilar qirol (qirolicha) bo'lishdi: Eduarda VII o'g'li Georg V (1927-1936), Georg V o'g'li Eduarda VIII (1936), Georg V o'g'li Georg VI (1936-1952). 1952-yil 6-fevraldan hozirgi vaqtgacha Georg VI qizi Yelizaveta II Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Qo'shma Qirolligi davlat boshlig'i, Millatlar Hamdo'stligining boshlig'i, Avstraliya, Kanada, Yangi Zelandiya, Antigua va Barbuda, Bagam orollari, Barbados, Beliz, Grenada, Papua-Yangi Gvineya, Sent-Vinsent va Grenadin, Sent-Kitts va Nevis, Sent-Lyusiya, Solomon orollari, Tuvalu va Yamayka davlatlarining qirolichasi.

Milliy bayrami – Qirolicha tug'ilgan kun (iyun oyi-

ning ikkinchi yoki uchinchi shanbasi). Buyuk Britaniya 1945-yildan BMT a'zosi.

Mamlakatning konstitutsiyasi yo'q. 1215-yilgi Ulug' Erkinliklar xartiyasi, 1679-yilgi Habeas korpus akti, 1931-yilgi Vestminster statuta, 1969-yilgi Xalq vakilligi to'g'risidagi akt va boshqalar eng muhim parlament hujjatlari hisoblanadi.

Qonun chiqaruvchi hokimiyatni qirol (qirolicha) va parlament (u ikki palatadan iborat: Lordlar palatasi va Jamoalar palatasi), ijrochi hokimiyatni bosh vazir boshchiligidagi hukumat (Vazirlar mahkamasi) amalga oshiradi.

Bosh vazirni qirol (qirolicha) tayinlaydi. Hukumat a'zolari parlament a'zolaridan bo'lishi kerak. Buyuk Britaniya tarkibidagi Angliya, Uels va Shotlandiya o'zining sud tizimiga, mahalliy boshqaruv organlariga ega. Shimoliy Irlandiya ma'muriy muxtoriyat huquqiga ega bo'lib, uni qirol (qirolicha) tayinlagan gubernator boshqaradi. Buyuk Britaniya o'tmishda Britaniya imperiyasi tarkibida bo'lgan mamlakat va hududlarni birlashtiruvchi Hamdo'stlikka boshchilik qiladi.

Asosiy siyosiy partiyalari. Leyboristlar partiyasi, 1900-yil tuzilgan; Konservatorlar partiyasi, 1867-yil tashkil topgan; Liberal demokratlar partiyasi, 1988-yilda asos solingan; Uels millatchi partiyasi, 1925-yilda tuzilgan; Shotlandiya milliy partiyasi, 1928-yilda tashkil etilgan; Britaniya Kommunistik partiyasi, 1988-yilda tuzilgan; So'l demokratlar partiyasi, 1920-yil tashkil etilgan.

Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Qo'shma Qirolligi Bosh vaziri lavozimini mamlakatdagi mavjud yetakchi partiya vakillari boshqarib keladi. Xususan, 2-jahon urushi davrida Bosh vazir Uinston Cherchill (1940-1945) konservatorlar partiyasidan edi. Keyin Buyuk Britaniya hukumatini leyboristlar (1945-1951, 1964-1970, 1974-

1979, 1997-2007-yy. Toni Bler; 2007-2010-yy. Gordon Braun) va konservatorlar (1951-1955yy. Uinston Cherrill (1874-1967-yy.), 1955-1964, 1970-1974 va 1979-1990-yy. Margaret Tetcher (1925-2013-yy.), 1990-1997-yy. Djon Meydjor) partiyasi boshqarib keldi.

Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Qo'shma Qirolligi hukumat Bosh vaziri – 2010-yil 11-maydan konservatorlar partiyasidan Devid Kameron.

Asosiy kasaba uyushmalari. Eng yirik kasaba uyushma birlashmasi – Britaniya tredyunionlar kongressi, 1868-yil tuzilgan; Shotlandiya tredyunionlar kongressi, 1897-yil tuzilgan; Tredyunionlar umumiy federatsiyasi, 1899-yil tuzilgan; Uels tredyunionlar kongressi, 1973-yil tashkil etilgan.

2. Buyuk Britaniyaning ma'muriy-hududiy bo'linishi. Buyuk Britaniya 4 ta ma'muriy-siyosiy (Angliya, Uels, Shotlandiya va Shimoliy Irlandiya) qismdan (tarixiy provinsiyalardan) tashkil topgan: Angliya (39 ta graflik, 6 ta metropoliten grafliqi va Katta London), Uels (9 ta graflik, 3 ta shahar va 10 ta shahar-grafliklar), Shotlandiya (32 ta viloyat), Shimoliy Irlandiya (26 ta tuman).

Shotlandiya mamlakatni chorvachilik mahsulotlari bilan ta'minlaydi. Markaziy Loulend qishloq xo'jaligi uchun qulay sharoitga ega. Shimoliy dengiz neft resurslariga boy. Bu yerda 5 milliondan ortiq aholi istiqomat qiladi. Shotlandiya spirtli ichimliklar eksporti bo'yicha yetakchi. Shotlandiya iqtisodiyotining rivojlanishiga Sanoat inqilobi turtki bo'ldi. Orolning bir qismi sifatida Shotlandiya Yevropa mustamlakachilik davrida kemasozlik tarmog'i bilan shug'ullangan, bu esa savdo ishlari rivojlanishiga turtki bo'ldi.

3. Buyuk Britaniyaning aholisi, tarkibi va tabiiy ko‘payishi. 2011-yil holatiga ko‘ra, Buyuk Britaniya aholisi soni 63 181 775 (63 230 000) kishi, jumladan, Angliyada 53 012 456 kishini, Shotlandiyada 5 295 000 kishini, Uelsda 3 063 456 kishini, Shimoliy Irlandiyada 1 810 863 kishini tashkil qilgan.

Buyuk Britaniya aholisi 1801-yilda 16 mln 300 ming kishini, 1901-yilda 41 mln 600 ming kishini, 2001-yilda 58 mln 800 ming kishini va 2015-yilda 65 mln kishini tashkil qilmoqda.

Qo‘shma Qirollik aholisining uzoq ajdodlari “kelt”lar bo‘lgan (faqat shotlandlar igel piktlaridan, keyinchalik keltlar bilan qo‘shilib ketgan). Hozirda esa Buyuk Britaniya aholisining asosiy qismini angliyaliklar tashkil qilib, ular asosan Angliyada, Uelsning ko‘p qismida va Shotlandiya janubiy qismining bir qancha hududlarida yashaydilar. Shotlandiyaliklar asosan Shotlandiyada, ya‘ni Buyuk Britaniya orolining shimoli-g‘arbiy qismida va unga qo‘shni bo‘lgan Shotlandiya, Orkney va Gebrid orollarida istiqomat qiladi. Orolning shimoli-g‘arbiy qismidagi tog‘larda esa o‘ziga xos urf-odatlar va madaniyatini saqlab qolgan etnik guruh – **gellar** yashaydi. **Velliklar** asosan Uelsda ko‘proq uchraydi. Shimoliy Irlandiyada 500 ming kishi tub aholi, ya‘ni irlandlar (katolik), shu bilan birga, 1 milliondan ko‘proq anglo-irlandlar va shotlandlar yashaydi.²

Buyuk Britaniyada turli irq vakillari yashaydi. Ulardan oq tanlilar – 92,1% (54 153 898 kishi), jumladan, britaniyaliklar shu ko‘rsatkichning 85,7% (50 336 497 kishi) ini tashkil qiladi.

Buyuk Britaniya aholisini oq tanli bo‘lmaganlarining 45%i Londonda yashaydi.

² World Regional Geography People, Places and Globalization. Royal Berglee, Morehead State University, 2012 (43-bet)

Ingliz tili german tillarining shimoli-gʻarbiy guru-higa kiradi. Angliyaliklardan tashqari shotlandlar va val-liy (Uels)larning koʻp qismi “Kelt”lardan kelib chiqqan boʻlsa-da, ingliz tilida soʻzlashadilar.

Hozirgi vaqtda qirollikda aholi sonining oʻsishi nis-batan past, sababi tugʻilish va oʻlim koʻrsatkichlarining yaqinligi va emigratsiya ijobiy saldosinga pasayishidir.

Aholining band qismini erkaklar – 13,6 mln. kishi, ayollar esa deyarli 2 baravar kam, yaʼni – 7,6 mln. kishini tashkil qiladi. Aholining davlat iqtisodiy hayotida ishtirok etadigan qismining oʻrtacha yoshi 35-40 yoshni tashkil qiladi, biroq millatning “qarishi” sababli bu koʻrsatkich 45-60 yoshga yetmoqda.

Aholi yoshining tarkibi: 0-14 yoshgacha boʻlgan bola-lar 17,2%, 15-64 yoshgacha boʻlganlar 67%, 65 va undan yuqori yoshdagilar 15,8% ni tashkil qiladi.

Aholining oʻrtacha yoshi 39,6 yosh, jumladan erkaklar 38,5 yosh, ayollar 40,7 yoshdir.

Hayotning oʻrtacha davomiyligi 78,7 yoshni, jum-ladan, erkaklar 76,2 yosh, ayollar 81,3 yosh. Yillik oʻsish tempi – 0,275% ni tashkil qiladi.

Yirik shaharlari: London, Birmingem, Glazgo, Liver-pul, Manchester, Sheffild, Lids, Kardiff, Belfast, Edinburg va boshqalar.

Londonning etnik tarkibi.

Londonliklarning 71% oq tanlilarga, ulardan 60% oʻzini britanilmen (yaʼni anglichan, shotlandlar, Uelslik-lar), 3% irlandlardir. Londonliklarning 10% Janubiy Osiyo va Yaqin Sharq vakillari; 11% – negroid irqiga mansub, 5,5%i – afrikaliklar, 5% – karibliklar, 1% esa boshqalar; 1% – xitoyliklar; 2% esa qolgan millat vakillariga toʻgʻri keladi (asosiy qismi fillippin, yapon va vetnamliklar).

Londonliklarning 27% Yevropa Ittifoqi chegarasidan tashqarida tugʻilganlar tashkil etadi. London maktablari oʻquvchilarining faqat 2/3 qisminigina ona tilisi ingliz tilidir.

2015-yil Katta Londonda 8,615 mln. kishi istiqomat qilgan. Oq tanlilar 69,1%ni, jumladan oq tanli britanliklar – 57,8%, oq tanli irlandlar 2,4%ni, va boshqa oq tanlilar – 8,9%ni (polyak, grek, janubiy afrikaliklar, amerikaliklar, avstriyaliklar, nemislar, italyanlar, fransuzlar, ruslar, Yangi Zelandiyaliklar, ruminlar) tashkil qiladi.

Janubiy Osiyoliklar London aholisining 13,3%ni tashkil qilib, bulardan 6,6% – hindlar, 2,4% – pokistonliklar, 2,3% – bangladeshlar va 2% – nepal, maldivlardir.

Qora tanlilar Londonning 10,6% ni tashkil qiladi; shulardan 5,5% – qora afrikaliklar (nigeriyalik, keniyalik, ganalik, somalilik, ugandalik va Janubiy Afrikaliklar), 4,3% – Karib sohilining qora tanlilari va 0,8% boshqalardir.

London aholisining 58,2% xristianlar (jumladan, anglichanlar, rim katoliklari, presviterianlar, metodistlar, bant-sistlar, pravoslavlar, lyuteranlar, mormonlar va boshqa), ateistlar – 15,8%, musulmonlar – 8,5%, induistlar – 4,1%, yahudiylar – 2,1%, sekxlar – 1,5%, buddistlar – 0,8%.

Musulmonlar. Londonda 850 mingdan ortiq musulmonlar yashaydi. Musulmonlarning yirik ziyoratgohlari Tael Xemletsda, Nyuxemsda, Brent, Iling va Uoltxem Forest shaharlarida joylashgan. Islom diniga eʼtiqod qiladigan etnik guruhlarining asosiy qismi turklar va turk-kiprliklar (250 ming), pokistonliklar (100 ming), bangladeshliklar (180 ming), iroqliklar (130 ming), nigeriyaliklar (120 ming), hindlar (130 ming), somaliliklar (70 ming), ganaliklar (70 ming), afgʻonlar (60 ming) va shu bilan birga, marokashliklar, jazoirliklar, yamanliklar, Misr, Li-

van, Suriya, eronliklar, kurdlar, sudanliklar, keniyaliklar, Albaniya va bosniyaliklar.

Sunnit-maliklarga esa Afrikadagi musulmonlar, jumladan, Marokash, Jazoir va nigeriyaliklar;

Sunnit-shafeistlarga Somali, Yaman, Malayziya va indoneziyaliklar;

Sunnit-xandbalitlarga – Livan, Suriya, Iordan, Falastin va Misr arablari;

Shialarga – Eron, qisman Iroq va livanliklar, hindlar kiradi.

Shialarning diniy markazlari sifatida Lambetdagi islom markazi va Brentdagi Imom Xo Eyning Islom markazi, Salafitlarning esa – Shimoliy Londonning Markaziy machiti va Lambetdagi Brixston machitlari hisoblanadi. Pokistonliklar, hindlar, eron va afg'onlarning bir qismida ahmadiy oqimi (asosiy diniy markazi Mertondagi Baytus Futuh machiti, Vandsvortda Farz, Irsfid va Ahmadiy markazlari, Krendonda Baytus Subhan, Ilingda Baytus Sahan, Xaunslouda Baytun Nur machitlari) va ismoil oqimi (asosiy diniy markazi – Kensingtondagi Ismail markazi) keng tarqalgan.

Mamlakatga nafaqat Osiyo, Afrika mamlakatlaridan, balki YeI mamlakatlaridan ham aholi ko'chib kelmoqda. Angliyaga EI mamlakatlaridan 2011-2014-yillar davomida 565000 kishi kirib kelgan. Bu esa o'z-o'zidan ishsizlikka olib kelmoqda. Hozirgi kunda mamlakatda ishsizlar salmog'i ortib bormoqda. Sababi taklif qilingan ish joyidagi maoshi, turi ish qidiruvchiga to'g'ri kelmasligi bo'lsa, bir tomondan chetdan kelganlar hisobigadir. **Lekin shunga qaramay**, mamlakatda yangi ish joylari yaratilishi natijasida bu ko'rsatkich pasaymoqda. Mamlakatda o'rtacha ish vaqti 1 haftada 32 soatni tashkil qiladi.

Britaniya oroli dinamikasi G'arbiy Yevropa kabi o'sib bormoqda. Ba'zi mamlakatlar u qadar boy va urbanizatsiya va texnologiya darajasi yuqori bo'lmasa-da, aholi dinamikasi o'sib bormoqda. Shaharliklar oilasi kam kishidan iborat, yuqori daromad ko'radi va tovar, mahsulotlarga bo'lgan ehtiyoji yuqori. Britaniyadagi sanoat inqilobi mehnatkashlarni o'ziga jalb qilgan. Hozirda ularning o'rnini bosish maqsadida arzon ishchi kuchlarini o'ziga jalb qilmoqda. Shu sababli turli mamlakatlardan ishchilar mehnat bilan ta'minlanish uchun kirib kelmoqdalar. Immigrantlar bilan aholining aralashishi natijasida turli hamjamiyatlar tashkil etilmoqda. London ko'pgina etnik biznes va ularning egalari bilan munosabatda bo'ladi.

Talabalar bilimini mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. *Buyuk Britaniya maydoni, davlat boshqaruv shakli.*
2. *Buyuk Britaniya tarixi.*
3. *Buyuk Britaniya ta'lim sohasi.*
4. *Buyuk Britaniya aholisi dinamikasi.*
5. *Buyuk Britaniya aholisi milliy tarkibi.*
6. *Buyuk Britaniya aholisi mehnat resurslari.*

Mustaqil ish.

"Ingliz tili davlat tili maqomiga ega mamlakatlar (nomi, maydoni, poytaxti, aholisi, davlat boshqaruv shakli) haqida ma'lumotlar tayyorlash.

4-mavzu. Buyuk Britaniya davlat tuzumi

Reja:

1. *Buyuk Britaniya davlat tuzumi haqida.*
2. *Buyuk Britaniya siyosiy partiyalari.*
3. *Siyosiy va iqtisodiy geografik o'zni.*

Tayanch iboralar: *monarxiya, iqtisodiy geografik o'рни, Angliya, Shotlandiya, Uels, Shimoliy Irlandiya.*

1. Buyuk Britaniya davlat tuzumi haqida. Buyuk Britaniya – konstitutsion monarxiya. Davlat boshlig'i qirol (qirolicha). Mamlakatning konstitutsiyasi yo'q. 1215-yilgi Ulug' Erkinliklar xaritasi, 1679-yilgi Habeas korpus akti, 1931-yilgi Vestminster statuta, 1969-yilgi Xalq vakilligi to'g'risidagi akt va boshqa eng muhim parlament hujjatlari hisoblanadi. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni qirol (qirolicha) va parlament (u ikki palatadan iborat: Lordlar palatasi va Jamoalar Palatasi), ijrochi hokimiyatni bosh vazir boshchiligidagi hukumat (Vazirlar mahkamasi) amalga oshiradi. Bosh vazirni qirol (qirolicha) tayinlaydi. Hukumat a'zolari parlament a'zolaridan bo'lishi kerak. Buyuk Britaniya tarkibidagi Angliya, Uels va Shotlandiya o'zining sud tizimiga, mahalliy boshqaruv organlariga ega. Shimoliy Irlandiya ma'muriy muxtoriyat huquqiga ega bo'lib, uni qirol (qirolicha) tayinlagan gubernator boshqaradi.

Buyuk Britaniya, o'tmishda Britaniya imperiyasi tarkibida bo'lgan mamlakat va hududlarni birlashtiruvchi, Xamdo'stlikka boshchilik qiladi.

2. Buyuk Britaniya siyosiy partiyalari. Davlat tuzumi – konstitutsion monarxiya. Davlatning rasmiy boshlig'i qirolicha hisoblanadi, lekin amalda davlatni bosh vazir boshqaradi. 2016-yilning 13-iyulidan boshlab hozirgacha bosh vazir (primer ministr) Tereza Mey.

Asosiy siyosiy partiyalari:

1. Buyuk Britaniya Konservatorlar partiyasi (1867-y.).
2. Buyuk Britaniya Leyboristlar partiyasi (1900-y.).
3. Buyuk Britaniya ijtimoiy demokratik partiyasi (198-y.).
4. Buyuk Britaniya kommunistik partiyasi (1920-y.).

3. Siyosiy va iqtisodiy geografik o'рни. Buyuk Bri-

taniya Britaniya orollarida (Yevropadagi eng yirik orol) joylashgan. Birlashgan Qirollik tarkibiga Angliya, Shotlandiya, Uels va Shimoliy Irlandiya kiradi. Buyuk Britaniya – eng katta orolning nomi, Angliya davlatining asosiy tarixiy nomi. Mamlakatning xalqaro dengiz va havo yo‘llari tugunida joylashganligi muhim ahamiyatga ega. Maydoni 244 ming km².

Buyuk Britaniyada kapitalizm Yevropadagi boshqa mamlakatlarga nisbatan ertaroq rivojlandi. Shu tufayli u dengizga hukmronlik qilishga, katta va boy mustamlakalarni qo‘lga kiritishga muvaffaq bo‘lgan. 2-jahon urushi arafasida Britaniya imperiyasining maydoni 34,6 mln km² (142 marta ko‘p), aholisi esa 700 mln kishidan (11 marta ko‘p) ortiq edi. 2-jahon urushidan keyin bu imperiya tez parchalandi. 1990-yillari Buyuk Britaniya nazorati ostida asosan orollardagi 12 ta mustamlaka va qaram hududlar bor edi. Masalan: Bermud, Kayman orollari, Gonkong, Avliyo Yelena, Gibraltar, Angilya, Folklend orollari.

Buyuk Britaniya Hamdo‘stlik markazi hozirgi vaqtda 49 mustaqil davlat kiradigan siyosiy va iqtisodiy birlashmadir.

Siyosiy adminstrativ bo‘linishi: 47 graflik, 6 metropoliten grafligi, Katta London, 12 oblast, 6 okrug, Men va Normand orollaridan iborat.

Yirik shaharlari: London 10,3 mln, Birmingem 3,8, Manchester 2,8, Lids 2,3, Liverpul 2,2, Glazgo 1,8.

Buyuk Britaniyani urushdan keyin iqtisodiy mavqei va siyosiy nufuzi biroz bo‘shashib qolgan bo‘lishiga qaramay, u hamon jahonda kuchli iqtisodiy, moliyaviy va harbiy-siyosiy mavqeini saqlab kelmoqda. Buyuk Britaniya NATOning faol a‘zosi. 1973-yildan buyon YeIga a‘zo.

Nazorat savollari

1. *Birlashgan Qirollik tuzumi qanday?*
2. *Siyosiy adminstrativ bo'linishini ayting?*
3. *Asosiy siyosiy partiyalarini sanang?*
4. *Buyuk Britaniya hududiy iqtisodiy geografik jihatdan necha qismga bo'linadi?*

5-mavzu. Buyuk Britaniya davlat ramzlari

Reja:

1. *Buyuk Britaniya Davlat bayrog'i.*
2. *Buyuk Britaniya Konstitutsiyasi.*

Tayanch iboralar: *Sit Jorj, Jeneva, xoch, avliyo, Sankt Idris, Patrik, 300 ga yaqin, yagona.*

Buyuk Britaniya milliy ramzlari Angilya madaniyatini yoki Angilyaning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib beradi. Ba'zi ramzlar rasmiy tan olingan bo'lib, ba'zilari esa rasmiy holatga ega emas.

1. Buyuk Britaniya Davlat bayrog'i. Buyuk Britaniya milliy bayrog'i, Sit Jorj krossi sifatida mashhur bo'lib, u XIII asrdan beri Buyuk Britaniyaning milliy bayrog'i hisoblanadi. Dastlab bayroq Jeneva Respublikasining dengizbo'yi shtatida foydalanilgan. Ingliz monarxiyasi 1190-yildan oldin Jeneva boshliqlariga soliq to'lab yurgan, buning sababi ingliz kemalari O'rta Yer dengizidan suzib o'tayotganda himoyalaniish vositasi sifatida ularning bayroqlari hilpirab turgan.


Buyuk Britaniya bayrog'i shunday tasvirlanadi:

1. St George's Cross – Sit Jorj, Angliya homiysi avliyo Cross. Bu oq fon ustida qizil xoch hisoblanadi. Bu tasvir

rasman Angliya va Shotlandiya bayroqlarini qo‘shilishini ifodalaydi.

2. St. Andrew’s Cross – Sankt Idris, Shotlandiya homiysi avliyo Cross. Bu ko‘k fon ustida oq diagonal chiziqlar kesishishidan tashkil topadi.

3. St. Patrick’s Cross – Patrik, Irlandiya homiysi avliyo Cross. Bu bir oq fonda ikki qizil chiziq kesib o‘tadi. Bu xoch 1801-yilda qo‘shilgan edi.



2. Buyuk Britaniya Konstitutsiyasi. Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi davlatining konstitutsiyasi 300 ga yaqin qonun hujjatlaridan iboratdir, ya'ni bu davlatda yagona konstitutsiya hujjati mavjud emas.

Ma'lumki, Konstitutsiya asosiy qonun sifatida qonunchilikning umumiy me'zonlarini, shaxs, davlat va jamiyatning huquq va majburiyatlarini belgilab beradi. Biroq Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirol-

ligi, Isroil va Yangi Zelandiya kabi davlatlarda Konstitutsiya yagona qonun hujjati sifatida mavjud emas, balki ular bir nechta konstitutsiyaviy qonunlar va odatlar ko‘rinishidadir. Mazkur hujjatlardan birontasiga o‘zgartirish kiritilishi konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritilish sifatida qabul qilinadi.

Buyuk Britaniya Davlat madhiyasi: “God Save the Queen”. Ma’nosi: “Xudo, Qirollichamizni asra” – ushbu madhiya Britaniya jamiyati qirolliklarida, ularning hududlarida va Britaniya Qirolligida foydalaniladi. Madhiya so‘zlari va sarlavhasi hozirgi qirolicha sharafiga bag‘ishlanadi, ya’ni agar qachonki Angilya taxtiga erkak kishi o‘tirsas, bu “God Save the King”, ya’ni “Xudo, Qirolimizni asra”ga o‘zgaradi. Ohang muallifi noma’lum, ammo 1619-yil Jon Bull unga o‘zgartirish kiritgan. “Xudo, Qirollichamizni asra” Britaniya milliy madhiyasidir va uni Britaniya hududlarida muhim roli bor. Bu madhiya 1977-yildan Yangi Zelandiya uchun ikkita milliy madhiyasidan biridir va shuningdek, o‘zlarining shaxsiy qo‘shimcha mahalliy madhiyasi bo‘lgan Britaniyaning hududlari uchun ham milliy madhiya hisoblanadi. Bu Avstraliyaning (1984-yildan) va Kanadaning (1980-yildan) qirollik madhiyasidir. Bu doimiy birinchi shaklidan tashqari, madhiyani ko‘plab tarixiy va bizgacha yetib kelgan shakllari bor. Birinchi nashridan beri turlicha tartibdagi turli xil shakllar qo‘shiladi, olinadi va hattoki bugun ham o‘zgarib turadi. Umuman olganda, yagona bir shakli kuylanadi. Ba’zan ikkita shakli kamdan-kam hollarda uchinchi shakli kuylanadi.

Gul. Buyuk Britaniya uchun rasmiy gul yo‘q. Biroq har bir davlat uchun rasmiy gullari bor.

Hayvon: Buyuk Britaniya uchun rasmiy hayvon yo‘q. Biroq har bir davlat uchun rasmiy hayvon bor.

Qush: Robin (norasmiy).

Milliy daraxti: Oak daraxti.

Shiori: “Dieu et mon droit”. Ma’nosi: “Xudo va mening huquqlarim”.

Milliy madhiyasi: “God Save the Queen”. Ma’nosi: “Xudo Qirolichamizni asra”. Bu madhiya 1619-yil Jon Bull tomonidan yozilgan..

Talabalar bilimini mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. *Qachondan beri bu bayroq Buyuk Britaniyaning milliy bayrog‘i hisoblanadi?*
2. *Dastlab bayroq qayerda foydalanilgan?*
3. *Buyuk Britaniya davlatining konstitutsiyasi qancha qonun hujjatlaridan iborat?*
4. *Sizningcha Konstitutsiyaning davlat boshqaruvidagi o‘rni qanday?*

6-mavzu. Buyuk Britaniya ta’lim tizimi

Reja:

1. *Buyuk Britaniyaning ta’lim tizimi.*
2. *Adabiyoti.*
3. *Me’morchiligi. Teatri.*

Tayanch iboralar: *boshlang‘ich, universitet, akademiya, qirollik jamiyati, Pikadilli, Big-Ben, Kembrij, Oksford, Tauer ko‘prigi, Shekspirning pyesalari, ibtidoiy, insonparvarlik, dramaturglar.*

1. Buyuk Britaniyaning ta’lim tizimi. Buyuk Britaniyada boshlang‘ich va to‘liqsiz o‘rta ta’lim (5 dan 16

yoshgacha) majburiy. Boshlang'ich maktablarda 5 yoshdan 11 yoshgacha o'qiladi. O'rta maktablar asosan 3 turga: 5-7 yillik grammatik maktablar, 5 (ba'zan 7) yillik texnika maktablari va 4 yillik zamonaviy maktablarga bo'linadi. O'quvchilarning 65 % 16 yoshdan keyin ta'limni kollej, universitet va boshqa oliy o'quv yurtlari va markazlarida davom ettiradi.

Buyuk Britaniyada 80 ga yaqin universitet, 40 ga yaqin politexnika kolleji faoliyat olib boradi. Eng qadimgi universitetlari – Oksford (1167-y.), Kembrij (1209-y.), Edinburg (1583-y.), Darema (1832-y.) universitetlari bo'lib, unda naqat Buyuk Britaniya fuqoralari, balki jahonning ko'pgina hududlaridan ham yoshlar kelib ta'lim oladi. Shuningdek, London Imperial kolleji (1907-y.) ham yetuk kadrlar tayyorlashda muhim o'rin tutadi.

1662-yilda London Qirollik jamiyati tashkil topdi. 1675-yil Grinvichda Buyuk Britaniyaning astronomiya sohasidagi asosiy ilmiy muassasasi – Qirollik-Grinvich rasadxonasi, Qirollik san'at akademiyasi, Britaniya akademiyasi, Buyuk Britaniya Qirollik instituti, Angliya va ingliz tili to'g'risidagi bilimlarni yoyish bo'yicha Britaniya Kengashi, Edinburg qirollik jamiyati tashkil etilib, faoliyat olib bormoqda.

Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Qo'shma Qirolligining ramzi quyidagilar hisoblanadi: London Taueri, Big-Ben, London Parlament uyi, Britaniya muzeyi, Pikadilli maydoni, Temza daryosidagi **Tauer ko'prigi** va boshqalar.

Eng yirik kutubxonalari: Britaniya muzeyi kutubxonasi, Shotlandiya Milliy kutubxonasi (3 mln. dan ortiq asar), Kembrij va Oksford universitetlarining kutubxonalari va boshqalar.

Eng yirik muzeylari: Britaniya muzeyi (1753), Milliy

galereya (1824), Teyt galereyasi (1897), Shotlandiya Qirollik muzeyi (1854).

Tibbiy xizmat. Buyuk Britaniya sogʻliqni saqlash tizimida 500 mingga yaqin oʻrinli shifoxonalar mavjud. 80 mingdan ziyod shifokor tibbiy yordam koʻrsatadi. Brayton, Istborn, Bognor, Rijis, Bornmut, Torki, Bat kabi kurortlar bor.

2. Adabiyoti. U.Leglendning “Qoʻshchi Pyotr haqida tush”, J.Choserning “Kenterberi hikoyalari”, T.Morning “Utopiya”, V.Shekspirning “Hamlet”, “Otello”, “Qirol Lir”, “Makbet”, J.Sviftning “Gulliverning sayohatlari”, D.Defoning “Robinzon Kruzo” asarlari mavjud. Shuningdek, M.Garkness, U.Marris, S.Batler, E.Voynich, T.Gardi, B.Shou, J.Golsuorsi, E.Garv, D.Untli, L.Kuper, J.Osborn, K.Emis, D.Ueyn, A.Sillitou, S.Chaplin, S.Barstou kabi yozuvchi va shoirlarini keltirishimiz mumkin.

Buyuk Britaniya adabiyotining eng yaxshi namunalari oʻzbek tiliga tarjima qilingan: V.Shekspirning pyesalari, J.Sviftning “Gulliverning sayohatlari”, D.Defoning “Robinzon Kruzo”, E.Voynichning “Soʻna” romanlari va boshqalar.

3. Meʼmorchiligi. Buyuk Britaniyada mis-jez davriga mansub ibtidoiy meʼmoriy yodgorliklar (Stonxenj – megalit inshooti) va oʻrta asrda qurilgan Vinchester, Norij kabi ibodatxonalar mavjud. Binolarning ichiga har xil bezaklar berish, temir, beton va oynadan foydalanish (“Billur saroy”, J.Pakston, 1851) avj oldi. E.Govarx, R.Envin, F.Uebb, N.Shod, Voyzi, Makintosh, L.Dreyk, D.Lesden, R.Metyu, L.Martin, G.Uinteringxem, J.Modeli kabi meʼmorlar zamonaviy meʼmorchilikning rivojlanishiga hissa qoʻshdilar.

Teatri. Buyuk Britaniyada teatr kurtaklari inson turmushi va mehnati bilan bogʻliq oʻyinlar va urf-odatlar-

dan boshlanadi. XVI asrdan Kuchma professional teatrlari yuzaga kelib, Uygʻonish davrining insonparvarlik gʻoyalarini ifodaladi (dramaturglar K.Marlo, T.Kid, J.Lili, U.Shekspir). Londonda “DruriLeyn”, “KoventGarden”, “Old Vik” teatri (1818), Stratfordoneyvon shahrida Shekspir yodgorlik teatri (1879, 1961-yildan Qirollik Shekspir teatri), “Mustaqil teatr” (1891) vujudga keldi.

Talabalar bilimini mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. *Buyuk Britaniyada majburiy ta'lim qanday?*
2. *Qaysi universitetlar Qirollikdagi eng qadimgi universitetlar hisoblanadi?*
3. *Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Qo'shma Qirolligining ramziga qaysilar kiradi?*
4. *Buyuk Britaniya adabiyotining o'zbek tiliga tarjima qilingan eng yaxshi namunalarini ayting.*
5. *Zamonaviy me'morchilikning rivojlanishiga hissa qo'shgan shaxslar kimlar?*
6. *Qachondan ko'chma professional teatrlar vujudga kelgan?*

7-mavzu. Britaniyaliklarning urf-odatlari, bayramlari

Tayanch iboralar: *musiqa-drama festivali, gulxan, otkritka, bayramona parad*

1. Buyuk Britaniyaning urf-odatlari va bayramlari.
Har yili Chelsida butun dunyoga mashhur gul festivali, Edinburgda musiqa-drama festivali, Londonda esa Karib musiqa festivallari o'tkaziladi. Shu bilan birga, Buyuk Britaniyaning urf-odatlariga talabalarning “Qayiq poygasi”,

“Ot poygasi”, “Futbol chempionatlari”, “Xalqaro tennis”, “Qirollik Regata” va “12-iyul” (1690-yildan Shimoliy Irlandiyada nishonlanadi) kabi bayramlari mavjud.

Asosiy o‘rinni “Rojdestvo” urf-odatlari egallaydi. Ya’ni “Rojdestvo” boshlanishi bilan qishloqlarda “Shamlar kechasi” o‘tkaziladi va “Rojdestvo” otkritkalari tarqatiladi. Bu kunda Angliyada tushlikka kurka go’shti pishirishi, Uels va Irlandiyada qovurilgan g‘oz go’shti, Shotlandiyada dudlangan g‘oz go’shti va butun Qirollik davlatlarida “Plum-puding” deb nomlangan taomni iste’mol qilinishi ham ahamiyatga ega. “Rojdestvo” odatlaridan biri Londonning markaziy maydoni – Trafalgarga katta archani o‘rnatilishi. Bu archani har yili Buyuk Britaniyaga Norvegiya Qirollik uyi hadya qiladi.

“Rojdestvo” bayrami 24 dekabrning oqshomida boshlanib, u oilaviy bayram hisoblanadi. 26-dekabr kuni esa “Sovg‘alar kuni”ni nishonlaydilar. Bu kunda hamma yaqinlari va qarindoshlarini ko‘rishga borishadi.

Shotlandiyada yilning eng katta bayrami “Xogmeney” – yangi yildan bir kun oldin nishonlanadi.

5-noyabr kunida ham britaniyaliklar “Gay Foks kechasi” deb nomlangan bayramni nishonlaydilar. U o‘ziga xos tarixga ega. 1605-yil shu kunda “Gay Foks” parlament binosini portlatib, qirol Jeyms I ni o‘ldirmoqchi bo‘lishadi, biroq qirol soqchilari bombani topadilar va **Gay Foksni** Tauerda hibsga olib, boshini tanasidan judo qiladilar. Shu kundan boshlab britaniyaliklar gulxanda eski kiyim va pichandan qilingan odam ko‘rinishidagi qo‘g‘irchoqni yoqib, “Feyerverk” uyushtiradilar.

Bahor fasli ham qiziqarli bayramlarga boy. 17-mart kuni “Avliyo-Patrik kuni”, ya’ni irlandlarning diniy bayrami bo‘lib o‘tadi. Bu kunda butun Britaniyada irlandlar

folklor musiqasi bilan milliy festivallar o'tkaziladi. 1-aprel kulgidan boshlanadi, odamlar turli xil hazillar, latifalar aytadilar.

Angliyaliklar o'z Qirolichasini juda yaxshi ko'radilar, shu sababli uning tug'ilgan kuni – 21-aprel butun davlat miqyosida bayram sifatida keng nishonlanadi. Hamma tele-radio kanallar, ommaviy axborot vositalari orqali tabriklar yo'llanadi. Biroq Angliyada Angliya monarxining rasman tug'ilgan kuni – 1748-yildan boshlab iyun oyining 2-shanbasiga to'g'ri keladi. Bu kunda bayramona parad o'tkazilib, unda harbiy qo'shinlar bayroqni ko'rgazmali tarzda maydondan olib o'tishadi va kun yakunida yuqori qatlam vakillari uchun bazm uyushtiriladi.

Yana bir bahor bayrami butun xristian xalqi nishonlaydigan "Pasxa"sidir. "Pasxa" kuni yildan yilga o'zgaradi, asosan mart yoki aprel oyiga to'g'ri keladi.

Yoz fasli ko'p bayramlardan tashkil topmagan bo'lsa-da, avgust oyining oxirgi kunlaridagi ikki muhim sana o'zgacha ahamiyatga ega.

Bularning birinchisi: avgust dam olish kuni – oyning so'nggi dushanba kuni nishonlanib, rasman "dam olish kuni" deb e'lon qilingan. Bu kunni mahalliy xalq oila davrasida, tabiat qo'ynida o'tkazishga harakat qilishadi.

Ikkinchi sana – "Notting Xill karnavali" bo'lib, u oyning eng so'nggi yakshanbasida nishonlanadi. Ushbu bayram 2 kun davom etib, kun davomida musiqa ovozlari jaranglab, mahalliy aholi turli ko'rinishdagi liboslar kiyishga harakat qilishadi. Odatda, mashhur musiqachilar ko'chalarda shoular o'tkazadi.

Angliyaliklarning bayramlaridan yana biri "Xellouin"-dir. U 31-oktyabrda nishonlanadi, bu kun rasman dam olish kuni deb e'lon qilinmagan bo'lsa-da, aholi bu

bayramni juda faol nishonlaydi. Britaniyaliklar bu kuni o‘z uylarini bezaydilar, yorqin rangdagi kostyumlar kiyib, qo‘shnilarnikiga shirinlik so‘rab chiqadilar. Bu bayramning timsoli yuz qiyofasida kesilgan qovoq bo‘lib, uni ichiga sham solinadi, bu xalq orasida “Jek” yoritgichi deb nom olgan.

**Talabalar bilimini mustahkamlash uchun
savol va topshiriqlar:**

1. *“Rojdestvo” boshlanishi bilan qishloqlarda nimalar qilinadi?*
2. *Shotlandiyada yilning eng katta bayrami qaysi va qachon nishonlanadi?*
3. *“Avliyo-Patrik kuni” qanday bayram?*
4. *“Pasxa” bayrami qanday nishonlanadi?*

**8-mavzu. Buyuk Britaniya iqtisodiyoti,
sporti va ommaviy axborot vositalari**

Reja:

1. *Iqtisodiyoti.*
2. *Britaniya sporti.*
3. *Matbuoti, radioeshittirishi va teleko‘rsatuvi.*

Tayanch iboralar: *iqtisodiyot, xojalik, sanoat, futbol, musobaqachilar, tennis, Tennis Assosiatsiyasi, xokkey, gazeta va jurnallar, radiostantsiya, hujjatli filmlar, murakkab.*

1. Buyuk Britaniya iqtisodiyoti. Buyuk Britaniya iqtisodiyoti rivojlangan mamlakat bolib, jahondagi sakkizta rivojlangan davlatlar qatoriga kiradi. Mamlakat sanoatida qazib olish sanoati sohalari alohida rivojlangan bo‘lib, asosan bunda dengiz akvatoriyalarining ahamiyati katta hisob-

lanadi. O‘z hududidagi shaxtalarning yopilishi va ko‘mir qazib olishning qisqarishi bilan bir vaqtda Shimoliy dengizdan neft va gaz qazib olish ko‘paytirilmoqda. Sanoatning boshqa tarmoqlaridan – transport mashinasozligi (avtomobilsozlik, kemasozlik), aerokosmik sanoati (AQSH va Fransiyadan keyin uchinchi o‘rinda), odiiy va harbiy samolyotlar, vertolyot va aviadvigatellar ishlab chiqariladi, oziq-ovqat sanoati (mashhur shotland viskisi, jun va sut ishlab chiqariladi), masinasozlik sanoati (qishloq xo‘jalik texnikasi, stanoklar, to‘qimachilik asbob-uskunolari), elektronika va elektrotexnika (kompyuterlar, dasturlashtirish, prossesorlar, superkompyuterlar, telekommunikatsiya vositalari, tibbiyot anjomlari, maishiy texnika), kimyo sanoati (dori vositalari ishlab chiqarishda jahonda 4-orinda, agroxi-miya, parfumeriya, yangi materiallar va biotexnologiya), metall ishlab chiqarish, sellyuloza –qog‘oz sanoati sohalari yuksak tarraqiy etgan. Zamonaviy sanoatning yuksak taraqqiyoti texnologiyalarning taraqqiy etganligi bilan belgilanadi. Buyuk Britaniya ilmiy texnikaviy potensial darajasi bo‘yicha Yevropada yuqori o‘rinlarni egallaydi. Nobel mukofoti egalari soni bo‘yicha AQSHdan keyin 2-o‘rinni egallaydi. London jahon moliya markazi – sayyoramizning eng yirik moliya poytaxti hisoblanadi.

2. Britaniya sporti. Sport Britaniya madaniyatida muhim rol o‘ynaydi. Buyuk Britaniya xalqaro sport turlari – futbol, regbi, kriket, to‘r to‘pi, shaxmat, golf, tennis, stol tennisi, badminton, xokkey, boks, suv polosi, billiard kabi sport turlari bo‘yicha yuqori o‘rinlarni zabt etgan.

Asosiy individual sport turlariga atletika, golf, velosiped haydash, mototsikl haydash va ot minish kabilar kiradi.

Ot sporti. Ushbu sport turi Buyuk Britaniyada uzoq Rim davrlari tarixiga taqalib, uning o‘z qirollik tarixi bor. Buyuk Britaniya bo‘ylab yil davomida taxminan 6 million

odam ishtirokida va 13000 dan ortiq musobaqachilar bilan bu musoqa o'tkaziladi.

Tennis. Buyuk Britaniya tennis sporti tarixi 100 yillab orqaga borib taqaladi. Buyuk Britaniya va dunyoda eng katta tennis kubogi "Wimbledon Chempionligi"dir. Garchi tennis individual sport turi bo'lsa ham, Britaniya sport ishqibozlarini, turistlarni va tennis o'ynovchilarni jalb qilishda 3-o'rinda turadi. Britaniyada tennis Tennis Assosiat-siyasi tomonidan boshqariladi. Tennis o'yinida eng yaxshi nom qozongan o'yinchilaridan Greg Rudeski, Tim Henman, Andy Murray, Anne Keothavong va Elena Baltacha.

Suzish sporti. Suzish sporti qatnashchilar soni bo'yicha Britaniyada eng yuqori o'rinda turadi. Ko'proq yoshlar qiziqadi va ko'pchilik rohatlanish uchun ham bu sport turi bilan shug'ullanadi. Britaniya suzish bo'yicha Olimpiya o'yinlari va Umumiy Sog'lik O'yinlarida katta yutuqlarga erishib kelgan.

Xokkey. Britaniya xokkeyi sport turlari ichida eng mashhurlari qatorida turadi. Xokkey jamoalari xalqaro o'yinlarida 1988-yilgi Olimpiya o'yinlarida erkaklar xokkey jamoasi g'olib bo'lgan. 2016-yilda esa ayollar jamoasi Olimpiya o'yinlari g'olibi bo'lgan. Biroq Britaniya xokkeyi yaqin yillar davomida pastlab ketmoqda. 2016-yilgi Olimpiya o'yinlarida ayollar jamoasining muvaffaqiyati Britaniyada sportning obro'sini oshirdi.

Futbol. Futbol ham Buyuk Britaniyada eng mashhur sport turidir. Aslida, Buyuk Britaniyadagi kabi har bir davlatning o'z futbol assosiat-siyasi mavjud. Har bir davlatda o'zining o'nlab ligasi bor. Angilyadagi eng yuqori turnir-da Futbol Assosiat-siyasi kubogi turadi. Futbol o'yini III asrlarda qadimgi Xitoy davlatidan kelib chiqqan. Biroq Futbol Assosiat-siyasining Angliyada o'z ildizlari bor. Bu shuningdek dunyodagi eng mashhur sport turidir.

3. Matbuoti, radioeshittirishi va teleko'rsatuvi. Buyuk Britaniyada juda ko'p gazeta va jurnallar nashr etiladi. Eng muhimlari: "Guardian" ("Posbon", 1821-yildan), "Deyli mail" ("Kundalik pochta", 1896-yildan), "Deyli star" ("Kundalik yulduz", 1978-yildan), "Time" ("Vaqt", 1785-yildan), "Women" ("Ayol", 1932-yildan) va boshqalar. Buyuk Britaniyada Press Assosiation (ichki axborot to'plashga va ommalashtirishga ixtisoslashgan yetakchi axborot agentligi, 1868-yilda asos solingan), Reyter (xalqaro axborot tarqatishga ixtisoslashgan dunyodagi eng yirik axborot agentliklaridan biri, 1851-yilda tashkil etilgan; asoschisi Paul Yulius Reyter nomi bilan ataladi) matbuot agentliklari bor.

Buyuk Britaniyada radioeshittirishlar 1922-yildan, teleko'rsatuvlar 1936-yildan olib boriladi. 400 ga yaqin radiostantsiya, 180 ga yaqin asosiy va 400 dan ortiq yordamchi telestudiyalar mavjud. Britaniyaning yetakchi radioeshittirish va teleko'rsatuv korporatsiyasi – "British Broadcasting Corporation" – BBC (Bi-bi-si) 1922-yilda tashkil etilgan.

Kino. Buyuk Britaniyada kino ishlab chiqarish 1896-yildan boshlandi. 1929-yilda birinchi ovoqli film – "Tovlamachilik" yaratildi. Shu yili hujjatli filmlar maktabi vujudga keldi. A.Kordaning 1932-yilda tashkil etgan "London filme" firmasi Buyuk Britaniya va chet el kino arboblari ishtirokida birmuncha yuqori saviyali filmlar yaratdi ("Pigmalion", rej. A.Askvit; "39 qadam", rej. A.Xichkok kabi). 2-jahon urushi davrida yaratilgan filmlarda ("Mag'rur vodiy", rej. P.Tennisson; "Pastor Xoll", rej. R.Boulting; "Yong'inlar boshlandi", rej. X.Jennings) ilg'or tamoyillar kuchaydi. Urushdan so'ng ingliz klassiklari asarlarini ekranlashtirish avj oldi.

[“Hamlet” (1947), “Richard III”, rej. L.Olive; “Oliver Twist”, rej. D.Lin kabi]. Hujjatli filmlar ishlab chiqarishda “Ozod kino” guruhi samarali faoliyat yuritdi (1956-1959). 1960-1970-yillarga oid “O‘ziga xos ishq” (rej. J.Shlezinger), “Yolg‘onchi Billi”, “Sportchilar hayoti” (rej. L.Anderson), “Qanday saodatli kun edi” (1972), “Bayram asnosida” (1975) kabi filmlarda xalq hayotini haqqoniy aks ettirish, murakkab, ziddiyatli xarakterlar yaratishga intilish sezildi.

Talabalar bilimini mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Britaniya asosiy individual sport turlariga qaysilar kiradi?

2. Tennis o‘yinida eng yaxshi nom qozongan o‘yinchilaridan kimlarni bilasiz?

3. Xokkey ayollar jamoasi qachon Olimpiya o‘yinlari g‘olibi bo‘lgan?

4. Buyuk Britaniyada radioeshittirishlar qachondan olib boriladi?

5. Buyuk Britaniyada kino ishlab chiqarish nechanchi yildan boshlandi?

9-mavzu. AQSh geografik oʻrni, aholisi va tabiiy qazilma boyliklari



Davlat bayrogʻi

Davlat gerbi

Reja:

1. AQSHning geografik joylashuvi.
2. AQSH aholisi.
3. AQSH tabiiy qazilma boyliklari.

Tayanch iboralar: *Qoʻshma shtat, prezident, intensiv, ekstensiv, oltin, kumush, nikel, kobalt, yoqilgʻi, biologik resurs.*

Rasmiy nomi: Amerika Qoʻshma Shtatlari.

Poytaxti: Vashington shahri.

Mustaqillik: 1776-yil 4-iyul.

Maydoni: 9.519431 million kv.km (4-oʻrin).

Aholisi: 320.194478 kishi (3-oʻrin), oʻrtacha zichligi 1 kv.km.ga 32 kishi.

Davlat tili: ingliz tili.

Pul birligi: AQSH dollari.

Vaqt mintaqasi: (UTC-5...-10)

Yoz (DST) (UTC-4...-9)

Qisqartma: USA U.S.America

Internet domen: .us, .mil, .gov, .edu

Telefon prefiksi: +1

Geografik joylashuvi Shimoliy Amerika materigi. Mustaqillik kuni 1776 yil 4 iyul (1783-yil 3-sent-

yabr). An'anaviy shiori: Ko'pchilikdan birlikka. AQSH – federativ respublika, 44-Prezident Barak Obama (20.01.2009-yildan, "Demokratlar partiyasi"dan). Hozirda Donald Tramp. AQSH siyosiy-ma'muriy jihatdan 50 shtat va Kolumbiya federal okrugini iborat.

1. AQSHning geografik joylashuvi. AQSH davlati g'arbiy yarim sharda, Shimoliy Amerikaning katta qismida joylashgan. AQSHning asosiy qismida 48 ta shtat va 2 ta shtati Alyaska va Gavayi alohida joylashgan. AQSH janubda Meksika, shimolda Kanada va dengiz orqali Rossiya bilan chegaradosh. AQSH hududini g'arbda Tinch okeani, sharqda Atlantika okeani yuvib turadi. Janubisharqda Meksika qo'ltig'i joylashgan, shimolda Alyaska shtati Shimoliy Muz okeaniga ochiqdir. AQSH Kanada bilan katta masofada quruqlik orqali va buyuk ko'llar orqali chegaradoshdir. Janubda Rio-Grande daryosi qirg'oqlari orqali Meksika bilan chegaradosh.

AQSH hududining kattaligi jihatidan dunyo mamlakatlari o'rtasida 4-o'rinda (Rossiya, Kanada, Xitoydan keyin) turadi. AQSH iqtisodiy-geografik jihatdan qulay, ammo bir-biridan uzoq uch hududdan iborat. Asosiy hududi, ya'ni 48 ta shtatdan iborat qismi Shimoliy Amerikaning markaziy qismida joylashgan, shimolda Kanada (64160 km.) va janubda Meksika davlatlari (3326 km.) bilan (chegaralar tabiiy ravishda – tog' tizmalari, daryo va ko'llardan o'tgan) chegaralangan. AQSH hududini g'arbdan Tinch okeani, sharqdan Atlantika okeani suvlari yuvib turadi.

AQSHning shimoldagi 49-Alyaska shtati (hudud maydoni 1.519 ming kv.km, aholisi 600.000 kishi) materikning shimoli-g'arbiy qismida joylashgan va uni Shimoliy Muz va Tinch okeani suvlari shimoli-g'arb va janubi-g'arb tomondan yuvib turadi. Quruqlikda Kanada bilan (2477

km.) chegaradosh. Alyaska shtati hududi g'arbdan Bering bo'g'ozini orqali Rossiya Federatsiyasi (Ratmanov oroli) bilan chegaradosh. Ma'lumki, Alyaska yarim oroli hududi ilk bor sibirlik qabilalar tomonidan bir necha ming yillar oldin kashf etilgan va ular Bering bo'g'ozidan o'tib kelib turgan. Bu hududga rasmiy ravishda birinchi marta 1732-yil 21-avgustda G'arbiy Yevropaliklar kirib kelgan. Alyaska hududi 1799-1867-yillarda rus-amerika kompaniyasi nazoratida bo'lgan. Chor Rossiyasi Alyaska hududini (1.519 ming kv.km. maydonni) AQSHga 1867-yil 30-martida 7,2 mln. AQSH dollariga o'z qarzlarini hisobiga sotib yubordi.

Shuningdek, AQSHning 50-shtati Gavayi (24 ta orollar majmuasidan iborat, 16,7 ming kv.km, aholisi 1,3 mln kishi) Tinch okeanining markaziy qismida joylashgan.

AQSH siyosiy-ma'muriy jihatdan 50 shtat (shtatlar quyi ma'muriy okruglarga bo'linadi)dan iborat. Undan tashqari, AQSHga Panama kanali havzasi okrugi, Gavayi orollari, Guan orollari, Sharqiy Samoa, Virgin orollari hamda, Kuba orolidagi Guantanamo harbiy bazasi qarashlidir.

AQSH iqtisodiy-geografik o'rni qulay bo'lib, jahon mamlakatlari bilan samarali transport-iqtisodiy aloqalarni olib borish imkonini beradi. AQSH nisbatan yosh davlat, ma'lumki, yevropaliklar tomonidan XVI asrdan boshlab o'zlashtirilgan. Dastlab, Atlantika qirg'oq bo'ylarida Buyuk Britaniyaning 13 ta koloniyasi tashkil etilgan. 1776- yili AQSH mustaqilligi elon qilindi. XX asr boshlariga qadar G'arbgacha tomon kengaydi (hududlar sotib yoki bosib olinib, o'zlashtirildi). O'tgan asrning 50-yillarida Alyaska va Gavayi orollari "Shtat" maqomiga ega bo'ldi. AQSH iqtisodiy statistik nuqtai nazardan 4 ta makro iqtisodiy rayonga: Shimoli-sharq, O'rta-g'arb, Janub va G'arbgacha bo'linadi.

Kentukki 50 ta shtatlar orasida rivojlanishiga ko'ra o'rtacha o'rindadir, aholisi 4,3 millionni tashkil qiladi. AQSH shtatlari orasida Kentukki kattaligiga ko'ra o'ttiz yettinchi o'rinni egallaydi. Kentukki g'arbiy qismdagi shtatlar orasida maydoniga ko'ra u qadar katta bo'lmasada, sharqiy qismida kattadir. Kentukki ko'proq qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan. Lekin yirik shaharlari ham bor. Masalan, Leksington va Luisvill. Kentukki poytaxt shahar Sinisinnati bilan ham chegaradosh. Kentukki qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan va foydali qazilmalar ham qazib olinadi.

Shimoliy Amerika makromintaqasi iqtisodiy-geografik holati juda qulay bo'lib,

a) Yevroosiyo va Afrika mamlakatlari hamda dunyoning boshqa mintaqalari bilan qulay iqtisodiy aloqalar olib borish imkonini olib boruvchi, Atlantika va Tinch okeani suvlarining o'rab turishi;

b) Shimoliy Amerika makromintaqasining chekka shimoli-g'arbida Rossiya bilan juda yaqin bo'lib, Bering bo'g'ozidagi Diomid orollari orqali qisqa masofada ajralib turishi;

v) AQSH va Kanada qirg'oq bo'ylarining Atlantika va Tinch okeani xalqaro savdo yo'llariga chiqish imkoniyatlari;

g) Xalqaro Panama kanalining mavjudligi (Panama kanali Shimoliy Amerika makro mintaqasi siyosiy-iqtisodiy hayotida muhim;

d) resurs imkoniyatlari jihatlarini boshqa okeanlarga nisbatan ustun hisoblangan Arktika (Shimoliy Muz okeani) akvatoriyasiga bevosita tutashligi bilan xarakterlanadi.

Ayni vaqtda Grenlandiyaning shimoliy va sharqiy qirg'oqlari kemachilik uchun noqulay bo'lib, yil bo'yi su-

zib yuruvchi muz bo'laklari bilan qoplangan. Faqatgina Grenlandiyaning unchalik katta bo'lmagan janubi-g'arbiy qirg'oq bo'ylari kemachilik uchun qulay.

Shimoliy Amerika relyefi birmuncha murakkab bo'lsa-da, xo'jalik yuritish uchun juda qulay. Tog' va tekisliklar materik bo'ylab meridional joylashgandir.

Makromintaqaning g'arbiy qismida Kordelera tog'lari joylashgan bo'lsa, sharqida tekisliklar va past tog'lar mavjud. Makromintaqaning o'rtacha balandligi dengiz sathidan (g'arbda 1700 m va sharqda 200-300m) 720 m bo'lib, asosan Kanada, Lavrentiy qirlari, Janubda Markaziy tekisliklar (katta qismi AQSH hududida), g'arbda Kordilera tog'lari oldidagi Buyuk tekisliklarga tutashib ketgan, Markaziy tekisliklar sharqida Appalachi tog'lari mavjud.

Kanada Arktika arxipelagining sharqiy qismi va Grenlandiya sohillari relyefi tog'li o'lkalardan iboratdir. Makromintaqaning janubi-sharqida tor yo'lak hosil qilgan Atlantika bo'yi past tekisligi va Meksikaning past tekisligi iqtisodiy jihatdan kuchli darajada o'zlashtirilganligi bilan ajralib turadi. Kordelera tog'lari tizimi ko'plab yoysimon tizimlardan iborat bo'lib, ular-dan g'arbda balandligi 1000-2000 m ichki yassi tog'lar va platolar mintaqasi mavjud. Bu yassi tog'liklar supasimon tekisliklar, tizmalar va soyliklar bo'lib, parallel yo'ngalangan tog' zanjiridan iborat. Alyaskadan to Panama bo'yiga qadar Kordelyera tog' tizmalari cho'zilib yotadi. Hududning eng baland nuqtasi Alyaska tizmasidagi Mak-Kinli cho'qqisi 6193 metrdir, eng past joyi Kaliforniyadagi Ajal vodiysi bo'lib dengiz sathidan 86 metr pastda joylashgan. Tinch okeani sohil bo'yida nihoyatda tor va uzilib-uzilib joylashgan tekisliklar mavjud.

2. AQSH aholisi. AQSH aholisi soni 2014-yil ma'lumotiga ko'ra 321348000 kishini tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich bo'yicha dunyoda 3-o'rinda turadi. Ya'ni Xitoy va Hindistondan keyingi o'rinda. Rivojlangan mamlakatlar orasida AQSH aholisi tez o'sib borayotgan mamlakatdir. Aholi soni har yili 1 foizga o'smoqda. AQSH aholisi immigrantlar hisobiga ham o'smoqda.³

AQSH aholisi har yili taxminan 2,5 millionga ortib bormoqda. Bularning katta qismi immigrantlar hisobiga bo'lsa, qolgan qismi tabiiy o'sish hisobigadir. Aholi o'sish sur'ati dunyo aholisi o'sish sur'atiga ko'ra sekin, ammo sanoati rivojlangan mamlakatlar jumladan, Yevropa mamlakatlariga nisbatan tez o'smoqda. Shimoliy Amerikada aholining joylashuvi notekisdir.

AQSH aholisi (320.194478 kishi, o'rtacha zichligi 1 kv.km.ga 32 kishi) soni jihatidan Xitoy va Hindistondan so'ng dunyoda uchinchi o'rinda turadi. Aholi soni ortishida immigratsiya asosiy rol o'ynaydi. AQSHda XIX asr oxirlariga qadar g'arbiy Yevropa mamlakatlaridan, so'ngra Sharqiy Yevropa, keyingi yillarda Lotin Amerikasi va Osiyo mamlakatlaridan immigratsiya kuchaydi.

Aholining 75 % kelib chiqishi yevropaliklardan iborat bo'lib (Buyuk Britaniya, Fransiya, Irlandiya, Italiya, Polsha, Ukraina, Belarus, Rossiya va boshqa davlatlar), bir nechta asosiy etnik guruhlardan iborat. Kelib chiqishi nemislardan iborat bo'lgan amerikaliklar eng ko'p sonli bo'lib, AQSH aholisining 20-25 % (60 mln. kishi) tashkil qiladi.

AQSHning hozirgi aholisi uch asosiy etnik tarkibiy qismdan: AQSH amerikaliklari, muhojirlar va tub joy aholisidan iborat. AQSH aholisining 81,7 % ni asli kelib

³ World Regional Geography People, Places and Globalization. Royal Berglee, Morehead State University, 2012 (43-bet)

chiqishi yevropalik – amerikanlar, 12,9 % ni afro-amerikaliklar, 4,2% ni osiyoliklar, 1 % ni tub aholi – indeyslar, eskimoslar, aleutlar va 0,2% ni boshqalar tashkil etadi.

Aholining oʻrtacha oʻsish surʼatlari 0,5-0,6 %. Bashoratlarga koʻra, mamlakat aholisi 2025-yilda 355,7 mln. kishini va 2050-yilda 438,2 mln kishiga ortishi mumkin. Yillik tugʻilish koeffitsienti 14-1000 (bir yilda 4,100 ming kishi), oʻlim koeffitsienti 8-1000 (bir yilda 2,480 ming kishi), oʻrtacha umr koʻrish darajasi 78 yosh (erkaklarda 75 va ayollarda 80 yosh) ni tashkil etadi. Mamlakat aholisining 151,5 mln. kishisi mehnatga yaroqli hisoblanadi.

AQSH aholisi orasida tez oʻsib borayotganlar bu lotin amerikaliklardir.

Mamlakatda aholining uzoq umr koʻrish darajasi ham yuqori. Oʻrtacha um koʻrish surʼati oxirgi yillarda yana ham ortdi. Uzoq umr koʻrishiga koʻra erkaklar 78 yosh, ayollar 80 yoshni tashkil etadi. (7-jadval)

Roʻyixatga olish byurosi maʼlumotiga koʻra, amerikaliklar 7 yilda bir marta koʻchishi kuzatilgan. Bu maʼlumotlarga koʻra bir yilda 40 million aholi aralashishi kuzatilgan.

Shahar aholisi sonining ortib borishi ularning ehtiyojini qondirishda qiyinchiliklar keltirdi va narxlarning koʻtarilishiga olib keladi. Narxlar va toʻlash ehtiyojlaridan kelib chiqib aholi orasida uysiz va kambagʻallar vujudga kelishiga olib keldi. Bu esa ekologik holatning buzilishi, ichimlik suvi tanqisligini keltirib chiqaradi.

AQSH aholisining 80 foizi shaharlarda, Kanadaning aholisi AQSH bilan chegaradosh yerlarda joylashgan. AQSH aholisi sekin-astalik bilan janub va gʻarbga tomon siljib bormoqda. Aholi oʻsish surʼati janubiy qismda, sharqiy qirgʻoq boʻylarida, shu bilan birga Texas, Nevada,

Yuta, Kaliforniya, Oregon, Vashingtonda shtatlarida yuqori.

Uchta shtatida aholining 3 dan 1 qismi to'g'ri kela-di. Shimoli-sharq eng zich joylashgan qismi hisoblanadi.⁴ AQSH amerikaliklari millat sifatida asosan XVIII asr-ning 2-yarmida Yevropaning turli mamlakatlaridan kel-gan muhojirlarning aralashib ketishi natijasida tarkib top-gan. Afroamerikaliklar ("qoralar" deb ataluvchi negrlar) AQSH amerikaliklarining irqiy-etnografik guruhi bo'lib, ular XVII-XIX asrlarda mamlakatga keltirilgan afrika-lik qullarning avlodlaridir. Afroamerikaliklar ko'p asrlar davomida ayirmachilik va kamsituvga duchor qilinishiga qaramay, afrikaliklarning oq tanlilar bilan jismoniy ara-lashuvi sodir bo'ldi. Duragaylar afroamerikaliklar umumiy sonining anchagina qismini tashkil etadi. AQSHda meksi-kanlar, italyanlar, nemislar, fransuzlar, shvedlar, norveglar, gollandlar, yaponlar, polyaklar, xitoylar va boshqa xalqlar ham yashaydi.

AQSHda 5 mingga yaqin o'zbeklar istiqomat qiladi. Ular asosan Nyu-York, Vashington, Nyu-Jersi shtatlarida, Filadelfiya shahrida hamda mamlakatning boshqa shtat va shaharlarida yashaydi. Ular turli kasb hamda tijorat ishlari bilan shug'ullanadilar. Hozirgi amerikalik o'zbeklarning ota-bobolari 1917-yilgi oktyabr to'ntarishidan keyin bol-sheviklar tazyiqidan qochib, avval Afg'oniston va Xitoyga o'tib ketganlar. 1950-yillarda esa Pokiston, Saudiya Ara-bistoni, Turkiya orqali AQSHga borib qolishgan. 2-jahon urushi davrida turli yo'llar bilan u yerga borib qolgan o'zbeklar ham uchraydi.

1790-1994-yillar davomida AQSHga Yevropa, Lotin

⁴ World Regional Geography People, Places and Globalization. Royal Berglee, Morehead State University, 2012 (43-bet) 24

Amerikasi, Osiyo, Afrika mamlakatlaridan 64 mln. kishi ko'chib kelgan bo'lsa:

1790-yilda – 329214 kishi;

1900-yilda – 76212168 kishi;

2000-yilda – 281421906 kishi;

2014-yilda – 318914629 kishini tashkil etgan.

AQSH aholi zichligi 1 kv.km ga 32 kishi to'g'ri keladi. Aholining 70% mamlakatning 12% maydonida yashaydi. Dengiz bo'yida – 350-400, tog'li hududlarda 1 kv.km.ga 2-3 kishi to'g'ri keladi.

Aholi eng siyrak joylashgan hududi Alyaska shtati hisoblansa, zichligi yuqori bo'lgan joylar Atlantika bo'yi, Buyuk ko'llar atrofi, Kaliforniya shtati hisoblanadi. Nyu-Jersida aholi zichligi 1 kv.km ga 1000 kishi to'g'ri keladi.

Dindorlar asosan protestantlar va katoliklardir. Diniy tarkibi: protestantlar – 51,3%; katoliklar – 23,9%; iudaistlar – 1,7%; buddistlar -0,7%; musulmonlar – 0,6%; ateistlar – 4%; boshqa din vakillari – 17,8% tashkil etadi.

3. AQSH tabiiy qazilma boyliklari. Mamlakat juda qulay iqlimiy sharoitlarga ega. AQSHda yuzdan ortiq turdagi foydali qazilma boyliklari mavjud. Tabiiy resurslar orasida qazib olish sanoatida qiymat jihatdan eng katta ulush (90%) energoresurslar: neft, ko'mir, tabiiy gaz va uranga tegishli. Metalning 75%ga yaqini temir rudasi va misga to'g'ri keladi. AQSH jahon bozoridagi eng sig'imli, raqobatbardosh va biznes olib borish uchun eng qulay mamlakat hisoblanadi.

AQSH yer osti va yer usti foydali qazilmalarga juda boy. Jumladan, toshko'mir, qo'ng'ir ko'mir, neft, yonuvchi gaz, temir, marganets, titan, xromit, mis, rux, qo'rg'oshin, kumush, polimetal, nikel, kobalt, alyuminiy, molibdan, volfram, simob, surma, uran rudalari, oltin, platina, oltin-

gugurt, fosfort, osh va kaliy tuzlari kabi yer osti va yer usti boyliklari uchraydi.

Ayniqsa, yoqilg'i energiya resurslari, qora va rangli metallarning yirik zaxiralari, tog'-kimyo xom-ashyosi va boshqa resurs zaxiralari bilan ajralib turadi. AQSH neft va gazning yirik zaxiralari ega. Yirik neft va gaz havzalari Alyaskada, mamlakat janubidagi Texas, Nyu-Meksika, Luiziana, Tinch okeani sohillari bo'yidagi Kaliforniya shtatlari, Meksika ko'rfazi hududida nihoyatda ko'p. Mamlakatda yiliga o'rtacha 338 million tonna atrofida neft va 661 milliard kub metr tabiiy gaz olinadi. Yiliga 1 mlrd tonna atrofida ko'mir (Toshko'mir – 932 mln. tonna va qo'ng'ir ko'mir – 76 mln. tonna) qazib olinadi va Xitoydan keyin Jahonda 2-o'rinda turadi. (5-jadval)

Yirik ko'mir havzalari Buyuk ko'llar havzasi, Sharqiy provinsiyada (Appalachi), Buyuk tekisliklar shimolida va Alyaska hududida joylashgan. Temir, mis va boshqa rudalar Michigan va Minnesota shtatlarida, molibden va volfram tog'li shtatlarda, mis Arizona, Yuta, Nyu-Meksika, Montata shtatlarida, rux Tennessi va Nyu-Jersi, qo'rg'oshin-rux rudalari Aydaxo, Yuta, Montana, Misuri shtatlaridadir. Qimmatbaho oltin konlari zaxiralari Alyaska, Kaliforniya, Nevada, Yuta, Kaliforniya, Arizona, Pensilvaniya, Michigan kabi shtatlar hududida nihoyatda ko'pdir. Shuningdek, kumush, platina, uran, kamyob va sochma metallarga boy Kordilyerada, fosforit Florida, Shimoliy Karolina, Aydaxo shtatlarida, oltingugurt Meksikabo'yi pasttekisligidan qazib olinadi.

Talabalar bilimini mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. AQSH neshta shtatdan tashkil topgan?

2. *AQSH iqtisodiy geografik o'рни iqtisodiyotini rivojlantirishda qanday ahamiyatga ega?*
3. *AQSH yirik temir ruda konlari?*
4. *AQSH yer osti va yer usti foydali qazilmalari qaysilar?*
5. *Yirik ko'mir havzalari qaysi hududlarda uchraydi?*

10-mavzu. AQSh tarixi

Tayanch iboralar: *indeys, hamdo'stlik, qora tanlilar, fermerlik, Demokratik partiya, NATO.*

1. AQSHning tarixi. Ko'plab tarixiy manbalarda juda qadim zamonlarda Shimoliy Amerika yerlari, xususan, hozirgi AQSH hududida indeys va eskimoslar yashaganliklari keltirilgan. Ma'lumki, "Yangi yerlar", ya'ni Amerika qit'asi 1492-1501-yillar davomida X.Kolumb boshchiligidagi ispaniyalik sayyohlar va boshqa yevropaliklar tomonidan kashf etilgan. Keyin XVI asrdan boshlab G'arbiy Yevropa davlatlaridan Ispaniya, Portugaliya, Fransiya, Angliya, Gollandiya, Shvetsiya kabi davlatlar Shimoliy Amerikadagi yangi yerlarni egallashga kirishdi.

Yevropaliklar asosan ispanlar, fransuzlar AQSHning, ya'ni Shimoliy Amerika mamlakatlarining mustamlakalariga o'z ta'sirlarini ko'rsatishdi. Eng qadimgi koloniyalaridan biri bu Florida shtatidagi ispanlar tomonidan tashkil topgan Sankt-Avgustindir (1565).

Nyu-Meksiko va Texas, Kaliforniya ham umuman Markaziy Amerika ispaniya mustamlakasiga o'xshaydi. Ispaniya va Fransiya Shimoliy Amerikani bosib olishiga qaramay, u yerda aholi ingliz tilida so'zlashadi. AQSHda esa ingliz tili ona tili hisoblanadi. Eng birinchi tashkil etilgan ingliz mustamlakasi Jeymstaun – hozirgi Virjiniya 1607-yil tashkil topgan. Inglizlarning 13 ta mustamlakalarida aholi zich, iqtisodiy hamda harbiy sohada kuchli ediki,

ular mustaqillikni talab qila boshlashgan. Lekin Britaniya hamdo'stligining bir qismi sifatida qolgan.

Fuqorolar urushiga qadar afro-amerikaliklar mamlakatning janubiy qismida paxta va tamaki plantatsiyalarida qul sifatida ishlashgan. Urush tugaganda ham ko'pgina okruglarda qora tanlilar aholini katta qismini tashkil qilgan. Ko'pgina ozod bo'lgan qora tanlilar XX asrda ham kambag'alligicha qolishgan va qishloq xo'jaligida band bo'lgan. Hatto 1910-yil afro-amerikaliklarning sakkizdan yettitasi janubda yashagan.⁵

Angliya XVIII asr o'rtalarida asosiy raqiblarini surib chiqarib, hududning shimoli-sharqiy qismida o'zining mustamlakachilik hukmronligini o'rnatdi. Yerlarni egalash va o'zlashib olish bilan ayni bir vaqtda mahalliy aholi shafqatsizlarcha qirg'in qilindi va bu hududlarga Afrikadan qul – negrlarni ishlatish uchun ommaviy ravishda olib keldilar. 1775–1783-yillardagi Shimoliy Amerikada mustaqillik uchun urush davom etdi. 1776-yil 4-iyulda federal davlat – AQSHga asos solindi va u Respublika deb e'lon qilindi. Jorj Vashington AQSHning birinchi Prezidenti etib (30.04.1789 – 04.03.1797-yy.) saylandi. Mamlatat shimolida sanoat va fermerlik, janubida quldorlikka asoslangan dehqonchilik rivojlandi. G'arbdagi indeys qabilalarini haydab yuborish va yangi yerlarni o'zlashtirish hisobiga AQSH hududi tez kengaya bordi. AQSH tomonidan 1803-yilda Fransiyadan G'arbiy Luiziana "sotib olindi", 1819-yilda Ispaniyani Floridaning bahridan o'tishiga majbur etdi. 1836-yilda Meksikadan Texas hududini tortib oldi. XIX asr mobaynida hozirgi Kaliforniya, Arizona, Nyu-Meksiko, Nevada shtatlarining hududlari, Kolorado

⁵ World Regional Geography People, Places and Globalization. Royal Berglee, Morehead State University, 2012 (43-bet)

va Vayoming shtatlarining bir qismi qo‘shib olindi. XIX asr o‘rtalarida AQSHda “Ikki partiyali tizim” tarkib topdi. Endi hokimiyatni “Demokratik partiya” bilan “Respublikachilar partiyasi” ketma-ket boshqaradigan bo‘ldi.

Shimoliy burjuaziyasi bilan janub plantatorlari o‘rtasidagi ziddiyat AQSHda 1861–1865-yillarda fuqarolar urushiga olib keldi, unda Prezident A.Linkoln boshchiligidagi shimoliy shtatlar g‘alaba qozondi. Urush davomida yer ulushlari haqida (1862-y.), quldorlikni bekor qilish to‘g‘risida (1865-y.) qonunlar qabul qilindi. Fuqarolar urushidan so‘ng mamlakat iqtisodiyoti jadal rivojlana boshladi.

1867-yilda AQSH Chor Rossiyasidan Alyaska va Aleut orollarini sotib oldi. XIX asr oxirida Filippin, Gavayi, Puerto-Riko va boshqalarni, 1903-yilda Panama kanali zonasini qo‘lga kiritdi. Ikki (XIX-XX) asr bo‘sag‘asida AQSHga ko‘chib kelishning yangi to‘lqini boshlandi. Muhojirlarning aksariyati janubi-sharqiy Yevropadan edi. Birinchi jahon urushi davri (1914–1918-yillar)da AQSH avvaliga betaraflik mavqeida turdi, 1917-yil aprelda “Antanta” tomonida turib harakat qildi. Urushdan keyin AQSH iqtisodiy yuksalish davriga kirdi. Ammo tez orada iqtisodiy inqiroz (1929–1933-yy.) boshlanib, ishsizlik kuchaydi (1933-yilda 17 mln. ishsiz bo‘lgan), korxonalar sindi, ishlab chiqarish keskin pasaydi. Inqiroz sharoitida F.Ruzvelt (1933–1945-yillarda AQSH Prezidenti) boshchiligidagi “Demokratik partiya” ma’muriyati hokimiyat tepasiga keldi. Uning tashabbusi bilan bir qancha ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar amalga oshirildi, “Yangi yo‘l” deb atalgan bu yo‘l AQSHni inqirozdan olib chiqish maqsadini ko‘zlar edi.

1941-yilda Yaponiya Amerikaning Pyorl-Xarbor har-

biy-dengiz bazasiga hujum qilganidan keyin AQSH 2-jahon urushiga qo'shildi va Gitlarga qarshi koalitsiya tomoniga o'tdi. Amerika qurolli kuchlari asosan Tinch okeanida Yaponiyaga qarshi jangovar harakatlarda qatnashdi. 1943-yilda Italiyaga qo'shin tushirdi. AQSH ittifoqchilarning xalqaro anjumanlarida (1943-yil Tehron, 1945-yil Qrim, 1945-yil Postdam konferensiyalarida) qatnashdi. Nihoyat, 1944-yil 6-iyunda AQSH bilan Buyuk Britaniya ikkinchi frontni ochdi. 1945-yil 6 va 9-avgustlarda G.Trumen (1945–1953-yillarda AQSH Prezidenti) buyrug'i bilan Yaponiyaning Xirosima va Nagasaki shaharlariga atom bombalari tashlandi; bu o'n minglab tinch aholining qirilishiga sabab bo'ldi. 1950-1953-yillarda AQSH Koreya urushida qatnashdi, 1956–1975-yillarda Vetnamda urush olib bordi. 1945-yildan AQSH BMT, shuningdek Amerika davlatlari tashkiloti, NATO a'zosidir.

**Talabalar bilimini mustahkamlash uchun
savol va topshiriqlar:**

- 1. AQSH qaysi mamlakatlar tomonidan zabt etilgan?*
- 2. Ispanlar va fransuzlar XVI asrda AQSh ning qaysi yerlarini bosib olgan?*
- 3. AQSHga qachon asos solindi?*
- 4. AQSHning birinchi Prezidenti etibkim saylangan?*
- 5. AQSH BMT ga qachon a'zo bo'lgan?*

11-mavzu. AQSH davlat tuzumi

Reja:

1. *AQSHning boshqaruv davlat tizimi va siyosiy partiyalari.*
2. *AQSHning ma'muriy hududiy bo'linishi.*
3. *Tashqi iqtisodiy aloqalari.*

Tayanch iboralar: *Federativ, hudud, Kordilyera, Gudzon, Shimoliy Muz okeani, Avliyo Lavrentiya, mustamlakachilik, qirolicha, kongress, gubernator, senat, BMT.*

1. AQSHning boshqaruv davlat tizimi va siyosiy partiyalari. AQSH – federativ mamlakat. Fransuzlar Shimoliy Amerikaga 1500-yilda kirib kelgan va bu yerda baliqchilik, mo'ynachilik ishlarini yurgizgan. Ular asosan Buyuk ko'llar va Missisipi daryosi bo'larida joylashgan. Lekin shunga qaramay, fransuzlar davri ortda qolib, AQSH Buyuk Britaniya mustamlakasi bo'lganligi sababli aholisi ingliz tilida so'zlashgan. Eng birinchi tashkil etilgan koloniya – Jeymstaun 1607-yil tashkil topgan. Keyinchalik Virjiniya shtati deb nomlangan.

Shu tariqa AQSH dagi koloniyalar o'z mustaqilligiga erisha boshlagan. Natijada 50 ta shtat va 1 ta Federal okrugga ega.⁶

Amerika Qo'shma Shtatlari Shimoliy Amerikadagi mamlakat. Poytaxti – Vashington shahri, BMT a'zosi. AQSH ma'muriy jihatdan 50 shtat va Kolumbiya federal okrugiga bo'linadi. Puerto-Riko Hamdo'stligi, Shimoliy Mariana orollari Hamdo'stligi, Guam, Virginiya orollari, Sharqiy Samoa ham AQSHga qarashli.

AQSH – federativ respublika. Amaldagi konstitutsiyasi

⁶ World Regional Geography People, Places and Globalization. Royal Berglee, Morehead State University, 2012 (43-bet) 28

1787-yilda qabul qilingan. *Davlat va hukumat boshlig'i, qurolli kuchlar bosh qo'mondoni – Prezident*. Vitse-prezident bilan birga bivosita, ikki bosqichli saylov yo'li bilan (saylovchilar hay'ati orqali) 4 yil muddatga saylanadi. Qonun chiqaruvchi oliy organ – AQSH kongressi; Kongress ikki palata vakillar palatasi va senatdan iborat. Senatda 100 senator bor (ular 6 yil muddatga, har shtatdan 2 tadan saylanadi va 1/3 qismi har 2 yilda yangilab turiladi). Vakillar palatasiga 435 deputat 2 yilga saylanadi. Ijrochi hokimiyat organi – kabinet (hukumat a'zolari)ni Prezident Senatning roziligi bilan tayinlaydi. Kabinet (hukumat) a'zolari 13 vazirdan iborat bo'ladi. Har bir shtatning o'z konstitutsiyasi bor. Shtatdagi qonun chiqaruvchi hokimiyatni qonun chiqaruvchi majlis, *ijrochi hokimiyatni esa gubernator amalga oshiradi*.

AQSH davlatining konstitutsiyaviy tizimiga uch siyosiy-huquqiy qoida asos qilib olingan, bu qoidalar – hokimiyatning bo'linishi, federalizm va sudning konstitutsiyaviy nazoratidan iborat. Hokimiyatning bo'linish qoidasi davlat hokimiyatining uch tarmog'i – *qonun chiqaruvchilik, ijroiya va sud* hokimiyatlarining mustaqilligini va ular o'rtasida vazifalarning chegaralab qo'yilishini nazarda tutadi. Federal darajadagi uch tarmoq – Kongress, Prezident va Oliy suddir.

AQSHda 1789-yil 30-apreldan to hozirgi kungacha turli vaqtlarda har xil partiya vakillari Respublika Prezidenti (Vitse-prezident) bo'lganlar.

Siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari. AQSHda faol partiyalar ikkita bo'lib, ulardan biri "Respublikachilar partiyasi" 1854-yilda yangi hududlarda qulchilikni tarqalishiga qarshi chiqqanlar tomonidan tuzilgan. Bu partiya A.Linkolm prezidentlik qilgan davr (1861-1865-yy.)dan boshlab mamlakatda yetakchilik qiladi, hatto uni "Buyuk

qadimiy partiya” deb ham ataydilar. Shu davr ichida bir necha marta ushbu partiya vakili Prezident bo‘lib davlatni boshqarib keldi.

Shuningdek, mamlakatdagi ikkinchi partiya “Demokratik partiya” bo‘lib, 1828-yilda tuzilgan. Qator yillar davomida Prezidentlik lavozimida ushbu partiya vakillari ham davlatni boshqarib kelmoqda.

AQSHda yetakchi ikki partiyadan tashqari yana 38 ta federal uchinchi partiyalar mavjud, biroq ular siyosatga ta’sir qilmaydi. AQSHda yana bir Kommunistik partiya faoliyat olib borib, u 1919-yilda tuzilgan. Libertarian partiyasi 1971-yil 11-dekabrda tuzilgan. Ularning asosiy shiori – shaxs ozodligi, shu bilan birga erkin bozor iqtisodiyoti, erkin xalqaro savdo-sotiq, tinchlik va boshqa mamlakat siyosatiga aralashmaslik tarafdorlaridir.

Konstitutsion partiyasi 1992-yilda tashkil etilgan. Bu partiya konservativ siyosiy printsiplar va milliy qadriyatlariga asoslangan. Amerika Mehnat Federatsiyasi – ishlab chiqarish kasaba uyushmalari Kongressi 1955-yilda tashkil etilgan. AQSHda salkam 40 ta mustaqil kasaba uyushmalari ham bor, ularga 4,5 mln. ishchi va xizmatchi a’zo bo‘lib kirgan.

2. AQSHning ma’muriy hududiy bo‘linishi va ular-ga siyosiy ta’rif.

1. AQSHda 50 ta shtat, 1 ta federal okrug;
2. 3140 ta okrug; eng kam okrug Delaver shtatida (3 ta), eng ko‘p okrug Texasda (254 ta)
3. Shahar munitsipalitet va taunshipga bo‘linadi.

AQSH hududidan tashqari, lekin unga tegishli yerlar: Puerto-Riko; Amerika Virjniya orollari; Shimoliy Mariana orollari; Guam; Amerika Samoasi.

AQSH quyidagi 4 ta yirik rayonga bo‘linadi:

1. G‘arb – unga mamlakat aholisining 24%, maydoni-ning 49% ;

2. Janub – unga mamlakat aholisining 35%, maydonining 24% ;

3. O'rta G'arb – unga mamlakat aholisining 24%, maydonining 22% ;

4. Shimoli-sharq – unga mamlakat aholisining 20%, maydonining 5% ;

3. AQSH tashqi iqtisodiy aloqalari. AQSHning janubi-g'arbi 1598-yilgacha Angliya bosib olgunga qadar Ispaniyaning mustamlakasi bo'lgan. Bu esa AQSHning Texas, Arizona shtatlarida yashovchilar ispan tilida so'zlashuvchi ekanligini bildiradi. Meksika bilan uzun cho'l orqali o'tgan chegarada yashovchilar 2010-yil ro'xatdan o'tkazilganida Nyu-Meksika aholisining 46 foizi lotin amerikaliklar, Texas va Arizonada esa 37 foizi, 30 foizni tashkil etgan yashaydi.⁷

Tarixdan ko'rinib turibdiki, avvaldan bu mamlakatlar o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lgan. Hozirda ham Meksika, Kanada mamlakatlari va AQSH NAFTA tashkilotiga a'zo. Bu mamlakatlar AQSH bilan tashqi iqtisodiy aloqalarida ulushi katta.

AQSH tashqi tovar savdo-sotiq oboroti bo'yicha jahonda birinchi o'rinda turib, mamlakat uchun tashqi iqtisodiy aloqalar muhim ahamiyatga ega.

AQSHning eksport qilinadigan tovarlari asosan sanoat buyumlari va qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan iborat. Sanoat mahsulotlarining 15%i (jumladan, metall tovarlarining $\frac{1}{4}$ qismi, mashina va kimyo mahsulotlarining $\frac{1}{5}$ qismi) eksport qilinadi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eksporti nisbatan ko'proq bo'lib, bug'doy mahsulotlarining $\frac{1}{2}$ qismi, soya doni va tamaki mahsulotlarining $\frac{1}{3}$ qismi, makkajo'xori mahsulotlarining $\frac{1}{5}$ qismi boshqa mam-

⁷ World Regional Geography People, Places and Globalization. Royal Berglee, Morehead State University, 2012 (43-bet)

lakatlarga eksport qilinadi. Jumladan, AQSHdan sanoat va energetika mashina uskunalari, transport vositalari, kimyo tovarlari, to'qimachilik va qog'oz mahsulotlari, ko'mir, oziq-ovqat, yembop don, soya, paxta, tamaki va boshqa mahsulotlar chiqariladi.

Tashqi iqtisodiy aloqalari. Eksporti – 1851 mlrd. dollar: Qishloq xo'jalik mahsulotlari – 9,2%, sanoat mahsulotlari – 49%, iste'mol mahsulotlar – 15%.

Hamkorlari: Kanada (19%), Meksika (13,3%), Xitoy (7%), Yaponiya (4,5%).

AQSH importining asosiy qismini xom-ashyo tashkil qiladi. Katta miqdorda yoqilg'i va mineral xom-ashyo qazib olinishiga qaramay, mamlakatning bu mahsulotlarga bo'lgan talabi juda yuqori. Importda tayyor mahsulotlarning ulushi ham katta bo'lib, ularni asosan xo'jalik mollari, metallni qayta ishlovchi jihozlar, stanoklar, oyoq kiyim va to'qimachilik mahsulotlari tashkil qiladi. Jumladan, neft va neft mahsulotlari, ruda va metall, sanoat mashina-uskunalari, uzoq muddat foydalaniladigan ro'zg'or anjomlari, kiyim-kechak, poyafzal, yog'och, qog'oz, baliq, go'sht, qand-shakar, kofe va boshqalar keltiriladi.

Yirik savdo hamkorlari: Kanada (tovar aylanmasi – 585 mlrd. doll.), Xitoy (552 mlrd. doll.), Meksika (459 mlrd. doll.), Yaponiya (197 mlrd. doll.) va Germaniya (154 mlrd. doll.). Yana Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Braziliya va Saudiya Arabistoni. Bu o'nta mamlakatga Amerika eksportining 68 foizi va importining 60 foizi to'g'ri keladi.

AQSH, Kanada va Meksika tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish uchun NAFTA tashkilotini 1994-yil tashkil etgan.

NAFTA bloki Shimoliy Amerika mamlakatlari bilan

hamkorlik uchun tashkil etilgan tashkilot.

1960-yil Kanada va AQSH o'rtasida avtomobil ishlab chiqarish kelishuvi imzolaniishi bilan birinchi kontinental integratsiya o'z faoliyatini boshlagan. Avto pakt avtomobil detallarini savdo kelishuviga ko'ra boj to'lovlarsiz mamlakatga olib kirish uchun sharoit yaratadi. Avto Pakt Amerikaning yirik avtomobilsozlik (GM, Ford, Chrysler) korxonalarida ishlab chiqilgan mahsulotlarning AQSH va Kanada bozorlariga chiqishiga sharoit yaratadi.

Tashqi iqtisodiy aloqalari: Importi – 2246 mlrd. dollar. Qishloq xo'jalik mahsulotlari – 4,9%, xom ashyo – 32,9%, texnika – 30,4%, iste'mol mahsulotlari – 31,8%.

Hamkorlari: *Kanada (18,4%), Meksika (11,7%), Yaponiya (5,8%), GFR (4,4%)*

AQSH va Kanada qo'shni mamlakat Meksika bilan birgalikda Shimoliy Amerikaning erkin savdo-sotiq uyushmasini tuzishgan. Bu kelishuv uch davlat o'rtasida 1994-yili imzolangan. Kelishuv asosida butun Shimoliy Amerika kontinenti bo'ylab mahsulot, xizmat, kapital va ishchi kuchining erkin harakatlanishi uchun erkin bozor koridorini tashkil qilish va rivojlantirish yotadi. Savdo-sotiqdagi asosiy mijozlari Kanada, Yaponiya, Meksika, G'arbiy Yevropa mamlakatlari.

Talabalar bilimini mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. *AQSH qanday davlat boshqaruv shakliga ega?*
2. *AQSH nechta shtatlardan iborat?*
3. *AQSH Federal okrugi va prezidentlari haqida ma'lumot bering.*
4. *AQSH tashqi savdodagi hamkor mamlakatlar haqida ma'lumot bering.*

12-mavzu. AQSH davlat ramzlari

Tayanch iboralar: koloniya, gorizontal chiziqlar, shtatlar,

Amerika Qo‘shma Shtatlarini aks ettiradigan ko‘plab ramzlar bor. Ulardan eng mashhurlari AQSh bayrog‘i (“The Stars and Stripes”), Oqbosh burgut (“Milliy qush”), “Vashington haykali”, “Linkoln obidasi”, “Oq uy”, “Ozodlik haykali” (fransiyaliklardan sovg‘a) va boshqalar.

1. AQSh bayrog‘i ko‘rinishi davlat tarixi davomida o‘zgarib borgan. Bayroq ustidagi 13 chiziq ilk koloniyalarni, 50 yulduz esa 50 shtatni anglatadi. 1700-yillarda koloniyalar Britaniyadan mustaqillik e‘lon qilish uchun turli xil bayroq ishlatishgan.



Amerika Qo‘shma Shtatlari bayrog‘i Qo‘shma Shtatlarning milliy bayrog‘idir. Unda 13 ta oq va qizil gorizontal chiziqlar va besh yulduzli 50 ta yulduzcha tasvirlangan. Bayroqdagi 50 ta yulduzchalar AQSHning 50 ta shtatini ifodalasa, 13 ta chiziqlar Buyuk Britaniya Qirolligidan mustaqil bo‘lgan 13 ta koloniyalarni va AQSHda birinchi shtatlar bo‘lganini ifodalaydi. Bayroq asosan “The Stars and Stripes” – “Yulduzlar va chiziqlar”, “Old Glory” – “Qadim shon-shuhrat” va “The Star-Spangled Banner” – “Yulduz yaltiragan tangachali bayroq” deb ataladi. Hozir-

gi ko‘rinishdagi 50 ta yulduzli bayroqqa shakli 1960-yil 4-iyulda asos solingan.

13-mavzu. AQSH ta’lim tizimi

Tayanch iboralar: *kollej, majburiy ta’lim, magistr, in-sho, immigrant, Kongress kutubxonasi.*

1. Ta’lim tizimi. Milliy ta’lim tizimi mustaqillik uchun urush (1775-1783-yy.)dan keyin qaror topa boshladi. 1852-yilda Massachusetts shtatida AQSHda birinchi bo‘lib majburiy boshlang‘ich ta’lim to‘g‘risida qonun qabul qilindi. AQSHdagi ko‘pchilik shtatlarda 7-16 yoshdagi bolalar uchun o‘qish majburiy. O‘rta maktabning turlari ko‘p: 3 yillik kichik o‘rta maktab, 6 yillik birlashgan kichik va o‘rta, 4 yillik o‘rta maktablar bor. Barcha variantdagi o‘rta maktablarda o‘qish muddati 12 yil. Oliy ta’lim tizimi universitetlarni, 4 yillik kollejlarni, bundan tashqari, to‘liq oliy ma’lumot bermaydigan 2 yillik kichik kollejlarni, hunar va texnika institutlarini o‘z ichiga oladi. Barcha oliy o‘quv yurtlarida ta’lim pulli. Eng yirik oliy o‘quv yurtlari: Garvard, Kaliforniya (Berkli shtatida), Viskonsin, Michigan, Illinoys, Kornell (Itaka shtatida), Kolumbiya, Princeton, Chikago, Pensilvaniya universitetlari, Kaliforniya, Stenford va Massachusetts texnologiya institutlari.

AQSHda savodxonlik darajasi 99%. 25 va undan katta yoshdagi aholining 86% o‘rta ma’lumotga ega. Aholining 30% bakalavr darajasiga ega.

Ta’lim tizimida ingliz tilida dars olib boriladi. Majburiy ta’lim 5-8 yoshdan 18-19 yoshgacha. 5 yoshdan boshlab boshlang‘ich sinf boshlanadi. O‘rta maktab 8-sinf gacha davom etadi. Oliy o‘quv yurtlarida 4 yil davomida tahsil olib bakalavr darajasi; 2-3 yil o‘qigach magistr da-

rajasi; 3 va undan ko'proq o'qigach doktorlik darajasi olinadi. Mamlakatda 4352 ta OO'Yu bor. Universitetlar 2: xususiy va shtatdagi universitetlarga bo'linadi. Kaliforniya texnologiya instituti, Garvard universiteti.

Kollejga hamma qabul qilinadi. Ammo o'qishga kirish murakkab. Kirishdan avval ariza yoziladi. Arizada nafaqat o'zi haqida, balki qanday mukofoti bor, qiziqishi haqida ma'lumot berishi kerak. Shu bilan erkin mavzuda insho yozib kollejga jo'natadi. Deyarli barcha OO'Yularda ariza yozish tartibi bir xil. Shu sababli abituriyentlar bir vaqtda 10 ta joyga ariza topshiradi. Xususiy maktablarda 1 oyga 2000-4000 AQSH dollari to'lanadi. Maktabda darsliklar bepul, ammo uyga berib yuborilmaydi. Dars boshlang'ichlarda 7³⁰ dan 14²⁵ gacha davom etadi. O'rta sinflarda dars 8¹⁵ dan 15¹⁰ gacha davom etadi. Yuqori sinflarda dars 9⁰⁰ dan 15⁵⁵ gacha davom etadi.

Boshlang'ich sinflarda rasm, ashula, jismoniy tarbiya darslaridan tashqari boshqa darslarni bitta o'qituvchi olib boradi. O'rta sinflardan boshlab o'quvchilar sinflarga ko'chib o'qiy boshlaydi. Shu sababli ularning har biriga alohida shkaflar beriladi. U yerga narsalarini qo'yishadi. AQSHga kelgan britaniyaliklar o'zlari bilan ona tilini, protestant dinini olib kirishgan. Merilend, Pensilvaniya shtatlarida ingliz tilida so'zlashuvchilar yashay boshlagan. Bu yerga asosan hayot uchun pul topish, ish topish maqsadida kirib kelishgan. Ular Amerika orzusiga ishongan. Hozirda nafaqat ish topish, balki o'qish maqsadida ham immigrantlar kirib kelmoqda.

Yirik kutubxonalariga Kongress kutubxonasi (1800-yil tashkil etilgan), Nodir kitoblar va qo'lyozmalar kutubxonasi, Milliy arxiv kutubxonasi, Milliy tibbiyot kutubxonasi, universitetlarning kutubxonalari, Los-Anjeles (1872-

yil tashkil etilgan), Chikago (1872-yil tashkil etilgan), Boston (1852-yil tashkil etilgan), Nyu-York (1895-yil tashkil etilgan) xalq kutubxonalarini keltirishimiz mumkin.

**Talabalar bilimini mustahkamlash uchun
savol va topshiriqlar:**

1. AQShdagi eng yirik oliy o'quv yurtlari qaysilar?
2. AQShda nechta oila o'quv yurti bor?
3. Yirik kutubxonalardan qaysilarini bilasiz?

14-mavzu. AQSh madaniyati.

Reja:

1. AQSH aholisining urf-odatları va bayramları.
2. AQSH adabiyoti.

Tayanch iboralar: *hindu, mustamlakachi, feyerverk, salyutlar, karnaval, Rojdestvo, Avliyo Patrik kuni, roman-tizm, bosqinchilik, fashizm.*

1. Urf-odatları va bayramları. AQSH tarixiga nazar soladigan bo'lsak, qadimda bu yerdagi tub aholi hisoblangan hindularni yevropalik mustamlakachilar AQSH va Kanadani bosib olganda siqib chiqargan. Ular yevropalik mustamlakachilarga qarshi mardonavor kurash olib boshlagan. Mustamlakachilar – ispanlar, fransuzlar, inglizlar o'zlarining katta ta'sirini ko'rsatishgan. Ayniqsa, buni AQSHdagi Florida shtatidagi Sankt-Avgustinda (1565) ko'rishimiz mumkin. Ispaniya mustamlakachilari yana o'zlarining ta'sirini Kaliforniya, Arizona, Nyu-Meksiko va Texas shtatlariga ham ko'rsatgandir.

AQSH aholisini chetdan ko'chib kelgan millat va elatlar, turli irq vakillari tashkil qilsa-da, bu yerda oila-

viy, xonadon, turli xalq urf-odatları, mamlakat tarixi bilan bogʻliq boʻlgan milliy bayramlar koʻp nishonlanadi. Ushbu bayramlar munosabati bilan amerikaliklarning dam olish kunlari uzaytiriladi, yaʼni bayram kunlari asosan dushanba kuniga moʻljallanib, aholi bayramni toʻlaqonli nishonlashi uchun sharoit yaratiladi. Bayram kunlari barcha tashkilot va banklar uchun dam olish kuni deb hisoblanadi.

Yoz faslida 3 ta asosiy bayramlar oʻtkaziladi. Ulardan “Xotirlash kuni”, “Mehnatkashlar kuni” va “Mustaqillik kuni” keng nishonlanadi. Bu kunda asosan ochiq havoda barbekyu (kabob) pishiriladi. Mustaqillik kunida esa barbekyudan tashqari feyerverk, salyutlar otish ham odat hisoblanadi.

“Xotirlash kuni” – AQSHning milliy bayrami boʻlib, har yili may oyining oxirgi dushanba kuni nishonlanadi. Bu kun Amerikaning barcha urush-janglarda halok boʻlgan harbiy askarlarini xotirlash uchun bagʻishlangan. 1971-yildan boshlab bu bayram AQSHning “Milliy bayrami” deb tan olindi. Bu kunda amerikaliklar qabrlarni, harbiy xotira maydonlarini ziyorat qilishadi va AQSH bayrogʻi tush paytgacha tushiriladi.

“Mehnatkashlar kuni” – AQSHning milliy bayrami, sentyabr oyining birinchi dushanba kuni nishonlanadi. Ilk marotaba 1882-yili Nyu-Yorkda nishonlangan. 1894-yildan boshlab AQSHning barcha shtatlarida qonuniy davlat bayrami deb tan olingan. Bu bayram – amerikaliklar uchun yoz oyining oxirgi kuni timsoli. Bayram kuni ishchilar va ularning oilalari uchun festivalar uyushtiriladi.

“Mustaqillik kuni” 1779-yilda AQSHning mustaqillik deklaratsiyasi tasdiqlangan kun boʻlib, unda AQSH-

ning Buyuk Britaniya Qirolligidan mustaqilligi e'lon qilingan. AQSHda har yili 4-iyul kuni nishonlanadi. Bu kun AQSHning ozod va mustaqil davlat sifatida tug'ilgan kuni hisoblanadi. Ko'p amerikaliklar bu kunni "To'rtinchi iyul" deb ham atashadi. Bayram feyerverk, barbekyu, turli xil karnaval, ko'rgazma, sayil, konsert, oilaviy uchrashuv va boshqa ommaviy tantanalar bilan nishonlaydilar.

Amerika Qo'shma Shtatlari aholisi ko'p millatli bo'lib, u Yevropa mamlakatlaridan ancha keyin shakllangan. Shu sababli AQSHning o'ziga xos urf-odatlar kamroqdir, ko'pgina emigrantlar o'z urflarini saqlab qolganlar. Shunga qaramay, AQSHda keng tarqalgan urf-odat – "Rojdestvo"da barcha oila a'zolari birga yig'ilishib, sovg'alar hadya qilishi, o'z madhiyasi va mamlakatning barcha Prezidentlari ismini yoddan bilishi bayramning asosiy yuqori saviyada o'tishini ta'minlaydi. AQSHning ko'pgina o'ziga xos, qiziqarli odatlari ham mavjud. Masalan, aholi transportida bir-biriga joy berilmaydi, restoranda ayol kishi uchun haq to'lavorish odat emas va uyga kirishdan oldin hech qachon oyoq kiyimi yechilmaydi.

"Avliyo Patrik kuni"da esa barcha amerikaliklar irlandlar urf-odatlarini bajarish orqali bayramni keng nishonlashga kirishadi. Ya'ni irland urf-odatiga ko'ra atrofdagi barcha narsalar yashil rangga bo'yaladi, hatto yashil pivo va kulchalar ham shular jumlasidandir. Urfga ko'ra har bir voyaga yetgan kishi irland bariga borib, bir qadah o'tkir ichimlikdan ichishi kerak.

Amerikaliklarning eng sevimli zamonaviy bayrami bu Xellouindir. Bu bayramning kelib chiqish tarixi Irlandiya va Shotlandiya keltlarining urf-odatlariga borib taqaladi. Bayram asosan ingliz tilida so'zlashuvchi davlatlarda 31-oktyabr kuni nishonlanib, u rasmiy dam olish kuni deb hisoblanmaydi. Bu kunda barcha amerikaliklar har xil an-

tiqa niqobli kostyumlarni kiyib, barcha birgalikda nishonlashga harakat qiladilar.

Noyabr oyining oxirida esa AQSH aholisi “Shukrona kuni”ni nishonlaydilar. Bu kunda barcha oila a’zolari qayerda bo‘lishlaridan qat’i nazar, yetib kelib bir stol atrofida yig‘iladilar. Odatga ko‘ra, bu kunda pishirilgan kurka go‘shini tanovul qilib Xudoga barcha bergan ne‘matlari uchun shukrona bildiradilar.

“Martin Lyuter King kuni” – AQSHning federal bayrami, butun mamlakatda dam olish kuni, afroamerikaliklar huquqi himoyachisi, Nobel mukofoti sovrindori Martin Lyuter Kingga bag‘ishlangan. Bayram har yili yanvar oyining uchinchi dushanba kuni nishonlanadi. Uzoq vaqt mobaynida Martin Lyuter King kunini AQSHning bir qancha shtatlari bayram sifatida tan olmagan va boshqa bayramlar bilan qo‘shib nishonlangan. Faqatgina 2000-yilga kelib bu bayram AQSHning barcha hududlari bo‘ylab bayram qilinadigan bo‘ldi.

2. Adabiyoti. AQSh adabiyoti XVI asrdan rivojlana boshladi. 1775-1783-yillar mustaqillik uchun urush davridagi ma’rifatparvarlar, xususan, “Uchinchi tabaqa” oliy maqsadlarining targ‘ibotchisi B.Franklin va atoqli publisist “Somom aql” (1776) va “Inson huquqlari” (1791-1792) manifestining muallifi T.Peyn faoliyati milliy adabiyotni rivojlantirishda muhim ro‘l o‘ynadi. T.Jeffersonning “Mustaqillik deklaratsiyasi”da (1776-yil) ilg‘or ma’rifatparvarlik g‘oyalari aks etdi. Yevropa romantizmi ta’sirida 19-asrning 1-yarmida Amerika romantizmi yuzaga keldi va milliy o‘ziga xoslik xususiyatlarini ifodalab berdi. Romantizmning dastlabki davri 1810-1830-yillarga to‘g‘ri keladi. Uning eng salmoqli vakillaridan V.Irving, U.K.Brayant, J.F.Kuper asarlarida Amerika xalqining farovon turmush haqidagi orzu-umidlari aks etgan.

19-asrning 40-60-yillarida adabiyotda negrlarni qullikdan ozod qilish uchun boshlangan harakat bilan bog'liq yo'nalish yuzaga keldi. J.G.Uityer, X.U.Longfello, J.R.Louell, G.Bicher-Stou ("Tom tog'aning kulbasi"), R.Xildret kabi shoir va yozuvchilar asarlari, U.L.Xarrison, U.Filips, A.Linkoln, mutafakkir negr F.Duglaslarning publisistikasi quldorlikka qarshi qaratildi. Shoir U.Uitmen ijodi ham milliy adabiyotni rivojlantirishda muhim rol o'ynadi. Fuqarolar urushidan keyin AQSh adabiyotida Mark Tven ("Tom Soyerning sarguzashtlari", "Geklberri Finning sarguzashtlari") AQSh adabiyoti tarixida o'chmas iz qoldirdi. T.Drayzer ("Moliyachi", "Amerika fojiasi"), F.Norris, J.London ("Martin Iden") 19-asr AQSh adabiyoti an'analarini davom ettirib, AQSh adabiyoti tarixida yangi sahifa ochdilar. J.Londonning asarlarida insonning alohida toifasi, mard, kuchli, halol, ayni vaqtda o'z hayotiy kurashida yolg'iz inson gavdalan tirilgan. T.Drayzerning romanlarida ijtimoiy hodisalar chuqur tahlil etilgan, zamon qahramonlarining taqdiri keng miqyosda tasvirlangan, tarixga donishmandlarcha nazar tashlangan.

20-asrning 20-yillarida "Yo'qotilgan avlod" deb atalgan adabiy guruh (E.Xeminguey, U.Folkner, J.Dos-Passos, F.S.Fitsjerald) tashkil topdi. Uning vakillari mavjud tartib qoidalarini tanqid qildilar, ishonchsizlikni, bosqinchilik urushlariga qarshi harakatni, yosh avlod fojiasini tasvirladilar. Ikkinchi jahon urushi arafasida T.Drayzer fashizm mohiyatini fosh etdi va unga qarshi kurshchi obrazini yaratdi. Amerika adabiyotining eng yaxshi namunalari "Tom tog'aning kulbasi" (G.Bicher Stou), "Tom Soyerning sarguzashtlari" (M.Tven), "Ko'mir qiroli" (E.Sinkler) romanlari, J.London, O.Genri, T.Drayzer, O.Karlson, P.Bak, R.Konnel, E.Xeminguey hikoyalari, J.Xyuz she'rlari va boshqa asarlar o'zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etilgan.

Talabalar bilimini mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. *Qanday AQSh bayramlarini bilasiz?*
2. *“Mehnatkashlar kuni” bayrami qachon nishonlanadi?*
3. *AQShda qanday qiziqarli odatlar bor?*
4. *“Avliyo Patrik kuni” qanday nishonlanadi?*
5. *Muntazam teleko‘rsatuv qachondan boshlab ishlaydi?*
6. *Milliy adabiyotni rivojlantirishda kimning ijodi muhim rol o‘ynagan?*

15-mavzu. AQSh iqtisodiyoti, sporti va ommaviy axborot vositalari

Amerika sporti. Amerika Qo‘shma Shtatlarida sport Amerika madaniyatining muhim qismidir. Amerika futboli – beysbol basketbol va futboldan keyin AQShda ko‘riladigan eng mashhur sport turidir. Shuningdek, xokkey, tennis, golf, kurash, avtopoyga, lakros va voleybol ham mamlakatdagi mashhur sport turlaridir. AQShda yillik foyda keltiradigan 4 ta asosiy professional sport ligalari bo‘lib ular: Beysbol Ittifoqi, Milliy Basketbol Assosiat-siyasi, Milliy Futbol Ittifoqi va Milliy Xokkey Ittifoqidir. AQShda professional sport bozori taxminan 69 million dollarni tashkil etadi. Bu Yevropadagi barcha davlatlar, O‘rta Sharq va Afrikani qo‘shib hioblab qaraganda deyarli 50% kattadir.

Sport AQShda muntazam ta‘lim bilan bog‘langan. Bunda yuqori maktab va universitetlarda tashkillanadigan sport musobaqalari muhim o‘rin tutadi. Kollej sporti musobaqalari AQSh sporti madaniyatida muhim ro‘l o‘ynaydi va shuningdek, kollej basketboli va futboli ham mamlakatning ba‘zi qismlarida professional sport sifatida mashhurdir. Boshqa mamlakatlarga o‘xshamagan holda AQSh hu-

kumati Birlashgan Shtatlar Olimpiya Qo'mitasi sport uchun mablag' bilan ta'minlamaydi.

Beysbol. Beysbol AQShdagi eng mashhur o'yin turidir. U maktablar, kollejlari va professional jamoalar tomonidan bahar va yoz fasllarida o'ynaladi.

Futbol. Futbol kuz mavsumidagi eng mashhur o'yindir. AQShdagi hamma asosiy shaharlarning o'z professional terma jamoalari bor. Amerika futbolida, haqiqiy futbolga o'xshab, har bir jamoada 11 tadan o'yinchi o'ynaydi, biroq qoidalar farq qiladi. O'yinchilar Amerika futbolida tez-tez jarohatlanadi. Shuning uchun jamoa o'yinchilari maxsus kiyim va xokkey o'yinchilaridek boshlariga qalpoq kiyib olishadi.

Basketbol. Basketbol ham AQShdagi juda mashhur sport turlaridan biridir. U asosan yuqori maktablarda ham o'g'il bolalar, ham qizlar o'rtasida mashhurdir.

Golf. Golf o'yini biznesmen va professional odamlar bilan mashhurdir. U ham erkaklar, ham ayollar tomonidan o'ynaladi. Hozirda tennis o'ynovchilardan golf o'ynovchilar ko'proqdir.

Suzish. Suzish, suvda uchish va sho'ng'ish yozda o'ynaladigan mashhur sport turlaridir. Qishda ko'p odamlar agar shimoliy va markaziy shtatlarda yashasa, muz uchishga, konkiga va xokkeyga boradilar.

Matbuoti, radioeshittirish va teleko'rsatuvi. AQShdagi yirik kundalik gazetalar: "Nyu-York tayms" ("Nyu-York vaqti" 1851-yildan), "Nyu-York deyli nyus" (Nyu-York kundalik yangiliklari" 1919-yildan), "Nyu-York post" (Nyu-York pochta" 1801-yildan), "Vashington post" (Vashington pochta" 1877-yildan), "Vashington tayms" (Vashington vaqti" 1982-yildan), "Uollstrit djornel" ("Uollstrit gazetasi" 1889-yildan), "Chikago tribyun" ("Chikago minbari" 1847-yildan), "Los-Anjeles tayms"

(“Los-Anjeles vaqti” 1881-yildan).

Jurnallar: “Taym” (“Vaqt” 1923-yildan), “Nyusuik” (“Hafta yangiliklari” 1933-yildan), “Yunayted steys nyus end vold riport” (“Qo‘shma Shtatlar yangiliklari va jahonga nazar” 1933-yildan), “Biznes vik” (“Biznes hafta mobaynida” 1929-yildan), “Neyshn” (“Xalq” 1865-yildan), “Demokrat” (1961-yildan), “Layf” (“Hayot”).

Yetakchi axborot agentliklari: Assoshieyted Press (AP; 1848-yilda tashkil etilgan) va YUPI (1958-yilda tashkil etilgan). Birinchi tijorat radiostansiyasi 1920-yilda tashkil etilgan. AQShda 9 mingdan ko‘proq radio va IZO telestansiya mavjud. Tajriba teleko‘rsatuvi – 1928-yildan, muntazam teleko‘rsatuv 1941-yildan ishlaydi.

16-mavzu. Ingliz tili davlat tili hisoblangan mamlakatlar. Kanada



Davlat bayrog‘i



Davlat gerbi

Reja:

1. Siyosiy va iqtisodiy geografik o‘rni.
2. Aholisi va mehnat resurslari.
3. Kanada sanoati va qishloq xo‘jaligi.
4. Kanadaning tashqi aloqalari.

Tayanch iboralar: *Hamdostlik tarkibidagi federativ davlat, temir, nikel, uran, neft, gaz, o'rmon, kanadalik ingilizlar, kanadalik fransuzlar, eskimoslar, indeyslar, ovchilik, baliqchilik.*

Rasmiy nomi – Kanada.

Poytaxti – Ottava shahri.

Hududi – 9.970 610 kv.km.

Aholisi – 34.600 000 kishi.

Davlat tili – ingliz va fransuz.

Davlat dini – xristian dini (katoliklar (46%), protestantlar(25%), shuningdek, pravoslavlar, musulmonlar, induistlar, buddistlar).

Pul birligi – Kanada dollari.

Mustaqillik (Kanada) kuni – 1-iyul 1867-yil.

Eng yirik shaharlari: Monreal, Kalgari, Toronto, Edmonton, Vankuver, Sent-Djons, Saskatun va boshqalar.

1. Siyosiy va iqtisodiy geografik o'rni. Kanada – Shimoliy Amerika materigidagi davlat. Quruqlikda janub va shimoli-g'arb tomondan AQSH bilan chegaradosh. Kanada hududini sharqda Atlantika okeani: Boffin dengizi orqali Grenlandiya (Daniya), San-P'yer va Mikelon (Fransiya) orollari, g'arbda Tinch okeani, shimol va shimoli-sharqda Shimoliy Muz okeani suvlari o'rab turadi. Chegarasining umumiy uzunligi 8893 km. Hududining kattaligi bo'yicha dunyoda ikkinchi (Rossiyadan keyingi) o'rinda turadi. Eng yirik yarim orollari: Lobrodor, Yangi SHotlandiya; Orollari: Baffin Yeri, Elsmir, Viktoriya, Banks, Nyufaundlend, Keyp-Breton va boshqalar.

Kanadaning g'arbiy qismi burmali tog' tizmalaridan iborat bu esa foydali qazilmalarni qazib olishda katta ahamiyatga ega. Britaniya Kolumbiyasining qirg'oqlarida joylashgan Vankuver Kanadaning Osiyo-Tinch okean

mintaqasida eksport va import aloqalarda ahamiyatga ega. Tog'li hududda joylashgan Yukonda rangli metallar mavjud. Kanada umuman tabiiyresurslarga boy mamlakat.⁸¹

2. Kanada aholisi va mehnat resurslari. Kanada aholisiga ta'rif beradigan bo'lsak, uni «ko'chirilgan» mamlakati deb hisoblashimiz mumkin. Kanadaning hozirgi aholisi ommaviy immigratsiya ta'sirida shakllangan. Bular Yevropadan va dunyoning boshqa regionlaridan ko'chib kelganlar avlodi bo'lib, Kanada ko'p millatli mamlakatdir.

Kanada aholisi hozirgi kunda 36 048 521 kishini tashkil etadi va uning milliy tarkibi qo'yidagicha: 40%-ingliz-kanadaliklar, 28% fransuz-kanadaliklar, 15% - yevropaliklar, 2% - indeys-hindular, 15% - turli millatlardan iborat. (1-chizma)

Hozirgi vaqtda Kanada tub joy aholisi indeys-hindular 780 ming kishi, eskimoslar esa 49 ming kishini tashkil etadi. Mamlakatda indeys-hindular o'z urf-odatları bo'yicha o'z tilda muloqat qilishsa-da, biroq ularning ko'pchiligi rasmiy davlat tili hisoblangan ingliz tilida so'zlashadi. (8-jadval)

Kanada yuqori urbanizatsiyalashgan mamlakat, aholining 80 foizi shaharlarda yashaydi. Toronto, Monreal, Vankuver kabi shaharlar mamlakatning millioner shaharlari hisoblanadi.

Kanada aholisiga xos bo'lgan demografik ko'rsatkichlar. Tug'ilish – 10,3‰, o'lim - 10‰, tabiiy o'sish – 0,3‰. Yosh tarkibi: bolalar – 15,7%, kattalar – 68,5%, qariyalar – 15,8%. O'rtacha umr ko'rish – 81 yosh: erkaklarda – 79 yosh, ayollarda – 84 yosh. O'rtacha zichlik – 1 km.km.ga 3 kishi. Aholi jon boshiga YaMM – 47. 066 AQSH dollari.

⁸ World Regional Geography People, Places and Globalization. Royal Berglee, Morehead State University, 2012 (74-77-bet).

3. Kanada sanoati va qishloq xo'jaligi. Hozirgi Kanada AQSH, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Rossiya davlatlari bilan birga «katta sakizlik» mamlakatlar guruhiga kirib, xorijiy dunyoning industrial yetakchi mamlakatlaridan biridir. Mamlakatda qisqa tarixiy vaqt davomida bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyot barpo etildi.

Kanada xorijiy dunyoda nikel, rux, asbets, kaliy tuzlari va sellyuloza-qog'ozlari ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi mamlakatdir. Bundan tashqari mamlakat oltin, kumush, uran, oltingugurt, kobalt, temir rudasi, mis qazib chiqarishda yetakchi o'rinlarni egallaydi. Kanada qazib oluvchi sanoat mahsulotlari xom-ashyo va yarim fabrikantlarning jami 80 foizini jahon bozoriga chiqaradi.

Kanada davlati yirik savdo hamkorlariga ega. Kanada mahsulotining 80 foizi AQSHga eksport qilinsa, AQSHdan 70 foiz mahsulot import qilib olinadi. Kanadaning ko'pgina korxonalari aholini ish bilan ta'minlash maqsadida shaharlarda joylashgan. Kanada iqtisodiyoti tez sura'tlar bilan rivojlanmoqda. Iqtisodiyoti asosan yangi innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etilgan. Fan talab korxonalari ya'ni biotexnologiya va axborot texnologiyalari universitet ilmiy tadqiqot ishlarini olib boruvchilar bilan hamkorlikda ish olib borish maqsadida shaharlarda joylashgan.⁹

Sanoati. Energetika – mamlakat yoqilg'i energetika balansida birlamchi energiya manbalari hissasiga neft – 35 foiz, tabiiy gaz – 37 foiz, ko'mir – 13 foiz, gidro-energiya resurslari – 9 foiz, atom energiyasi – 2,4 foiz to'g'ri keladi. Mamlakatning neft va tabiiy gaz qazib oluvchi asosiy

⁹ World Regional Geography People, Places and Globalization. Royal Berglee, Morehead State University, 2012 (43-bet)

rayonlari Britan Kolumbiyasi, Alberta va Soskachevan provinsiyalarida joylashgan. Bu yerda g'arbdan sharqqa qarab transkanada quvirlari o'tkazilgan. Mamlakatda qazib olinayotgan neft va gaz asosan AQSHga eksport qilinadi. Biroq Kanadaning sharqiy provinsiyalari neftni chetdan import qiladi. Kanada rivojlangan neftni qayta ishlash sanoatiga ega. Mamlakatning yirik neftni qayta ishlash zavodlari Monreal, Sarnii, Vankuver, Edmonton shaharlarida joylashgan.

Kanadada toshko'mir asosan g'arbiy provinsiyalardan qazib olinadi. Mamlakatda yiliga 62 mln tonnadan ko'proq toshko'mir qazib olinadi. Kanada elektroenergiya ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda yetakchi mamlakatlar guruhiga kiradi. Mamlakatda yiliga 535 mlrd kvt/soat elektr energiya ishlab chiqariladi. Ishlab chiqarilayotgan elektroenergiyaning katta qismi ya'ni 60% GES ga qolgan 28% IES ga, 12% AES ga to'g'ri keladi.

Tog'-kon sanoati – mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lib, qayta ishlash sanoatini xom-ashyo bilan ta'minlaydi. Shu bilan birgalikda tog'-kon sanoati mamlakat eksport qiymatida 30 foiz ulushni tashkil etadi.

Qora metallurgiya sanoati mahalliy kapital negizida shakllangan. Yiliga 13-15 mln tonna po'lat ishlab chiqariladi. Mamlakatning yirik metallurgiya markazlari Atlantika qirg'oqbo'yi va Buyuk ko'l bo'yida joylashgan. Yirik metallurgiya markazlarga Gamilton, Su-Sent-Mari, Uel-lend, Sidni kabi markazlarni misol keltirish mumkin.

Rangli metallurgiya-mazkur sanoat tarmog'ining rivojlanishida AQSH va Buyuk Britaniya sarmoyasi mavqe'i kuchli. So'nggi yillarda mamlakatda rangli metallar ishlab chiqarishda (mis, qo'rg'oshin, nikel, rux) katta yutuqlarga erishildi. Mashinasozlik sanoatiga jami sanoat mahsulot qiymatining va qayta ishlash sanoatida band

sanoat ishchi xodimlarining 30 foizi to'g'ri keladi.

Kimyo sanoati. Ushbu sanoat tarmog'i asosiy kimyo, mineral o'g'itlar, polimerlar, plastmassalar, sintetik mahsulotlar ishlab chiqaradi. Kanada mineral o'g'itlar ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda 4-o'rinda turadi. Mamlakatda Sarniya, Monreal, Toronto, Niagara-Fols, Kitchener kabi kimyo sanoatining muhim markazlari ishlab turibdi.

Qishloq xo'jaligi. Kanadada qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarning umumiy maydoni 79 mln gektarni tashkil etadi. Mamlakatning shimolidagi bepoyon hududlarida qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun iqlim sharoitlaridan foydalanish noqulay. Kanada shimoliy hududlarida yashovchi tub aholining asosiy xo'jaligi, o'tmishda bo'lgani singari dengiz ovchiligi, baliqchilik, tundraning kontinental qismida esa bug'u va mo'ynali hayvonlar ovchiligi kabi an'anaviy tarmoqlar tashkil etadi.

Kanadada qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar tarkibida haydaladigan yerlar katta qismini ya'ni 60 foizni egallaydi. Shudgor qilinadigan yerlarning katta qismi 75 foizi janubdagi Dasht provinsiyasida joylashgan.

Mamlakatning bosh qishloq xo'jaligi rayoni Dasht provinsiyasi (Soskachevan, Albert, Manitoba provinsiyalari) va (Ontario, Kvebek) provinsiyalari hisoblanadi. So'nggi yillarda uzoq g'arbning qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi hissasi oshmoqda. Dasht provinsiyalari don yetishtirishdagi yaylov go'sht qoramolchiligi va qo'ychilikning go'sht-jun mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashgan.

Transport tarmoqlari. Kanadada transport tarmoqlarining barcha turlari rivojlangan. Biroq transport tarmoqlari mamlakat hududi bo'ylab notekis joylashgan. Mamlakat hududining katta qismida (shimoliy rayonlarda) amalda

transport yo‘llari qurilmagan.

Kanada temir yo‘llarning uzunligi bo‘yicha dunyoda AQSH va Rossiyadan keyinda turadi (Temir yo‘llarining umumiy uzunligi 97389 ming km dan ortiq).

4. Kanadaning tashqi aloqalari. Kanadaning AQSH bilan bevosita qo‘shnichiligi, uning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim va hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Eksporti – 400 mlrd.dan ortiq AQSH dollari hisobida. Asosiy mahsulotlari: avtomobillar va butlovchi qismlar, sanoat tarmoqlari uchun asbob-uskunalar, mineral xom ashyo, yog‘och, elektr uskunalar va boshqalar.

Kanada 1991-yil 25-dekabrda O‘zbekiston Respublikasining suverenitetini tan oldi va O‘zbekiston Respublikasi bilan 1992-yil 7-aprelda diplomatik munosabatlarni o‘rnatdi.

Talabalar bilimini mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. *Kanadaning geografik o‘rnini baholang*
2. *Nima uchun Kanada “Katta yettilik” davlatlari qatoriga qo‘shilgan?*
3. *Kanada aholisining hududiy joylashishiga xos xususiyatlarini belgilang.*
4. *Kanada iqtisodiyotida nima uchun sanoat asosiy o‘rin egallaydi?*
5. *Mamlakat dehqonchiligi va chorvachiligida qaysi tarmoqlar xalqaro ixtisoslashuv tarmoqlari hisoblanadi?*

17-mavzu. Ingliz tili davlat tili hisoblangan mamlakatlar. Avstraliya



Davlat bayrog'i



Davlat gerbi

Reja:

1. Siyosiy va iqtisodiy geografik o'rni.
2. Davlat tuzimi va siyosiy partiyalari.
3. Foydali qazilmalari.
4. Avstraliya aholisi tarkibi va tabiiy ko'payishi.
5. Avstraliya sanoati tarmoqlari, qishloq xo'jaligi va transporti.
6. Avstraliyaning tashqi iqtisodiy aloqalari.

Rasmiy nomi – Avstraliya Ittifoqi

Poytaxti – Kanberra shahri.

Maydoni – 7.682.300 (7.692ming) km.kv

Aholisi – 24.5 mln kishi (2017)

Davlat tili – ingliz

Davlat tuzimi – parlamentar konstitutsion monarxiya. 1901-yil 1-yanvaridan Dominion davlat hisoblanadi. Mustaqillik kuni – 1931-yil 11-sentyabr (1986-yil 3-mart).

Shiori: Olg'a, go'zal Avstraliya!

Davlat dini – xristian dini va unda quyidagi anglikanlar (26%), katoliklar (26%), protestlar (20%), pravoslavlar (4%) va boshqa din vakillari yashaydi.

Pul birligi – Avstraliya dollari.

Tayanch iboralar: *Aborigen, metis, ko'n-poyabzal, "janubiy" "shipstenis", port-hedlent, Tasmaniya.*

1. Siyosiy va iqtisodiy geografik oʻrni.

Avstraliya soʻzi “janubiy” maʼnosini bildiradi. Haqiqatan ham, u janubiy yarim sharda joylashgan. Eng kichik materik. Maydonining kattaligiga koʻra u dunyoda 6-oʻrinda turadi (7,7 mln km²). Avstraliya maydoni shimoldan janubga 3200 km, gʻarbdan sharqqa 4100 km ga choʻzilgan. Iqtisodiy geografik oʻrnida uning AQSH, Yaponiya, xorijiy Yevropa davlatlaridan uzoqda joylashganligi noqulayroq. Masalan: AQSH dan 11-15 ming km uzoqda joylashgan. Lekin hozirgi zamonaviy dengiz va havo transporti bu toʻsiqqa barham bermoqda.

2. Davlat tizimi va siyosiy partiyalari. Avstraliya – Buyuk Britaniya boshchiligidagi Hamdoʻstlik tarkibiga kiruvchi federal davlat. Avstraliyaning amaldagi konstitutsiyasi 1901-yilda qabul qilingan. Davlat tuzilishi shakli jihatidan – federatsiya. Davlat boshligʻi – Buyuk Britaniya qiroli (qirolichasi), general-gubernator uning vakili

Avstraliya va Yangi Zelandiyadagi flora va faunalar yer yuzasining boshqa joylarida uchramaydi. Avstraliya bir vaqtning oʻzida orol, qitʼa mamlakat va hududi boʻyicha eng kichik qitʼa. Avstraliya janubda joylashgan Tasmaniya oroliga ega materik. Avstraliya Tasmaniya dengizi orqali Yangi Zelandiya bilan ajralib turadi. Hind okeani uni gʻarbiy va janubiy tomonidan oʻrab turadi. Shimolda Indoneziya va Yangi Gvineya Papuani Timor va Arafur dengizi ajratib turadi. Shimolda karpenratiya qoʻltigʻi bor. Katta Barer rifi materikning shimoli sharqida 1600 mil uzoqlikda joylashgan. Avstraliya va Yangi Zelandiyaning janubida Antarktida joylashgan. Avstraliya yassi u qadar baland boʻlmagan togʻ tizmalari va quruq mamlakat. Yangi Zelandiya baland togʻ tizmalaridan iborat va yogʻin koʻp yogʻadi.¹⁰

¹⁰ World Regional Geography People, Places and Globalization. Royal Berglee, Morehead State University 2012 (299-300-bet).

Avstraliya iqlimiy jihatidan subekvatorial, tropik va subtropik mintaqalarda joylashgan. Iqlimi quruq tropik, sharqiy sohillari esa nam tropik. Asosiy daryosi: Murrey (Darling bilan). Foydali qazilmalarga boy. Asosan temir rudasi, mis, titan, nikel, uran, boksit, oltin, olmos, ko'mir kabilar. Masalan: temir rudasi, litiy, boksit, nikel qazib olishda dunyoda 1-o'rinda; marganets qazib olishda 2-o'rinda; qalay 7-o'rin; rux qazib olishda 3-o'rinda; mis qazib olishda 6-o'rinda; Ko'mir qazib olishda 4-o'rinda.

Tug'ilish koeffisienti 13 ‰, o'lim 7 ‰ . 15 yoshgacha bo'lganlar jami aholining 19% ini, 64 yoshdan o'tganlar 15 % ini tashkil etadi. O'rtacha umr erkakalarda 80, ayollarda 85 yosh. 1 ayolga 1,8 bola to'g'ri keladi. YaMD 45970 dollar (2017-y).

Avstraliyani 1606-yil golland sayyohi V.Yanszon kashf etgan. Yevropaliklar XVIIIasr oxiridan (1788-yil Sidneyga) ko'chib kela boshlagan. Aholisining 77 % ini Buyuk Britaniyadan ko'chib kelganlarning avlodlari, qolgani ni Yevropaning boshqa xalqlari, metislar va aborigenlar (50 000 kishi) (250 ming kishi aborigen va metislar) tashkil etadi. Aholisining tabiiy ko'payishi past. Aholisining hozirgacha migratsiya (yiliga 100-150 ming) katta ta'sir etmoqda. Aholisining o'rtacha zichligi 3 kishi bo'lib, u juda notekis joylashgan. Masalan: Avstraliya maydoni ning 65 % ida mamlakat aholisining 1 % i, mamlakatning janubi-sharqini egallagan 10% maydonida 91 % aholi yashaydi.

Eyr ko'li atrofida doimiy aholi umuman yo'q, lekin janubi-sharqiy sohillarida 1 km² joyga 250 tagacha odam to'g'ri keladi. Urbanizatsiya darajasi materiklar bo'yicha eng yuqori, ya'ni 90% tashkil etadi. Millioner shaharlari 5 ta: Sidney, Melbrun, Brisben, Pert, Adelida. Avstraliyaning 64 % aholisi mana shu 5 ta millioner shaharda to'plangan.

Avstraliya hududidan Buyuk Britaniya dastlab surgun

qilinganlar uchun joy sifatida foydalangan. XIX asrning 50-60 yillarida oltin konlarini ochilishi avstraliyaga aholini kelishini kuchaytirdi. 1901-yil Avstraliyadagi mustamlakalar birlashtirilib Avstraliya Ittifoqini tashkil etdi. 1931-yildan boshlab Avstraliya mustaqillik statusini oldi. Avstraliya ittifoqi – federativ davlat bo‘lib, hozirda u 6 ta shtat va 2 ta hududdan tashkil topgan. Buyuk Britaniya Hamdo‘stligi tarkibiga kiradi. Asosiy siyosiy partiyalari:

1. Avstraliya liberolistik partiyasi (1891-yil).
2. Avstraliya milliy-agrar partiyasi (1916-yil).
3. Avstraliya sotsialistik partiyasi (1972-yil tashkil topgan).

Avstraliyani jahonda tutgan o‘rni: maydonining 5,2 % ini, aholisining 0,3 % ini, YaM ni 1,2 % ini, eksport mahsulotlarining 1,1 % ini o‘z ichiga oladi.

Yengil sanoatining ip-gazlama, jun-gazlama va ko‘n-poyabzal tarmoqlari rivojlangan. Eng yirik to‘qimachilik korxonalari Sidney, Adelida, Melburn, Pert shaharlarida joylashgan. Neftni qayta ishlash va baliq konserva sanoati dengiz bo‘yidagi port shaharlarda rivojlangan. Eng yirik sanoat markazlari: Sidney va Melburn; yiriklari: Brisben, Adelida, Pert, Kanberra, Nyukasl.

3. Foydali qazilmalari. Avstraliya geologik tuzilishining o‘ziga xos xususiyatlari mineral xom ashyo resurslariga boy va xilma-xil bo‘lishiga olib kelgan. Avstraliya xilma-xil foydali qazilmalariga boy. Ulardan toshko‘mir, neft, tabiiy gaz, temir rudasi, mis, nikel, uran rudalari, boksitlar, oltin, olmos konlari shular jumlasidandir. Tosh-ko‘mir konlari materikning janubiy va janubi-sharqiy qismlarida (olmos qazib olishda dunyoda 1-o‘rinda turadi), neft va tabiiy gaz konlari mamlakatning sharqiy hududlarida va g‘arbida okean shelfida mavjud. Temir rudasining yirik konlari mamlakat g‘arbida (Tom-Prays, Maunt, Maunt-Ueylbek hududida, temir rudasi qazib olishda dunyoda 3-o‘rinda, yiliga 110 mln t.), oltin konlari janubi-g‘arbida (Kambalda,

Leonora), nikel ruda konlari shimoli-sharqiy (Grinveyl) va janubi-gʻarbiy qismlarida, alyuminiy (boksit) ruda konlari (dunyodagi eng yirik kon Keyp-York yarim orolida topilgan), uran rudalari konlari (Nabarlek) shimolda, olmos konlari (olmos qazib olishda 1-oʻrinda turadi va u Uinton va boshqa hududlarda) mamlakatning sharqiyva janubiy hududlarida joylashgan, shular qatorida boskit, rux, mis, qoʻrgʻoshin kabi yer osti boyliklari mavjud.

Avstraliyada mahalliy xomashyolarga asoslangan holatda togʻ-kon sanoati, metallurgiya mashinasozlik, yengil va oziq-ovqat sanoatlari yaxshi rivojlangan. Avstraliyada AESlar yoʻq. Asosan IES lar qisman GES lardan yiliga 200 mlrd kVt/s elektr energiyasi ishlab chiqariladi.

Mamlakatda yiliga 30 mln t. dan ortiq neft qazib olinadi. Lekin u ehtiyojni qondirmagani uchun OPEK davlatlaridan neft sotib olinadi. 63 mlrd m³ dan ortiq tabiiy gaz qazib olinadi va uni Yaponiyaga eksport qiladi. Yiliga 493 mln t. koʻmir qazib oladi (Nyukasl, Yangi J.Uels)va ortiqchasini asosan Yaponiya va Xorijiy Yevropaga eksport qiladi. Mamlakatda 2017-yili 5.3 mln t. poʻlat quyilgan. 162 ming donadan ortiq yengil avtomashinalar ishlab chiqarilgan.

4. Avstraliya aholisi tarkibi va tabiiy koʻpayishi.

Avstraliya aholisi deyarli bir millatli boʻlib, uning 77 % ini Buyuk Britaniya va Irlandiyaning *immigrantlar*-anglo avstraliyaliklar tashkil qiladi. Mahalliy aholi- aborogen va metislar juda ozchilikni tashkil qiladi (1,5 % atrofida). Avstraliyaning uzoqligi, kam oʻrganilganligi dastlab yevropaliklar tomonidan davlat jinoyatchiliklari surgun qiladigan joy sifatida foydalanilgan boʻlsa, XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab oltin topilishi va goʻsht-sut, jun chorvachiligining rivojlanishi bilan Buyuk Britaniyadan ommaviy immigratsiya mamlakatga aylandi va tezlikda aholi surʼati 20 % ga qadar oʻsishini taʼminladi. Aholisi-

ning tabiiy ko'payishi ancha past. Aholisining hozirgacha migratsiya darajasi (yiliga 100-150 ming) katta ta'sir etmoqda. Aholisining o'rtacha zichligi 1 kv.km. ga 3 kishi bo'lib, u juda notekis joylashgan. Masalan: Avstraliya maydoning 65 % ida mamlakat aholisining 1%i, mamlakatning janubi-sharqini egallagan 10 % maydonida 91 % aholi yashaydi. Eyr ko'li atrofida doimiy yashavchi aholi umuman yo'q, lekin janubi-sharqiy sohillarida 1 kv.km. joyga 250 tagacha aholi to'g'ri keladi.

Avstraliyaga 1606 yil portugaliyaliklar kirib kelgan. 1700 yil Avstraliyaning shimoliy va g'arbiy qirg'oqlari «New Holland» deb nomlangan.¹¹

Demografik ko'rsatkichlari: Tug'ilish koeffitsienti – 14‰, o'lim koeffitsienti – 6 ‰, o'rtacha umr ko'rish darajasi – 80 yosh (ayollarda 82 yosh, erkaklarda 78 yosh), ishsizlik darajasi – 4,3%, aholi jon boshiga YaMM – 40680 AQSH \$, aholi zichligi – 1 kv.km. ga 3 kishi, 15 yoshgacha bo'lganlar jami aholining 20%ini, kattalar 66%ini, 64 yoshdan o'tganlar 14%ni tashkil etadi. Bir ayolga 1,7 bola to'g'ri keladi.

Davlat dini – xristian dini va unda qo'yidagi anglikanlar (%), katoliklar (25,8%), protestantlar (20%), pravoslavlar (4%) va boshqa din vakillari yashaydi. Yevropaliklar 92%, osiyoliklar 7%, tub aholi 1% atrofidadir.

Urbanizatsiya darajasi materiklar bo'yicha eng yuqori, ya'ni 82 % ni tashkil qiladi. Sidney (3,7mil.), Melburn, Brisben, Pert, Adelaida –millioner shaharlar hisoblanadi.

5. Avstraliya sanoati tarmoqlari, qishloq xo'jaligi va transporti.

1901-yil Avstraliyaning turli hududlari va shtatlari Avstraliya hamdo'stligi nomi bilan ataladigan bitta federatsiyaga aylantirilgan. 1927-yil federatsiyaning poytaxti qilib

¹¹ World Regional Geography People, Places and Globalization. Royal Berkshire, Morehead State University 2012 (299-300-bet).

Konberra shahri tayinlangan. Britaniya monarxi davlat boshlig'i hisoblanadi. Avstraliya oxirgi yillarda Britaniya dan ajralib chiqish uchun harakat qilmoqda.¹²

Tarixdan ko'rinib turibdiki, Avstraliya sanoati rivojlanishida Yevropaliklarning ta'siri katta. Avstraliya iqtisodiyotida sanoat ishlab chiqarish, ya'ni tog'-kon sanoati, metallurgiya, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoati yetarlichi o'rin tutadi. Iqtisodiy faol aholining 35 % i sanoat, 7 % i qishloq xo'jaligi, 7 % i transport tarmoqlarida va 50 % i noishlab chiqarish sohalarida (savdo, moliya-bank, xizmat ko'rsatish) band.

Avstraliya xo'jaligida an'anaviy qo'ychilik iqtisodiyotning milliy tarmog'idir. Ayni vaqtda chorvachilik tarmoqlari negizida eksport yo'nalishidagi yirik va xilma-xil oziq-ovqat sanoati (go'sht va sut mahsulotlari, bug'doy va shakar ishlab chiqarish) rivojlangan bo'lsa, ikkinchi eksport yo'nalishi temir rudasi qazib chiqarish, boksit, qo'rg'oshin, uran, toshko'mir, rangli va kamyob rudalar, tayyor alyuminiy, turli qotishmalar, mis, qalay, qorg'oshin va rux eritmalarini o'z tarkibiga oladi.

Iqtisodiyotdagi o'zak tarmoq – oziq-ovqat sanoati mahalliy xom ashyo asosida go'sht-sut, un-yorma, qand-shakar, meva-sabzavot konservalari ishlab chiqariladi. Oziq-ovqat sanoati korxonalari mamlakatning janubi-sharqidagi port shaharlarda (Melbrun, Sidney, Nyukasl, Adelaida va boshqalar.) joylashgan.

Mashinasozlik (yengil va yuk avtomobillar, qishloq xo'jaligi texnikasi va jihozlari), elektrojihozlar, xilma-xil priborlar va boshqa mahsulotlar, neftni qayta ishlash, kimyo sanoati (azotli va fosforli o'g'itlar, plastmassa, kimyoviy tolalar va boshqalar), yengil sanoat (poyabzal, gazlama va trikotaj) rivojlangan.

¹² World Regional Geography People, Places and Globalization. Royal Berglee, Morehead State University 2012 (299-300-bet).

Eng katta temir rudasi – Gʻarbiy Avstraliyadagi Pilbara koni, rangli metal rudalari, asosan Broken-Xill (Yangi Janubiy Uels) va Maunt-Ayza, boksitlari Ueypa (Kvin-slend) va Gov (SHimoliy hudud) dan qazib olinadi. Yiliga oʻrtacha 420 mln tonna temir rudasi, 353 mln. tonna toshkoʻmir, 40 mln. tonna neft, 30 mlrd.m³ tabiiy gaz qazib olinadi. (10-jadval)Sanoatida mashinasozlik, metallurgiya, kimyo, neft kimyosi (oltingugurt kislotasi, mineral oʻgʻitlar) va neftni qayta ishlash tarmoqlari ustunlik qiladi. Yiliga 9,5 mln. tonna poʻlat, 900 ming tonna mis, 211 ming tonna qalay, 2 mln. tonna alyuminiy va 360 ming donaga yaqin avtomobil ishlab chiqarilgan. Oziq-ovqat sanoati koʻproq eksportga (goʻsht, un, qand-shakar, sariyogʻ-pishloq, pivo, vino) moslangan. Toʻqimachilik, tikuvchilik, poyabzal korxonalari bor. Asosiy sanoat markazlari: Sidney, Melbrun, Brisben, Adelaida, Pert. Vullogong-Port-Kembla, Nyukasl, Jilong, Kuinana port-sanoat majmualari shakllangan. Mamlakatning issiqlik va gidroelektr stantsiyalariga ega. Avstraliyada AES lar yoʻq. Asosan, IES lar, qisman GES lardan yiliga 200 mlrd kvt/s elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Avstraliyada hozirgi vaqtda 40 mln.t neft, lekin u ehtiyojni qondirmagani uchun qoʻshimcha OPEK davlatlaridan sotib olinadi. 30 mlrd. kub metr tabiiy gaz qazib olinadi va uni Yaponiyaga eksport qiladi, 353 mln. tonna toshkoʻmir qazib oladi (Nyukasl, Yangi Janubiy Uels) va ortiqchasini asosan Yaponiya va xorijiy Yevropaga eksport qiladi. 9-10 mln. tonna poʻlat eritilmoqda, 360 ming donadan koʻp yengil avtomobillar ishlab chiqarilmoqda.

Avstraliya yengil sanoat, ayniqsa, uning toʻqimachilik, teri-poyabzal tarmoqlari yaxshi rivojlangan. Toʻqimachilik korxonalari Sidney, Melbrun, Adelaida, Pert shaharlarida joylashgan.

Qishloq xoʻjaligi. Avstraliya yirik yer egaligi mamal-

akati. Foydalaniladigan yerlarning 80 % dan ortig'i yirik yer egalari qo'lida. Fermalar sertovarligi, mexanizatsiyalashuvi va ixtisoslashuvi bilan ajralib turadi. Qishloq xo'jaligi mahsuloti qiymatining 60 % idan ko'prog'ini chorvachilik beradi. Qo'ylar 17,4 mln. boshga ega xo'jaliklar (skvatter – yirik chorvador) mavjud, qoramol – 780 ming boshni, chuchqa 5,4 mil. boshni, paranda 416 mil. boshni tashkil etadi. Qo'ychilikning asosiy rayonlari janubi-sharqiy va janubi-g'arbiy sohil sut yetishtiruvchi rayon janubi-sharqiy sohil, go'sht yetishtiruvchi rayon mamlakat sharqi va shimoli. Salkam 15 mln. gektarga ekin ekiladi, shundan 1,5 mln. gektari sug'oriladi. Asosiy ekinlar bug'doy (hosili yiliga o'rtacha 14,3 mln. tonna) va shakarqamish, shuningdek, arpa, sul, supurgi, jo'xori, sholi, makkajo'xori, kartoshka, paxta, tamaki, uzum, mevali daraxtlar. Bir yilda o'rtacha 3,7 mln. tonna shakar xom ashyosi, 3,7 mln. tonna go'sht, 720 ming tonna jun yetishtiriladi.

Transporti. Avtomobil yo'llari 913 ming km, jumladan, qattiq qoplamali yo'llar – 420 ming km, temir yo'l – 33819 km. tashkil qiladi. Asosiy dengiz portlari- Sidney, Melbrun, ixtisoslashtirilgan portlar – Port-Xedlend, Dampir (temir ruda jo'natish), Nyukasl, Port-Kembla, Gladston va Frimantal yirik port shaharlaridir.

Ichki aloqalarda avtomobil transportining roli katta (yo'lovchilar tashishning 90 % i to'g'ri keladi), 1 mln. km da ortiq shosse yo'llariga ega. Temir yo'l transportiga yuk aylanmasining 1/3 qismi to'g'ri keladi. Ichki suv transporti umuman yo'q. Dengiz transportining yuk aylanmasidagi hissasi (50 % dan ortiq) juda yuqori. Havo transporti (yo'lovchi tashishda) katta o'rin tutmoqda. Xalqaro aeroportlari Sidney, Melbrun, Pert, Darvin.


6. Avstraliyaning tashqi iqtisodiy aloqalari. Avstraliyaning asosiy savdo sheriklari: Yevropo Ittifo-

qi mamlakatlari (2/3 qism tashqi savdo aylanmasi) va AQSH, Yaponiya, Yangi Zelandiya va boshqa mamlakatlardir. Eksportda mineral xom ashyo (40 % eksport qiymati) va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari (40 % eksport qiymati, bug‘doy, shakarqamish, paxta, go‘sht, jun va boshqalar), ishlov beruvchi sanoat va itse‘mol tovarlari yetakchi o‘rin tutadi.

Talabalar bilimini mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. *Avstraliya qanday tabiiy resurslarga boy?*
2. *Avstraliyaning xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan foydali qazilma boyliklari haqida ma‘lumot bering?*
3. *Aholisining dinamikasiga xos xususiyatlarini aniqlang?*
4. *Avstraliya aholisi qanday joylashgan?*
5. *Avstraliya qishloq xo‘jaligi to‘g‘risida nimalarni bilasiz?*

18-mavzu. Ingliz tili davlat tili hisoblangan mamlakatlar. Yangi Zelandiya



Davlat bayrog‘i



Davlat gerbi

Reja:

1. *Yangi Zelandiyaning shakllanish tarixi va davlat tizimi.*
2. *Yangi Zelandiyaning tabiiy sharoiti va foydali qazilmalari.*
3. *Yangi Zelandiya aholisi, iqtisodiyot tarmoqlari (sanoati, qishloq xo‘jaligi va transporti).*
4. *Yangi Zelandiyaning tashqi iqtisodiy aloqalari.*

Poytaxti – Vellington shahri.

Maydoni – 268 680kv.km.

Aholisi – 4.450 ming. kishi.

Davlat tili – ingliz.

Davlat dini – xristian dini.

Pul birligi – Yangi Zelandiya dollari.

Davlat tuzumi – Yangi Zelandiya – Buyuk Britaniya Hamdo'stligi tarkibiga kiruvchi parlamentar monarxiya davlat. Davlat tizimi – parlamentar konstitutsion monarxiya. Mustaqillik kuni –1907-yil 26-sentyabr . Milliy bayrami – 6-fevral 1840-yil.

***Tayanch iboralar:** materik, Tasmaniya dengizi, J.Kuk, dominion, general-gubernator, maori, industrial agrar, go'sht-jun chorvachiligi, titan, qo'ng'ir va toshko'mir, diplomatiya.*

Yangi Zelandiya – Janubiy yarim sharda joylashgan, Avstraliya materigi (davlati) janubi-sharqida, ya'ni Avstraliya bilan Tasmaniya dengizi orqali chegaradosh, Tinch okeanining janubi-g'arbiy qismida joylashgan davlat. Maydoni– 268 680 kv.km. Ma'muriy jihatdan 16 ta hududga bo'linadi.

1. Yangi Zelandiyaning shakllanish tarixi va davlat tizimi. Yangi Zelandiyaga X-XIV-asrlarda maorilar kelib joylashgan. Yevropaliklardan birinchi marta 1642-yil gollandiyalik dengizchi Abel Tasman borgan. 1769-1970-yillarda ingliz dengizchi sayyohi J.Kuk orollarni tadqiq qilgan. 19-asrning boshlarida Yevropaliklarning dastlabki aholi punktlari paydo bo'ldi. Shundan so'ng maorilarga tegishli yerlarni bosib olish jarayoni boshlangan. 1840-yil dastlabki ingliz muhojirlari Vellington shahrini barpo etdilar. 1840-yildan Angliya Yangi Zelandiyani o'z mustamlakasiga aylantirdi. 1907-yil Yangi Zelandiya dominion maqomini oldi.

Davlat tuzumi. Yangi Zelandiya – Buyuk Britaniya

boshchiligidagi Hamdo'stlik tarkibiga kiruvchi parlamentar monarxiya. Buyuk Britaniya parlamenti va asosan, Yangi Zelandiya parlamenti tomonidan qabul qilingan qonun hujjatlariga amal qilinadi. Davlat boshlig'i – Buyuk Britaniya qirolichasi, uning nomidan general-gubernator davlatni (2011- yil avgust oyidan boshlab Djerri Mateparae) boshqaradi.

2. Yangi Zelandiyaning tabiiy sharoiti va foydali qazilmalari. Yangi Zelandiya Kuk bo'g'ozi orqali ajralib turgan Shimoliy va Janubiy orollarda joylashgan. Yangi Zelandiyaga Tinch okeandagi bir qancha mayda orollar ham kiradi. Mamlakatning 3/4 qismini tog', qir va tepaliklar tashkil etadi. Okean sohili va daryo vodiylari pasttekisliklardan iborat. Shimoliy orolda tez-tez zilzila bo'lib turadi, so'nmagan vulqonlar, geyzerlar, qaynoq mineral buloqlar mavjud. Janubiy orolda Janubiy Alp tog'lari joylashgan (eng baland joyi 3764 m – Kuk tog'i; cho'qqilarda abadiy qor va muzliklar bor). Shimoliy orol qirg'og'i yaqinidagi shelfda neft, gaz, temir, mis, polimetall rudalari, oltin, ko'mir konlari bor. Iqlimi subtropik dengiz iqlimi, chekka janubi mo'tadil iqlim.

3. Yangi Zelandiya aholisi, iqtisodiyot tarmoqlari (sanoati, qishloq xo'jaligi va transporti). Aholisining asosiy qismi yangi zelandiyaliklar; ular yangi zelandiyalik inglizlar va maorilar (15%) ga bo'linadi. Bundan tashqari, polineziyaliklar, ingliz, shotland, irland, xitoy, hind va boshqa xalqlar ham yashaydi. Rasmiy tillar – ingliz va maori tillari. Dindorlarning aksariyati – protestantlar. Shahar aholisi 85%. Yirik shaharlari: Vellington, Oklend, Kraystchyorch.

Sanoatida oziq-ovqat va yengil sanoat rivojlangan. Qora va rangli metallurgiya, mashinasozlik, yog'ochsozlik va sellyuloza-qog'oz, kimyo, to'qimachilik sanoati korxonalari mavjud. Alyuminiy, plastmassa, o'g'it, sement, chinni zavodlari bor. Kon sanoatida tabiiy gaz, temir rudasi, mis, qo'rg'oshin, rux, oltin, kumush, qo'ng'ir va toshko'mir, titan (magnetit qumi) qazib olinadi. Mashina-

sozlik va metallni qayta ishlash sanoati, avtomashinalarni yig'ish va ta'mirlash korxonalaridan iborat.

Yangi Zelandiya – **qishloq xo'jaligi** yuksak darajada rivojlangan industrial-agrar mamlakat. Yalpi ichki mahsulotda qishloq xo'jaligi 9 foiz, sanoat 25 foiz, xizmat ko'rsatish tarmog'i 66 foizni tashkil etadi. Qishloq xo'jaligining asosi – sut, go'sht va go'sht-jun chorvachiligi mashhur hisoblanadi. 47,5 mln. qo'y, 9 mln. qoramol boqiladi. Yangi Zelandiya sariyog', go'sht, jun va pishloq eksport qilish bo'yicha dunyoda oldingi o'rinlarda turadi.

Transportida dengiz transportining ahamiyati katta. Yirik portlari: Vellington, Oklend, Littelton. Temir yo'llar uzunligi 3,9 ming km, avtomobil yo'llari uzunligi 92 ming km. Vellingtonda xalqaro aeroport bor.

4. Yangi Zelandiyaning tashqi iqtisodiy aloqalari.

Tashqi savdoda Yaponiya, AQSH, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Janubiy Koreya, Xitoy bilan hamkorlik qiladi.

O'zbekiston – Yangi Zelandiya munosabatlari.

Ikki davlat o'rtasida diplomatiya munosabatlari 1992-yil 19-martda o'rnatilgan bo'lishiga qaramay, Ya.Z.ning geografik jihatdan uzoqda joylashganligi mamlakatlar o'rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlarga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. 2004-yil yanvar-noyabrda O'zR bilan bo'lgan tovar aylanmasi 210,2 ming AQSH dollarini, undan eksport 20,3 ming, import 189,9 ming AQSH dollarini tashkil etdi. O'zbekistonda hamkorlikda ochilgan Yangi Zelandiyaning bir nechta qo'shma korxonalari bor.

Talabalar bilimini mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

- 1. Yangi Zelandiyaga maoriylar qachon kelgan?*
- 2. Yangi Zelandiyaga Yevropaliklardan birinchi marta kim borgan?*
- 3. Kuk tog'ining balandligi qancha?*
- 4. Yangi Zelandiya yirik shaharlarini sanang.*

5. *Tashqi savdo aloqalari qaysi davlat bilan?*
 6. *O‘zbekiston – Yangi Zelandiya munosabatlari qachondan boshlangan?*

Mundarija

<i>1-mavzu. Mamlakatshunoslik faniga kirish</i>	4
<i>2-mavzu. Buyuk Britaniya geografik o‘rni, hududi, qismlari va iqlimi</i>	16
<i>3-mavzu. Buyuk Britaniya tarixi</i>	27
<i>4-mavzu. Buyuk Britaniya davlat tuzumi</i>	36
<i>5-mavzu. Buyuk Britaniya davlat ramzlari</i>	39
<i>6-mavzu. Buyuk Britaniya ta’lim tizimi</i>	42
<i>7-mavzu. Britaniyaliklarning urf-odatlar, bayramlari</i>	45
<i>8-mavzu. Buyuk Britaniya iqtisodiyoti, sporti va ommaviy axborot vositalari</i>	48
<i>9-mavzu. AQSh geografik o‘rni, aholisi va tabiiy qazilma boyliklari</i>	52
<i>10-mavzu. AQSh tarixi</i>	62
<i>11-mavzu. AQSH davlat tuzumi</i>	66
<i>12-mavzu. AQSH davlat ramzlari</i>	72
<i>13-mavzu. AQSH ta’lim tizimi</i>	73
<i>14-mavzu. AQSh madaniyati</i>	76
<i>15-mavzu. AQSh iqtisodiyoti, sporti va ommaviy axborot vositalari</i>	81
<i>16-mavzu. Ingliz tili davlat tili hisoblangan mamlakatlar. Kanada</i>	83
<i>17-mavzu. Ingliz tili davlat tili hisoblangan mamlakatlar. Avstraliya</i>	89
<i>18-mavzu. Ingliz tili davlat tili hisoblangan mamlakatlar. Yangi Zelandiya</i>	99

